2022-yil. 2-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584

«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»
ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
Tolib Enazarov
To'lqin Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Lutfullo Jo'rayev (bosh muharrir o'rinbosari)
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Nigora Uralova
Emma Torosyan
Yuliya Musurmanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Elektron jurnali

M U N D A R I J A

TAHLIL

Alijon SAFAROV. Turkfront harbiy nashrlarining manipulyativ ta'sirlari ... 2
Saxiba SAIDMURADOVA. "Go'ro'g'li" romanida badiiy uslub va psixologik tasvirlar ... 3
Yoqutxon ERKABOEVA. Gonzo jurnalistikasi va uning janr imkoniyatlari ... 6
Mahbuba HOLMATOVA. Ways to improve students' communicative competence in ESP classes ... 7
Nurjahon NAZAROVA. Ertak janri matnining diskursiv tahlili ... 9
Ravshan NIYAZOV, Mo'mina UMEDOVA. O'zbek detektivining vujudga kelishida xalq og'zaki ijodining genetik manba bo'lib xizmat qilishi va yozma adabiyotdagi ilk detektiv unsurlar ... 11
Safiya QALANDAROVA. Chet tilda kasbiy ishbilarmonlik muloqoti shakllanishini tadqiq qilish metodologiyasi ... 13
Hasanjon OLIMOV. Globallashuvning milliy til va madaniyatga ta'siri ... 15

TADQIQOT

Maqsuda IKROMOVA. Chet tilini o'qitishda ommaviy axborot vositalari va interfaol o'yinlarning ahamiyati ... 16
Solijon AZIZOV. Talabalarning chet tilidagi yozuv kompetensiyasini takomillashtirish istiqboli: raqamli ta'lim muhiti, hamkorlik va qayta aloqa ... 18
Obid JAYNAROV. O'quvchilarning ma'naviy kompetensiyasini shakllantirishda "Tarbiya" fanining ahamiyati ... 21
Nargiza SATTAROVA. Erkin Vohidovning "Oltin devor" dramasida presuppozitsiya ifodasi ... 23
Muhabbat YUSUPOVA, Dilnoza ABDUKABIROVA. Lingual analysis of phraseological units in the Uzbek and English languages ... 25
Zulfiya BERDIYEVA. Xorijiy antroponimlarning diskursiv pragmatik xususiyatlari ... 27
Nilufar TOSHPO'LATOVA. Badiiy matnning psixolingvistik xususiyatlari ... 30
Munisa KURBANOVA. Interactive methods and their usage ... 32
Nilufar TASHMATOVA. Haydar xorazmiyning "gulshan ul-asror" masnaviysida o'zlashma qatlamga oid leksemalar ifodasi ... 34
Marvarid NURBAEVA. Tarbiyaning asosiy kategoriyalari ... 37
B.MUXAMEDOVA, A.NURULLAYEVA. Tikuvchilik faoliyatini tavsiflovchi kasbiy atamalar va tushunchalar ... 39

TARJIMASHUNOSLIK

Mariya SARSENBAEVA, **Ravshan NIYAZOV**. The importance of conference interpreting types ... 40

QO'SHIMCHA MATERIAL

Husniddin BERDIYEV. Axborot asrida informatsion xurujlar ... 42
Nilufar NAMOZOVA. Hoji Muin biograf, matbuot tarixnavisi ... 43
Anapashsha QURBONOVA. Doston navolariga baxshida umr ... 46

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Хонбиби ДУСМАТОВА. Урок литературы в 8-м классе по теме «Ярослав Васильевич Смеляков «Хорошая девочка Лида» ... 48

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Саодат МАГДИЕВА. Проблема активности личности обучаемого на базе «Фреймового погружения» в учебную тему уроков интегрированного направления ... 50
Инобат ТУРСУНОВА, Шохида БАЗАРОВА. Развитие навыков аудирования в обучении устной речи студентов, окончивших узбекские школы ... 52
Диляра ЗАРИПОВА. Сочинение как одна из форм самостоятельной работы студентов ... 54
Дильноза НАЗАРОВА. Цели и проблемы содержания обучения родному языку в школе ... 57

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Насиба ПАНЖИЕВА. Когнитивно-стилистический подход к принципу бинарной оппозиции ... 60
Дилноза НАМОЗОВА. Содержание и структура фонетической компетенции ... 62
Наргиза ТЕШАБОЕВА. Перифраза как предмет лингвистического исследования ... 65

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Хуршида МАКСУДОВА. Эмоциональность в социальном контексте художественного текста ... 67
Гулсанам МАРАИМОВА. Литературный анализ пьесы А.Н.Островского «Гроза» ... 68
Хуршидбек МАМАТИСАКОВ, Ойбек АКБАРОВ. Художественный анализ произведения К.А.Икрамова «Дело моего отца» ... 70
Альфия ТУХТАРОВА. Художественная концепция личности в творчестве Алексея Варламова ... 72

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Шахноза МУРАКАЕВА. Внедрение интерактивных новейших IT-технологий для проектов дистанционного обучения английскому языку ... 75

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Эльдар ГИЗДУЛИН. Отражение мотивов восточной мистики в творчестве русских писателей XIX века ... 79

МЫСЛИ ВСЛУХ

Мукаддас ГУЛАМОВА. Знаешь язык – узнаешь мир ... 82

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Alijon SAFAROV,
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TURKFRONT HARBIY NASHRLARINING MANIPULYATIV TA’SIRLARI

Bugun dunyoda kechayotgan turli qurolli nizolar, to‘qnashuvlarda medianing targ‘ibot funksiyasidan samarali foydalanishga, ayniqsa, turli manipulyativ ta’sirlarni ishga solishga urinish tobora ortib bormoqda. Bu ayniqsa, axborot urushiga jurnalistlarning faol jalb etilishida, “Hromadske International” muxbiri Maksim Eristavining fikri bilan ifodalaganda, axborot urushining jangchisiga aylanib, so‘z erkinligini yo‘qolganida ko‘zga tashlanadi. Ya’ni targ‘ibot bilan bog‘liq vazifa yuklana borgani sayin tayyorlanayotgan materialda manipulyativ omillari ham ortadi. Manipulyasiyaning eng ko‘p tarqalgan ommani ishontirish turidan OAV orqali foydalanishga harakat ijtimoiy hayotda yaqqol ko‘zga tashlanyapti.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilishicha, “Manipulyasiya” - fransuzcha “manipulato” hamda lotincha “manipulus” so‘zidan olingan bo‘lib, “hovuch”, “qo‘l” ma’nosini anglatadi[1]. Ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, manipulyasiya targ‘ibot, g‘oyaviy singdirish (jamoat ongiga mafkuraviy va psixologik ta’sir o‘tkazish uslubi: OAV orqali ma’lum bir g‘oyani singdirish) ekanligini bilib olasiz. Yoki bo‘lmasa, manipulyasiya (ruhiy) – ijtimoiy ta’sir tipi bo‘lib, manipulyatorning manfaati yo‘lida yashirin, aldamchi va zo‘ravonlik taktikasini qo‘llab insonlardagi qarashlar va xulqni o‘zgartirishga intilishdir, degan qarashlar ham mavjud. Rus tadqiqotchisi Sergey Kara-Murzaning ta’rifiga ko‘ra, “manipulyasiya” atamasi metafora bo‘lib, ko‘chma ma’noda qo‘llarni epchillik bilan ishlatish, odamlarga qo‘l harakati bilan muroajaat qilish, ularni epchillik bilan boshqarishdir[2].

“Журналистика в условиях конфликта: передовой опыт и рекомендации” qo‘llanmasida keltirilishicha, harbiy nizo va qurolli to‘qnashuvlarda OAV xodimiga nisbatan manipulyasiyada hukumat va manfaatdor shaxslar qo‘llashi mumkin bo‘lgan ko‘plab usullar bor[3].

Xo‘sh, bunday usullar yangilikmi? Yoki axborot urushi tobora hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib borayotgan asrimizga xosmi? Aynan shu muammoga javob izlash maqsadida Turkistonda bir asrcha muqaddam boshlangan milliy ozodlik kurashida harbiy OAVdan qanday manipulyativ vosita sifatida foydalanilganini o‘rganib chiqdik. Turkfront inqilobiy harbiy kengashining “Bosmachilikka qarshi kurash bo‘yicha ko‘rsatmalar to‘plami” nomli nashrida muallif S.Kamenev shunday yozadi: “Joylarda o‘tkazilayotgan siyosiy ishlar bilan bir qatorda, harbiy qismlarda ham siyosiy ishlarga e’tibor kuchaytirilishi, bunda asosiy vazifa harbiy kurashning maqsadini va qizil armiyaning tubjoy mehnatkash aholi bilan aloqalarini to‘g‘ri yoritishga qaratilishi kerak”[4]. Bu ko‘rsatmaning o‘zidan ham anglash mumkinki, OAV Turkfront uchun muhim targ‘ibot vositasi bo‘lgan. Aniqroq qilib aytganda, mazkur idora o‘zining muassisligida chop etilayotgan nashrlarga siyosiy topshiriq, ko‘rsatma berib borgan.

Fikrimizni tarixchi olim Nodirbek Xamaevning “O‘zbekistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat va harbiy matbuot” nomli maqolasi ham isbotlaydi. Unda keltirilishicha, Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash vaqtida qizil askarlar uchun mo‘ljallangan harbiy nashrlar soni 20 dan ortgan. Muallif gazetalarining mavjud sonlarini tadqiq etib, ularning asosiy maqsad va vazifasi Turkistonda qizil armiyani tashkil etish, «bosmachilarga» qarshi kurashishda askarlarni harbiy va ma’naviy jihatdan tayyorlashga g‘oyaviy ko‘mak berish hamda qizil armiya saflarida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borishdan iborat, degan xulosaga keladi[5].

Qizil askarlarni matbuot orqali tarbiyalash, ular orasidan jamoatchi muxbirlarni, targ‘ibotchilarni shakllantirish masalasini Turkfrontning “Krasnaya zvezda” gazetasi misolida o‘rganganimizda, muhim ma’lumotlar yuzaga chiqdi. Gazetaning “Harbiy muxbir burchagi”[6], “Siyosiy xodim burchagi”[7] kabi ruknlarda frontdan, garnizonlardan qizil askarlar xabarlar yozib turgan. Gazetaning Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonaning nodir nashrlar va qo‘llanmalar bo‘limida G-40 raqamli fondda saqlanayotgan 1922-1923-yilgi sonlari taxlamlarida Kavdiv, Karpich, Yunusov, Kolchin, Xolodov, Kotik, Belkin, Nesudimov, Yaushev, Salomko, Borisov, Vinkovich, Churilov, Markov, Borodinov kabi “voenkor”, ya’ni jamoatchi harbiy muxbirlar imzosi bilan materiallar berib borilganiga guvoh bo‘ldik. Masalan, gazetaning tilga olinayotgan davridagi sonlaridan birida jamoatchi muxbir Yunusovning imzosi bilan “Хороший каптенармус” nomli xabar bosilgan. Unda muallif Turkiston 4-polki, 3-bataloni moddiy ta’minot faoliyatiga oid masalani tilga oladi hamda bilvosita qizil askarlarni siyosiy hushyorlikka, faollikka da’vat etadi. Yoki V.Karpыch imzosi bilan berilgan “Перед конференцией” sarlavhali materialda muallif jamoatchi muxbirlarni targ‘ibot ishida faol bo‘lishga chorlaydi. Shuningdek, Razdolskiyning “Красный Восток”, I.Strunetsning “Содействуйте военкорам”, Meglitskiyning “Что же 12 полку?” kabi materiallarini kuzatganimizda bir qaraganda, “voenkor”lar xabarlari Turkfrontning joylarda olib borayotgan harbiy harakatlari, harbiy xizmatchilarning faoliyati haqida ma’lumot berayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Ammo siyosiy ongni o‘stirish, “bosmachilikka” qarshi kurash misolida mafku-

raviy targ'ibot ta'sirini kuchaytirish, alaloqibat hukumat siyosatiga ishonchni mustahkamlashga qaratilgan sodda, oddiy da'vatlar negizida manipulyativlik yashiringanini ko'rish mumkin. Masalan, "Gazetani o'qiysan va unda Turkfrontning barcha harbiy qismlari, hatto Afg'oniston chegarasi, sharqiy Buxorodan xabarlarni ko'rasan. Bizning 12-polk-chi? Ishni boshlash kerak, o'rtoq voenkorlar", deb yozadi Meglitskiy. Bunday da'vat va chaqiriqqa to'la xabarlar, maqolalarni gazetadan ko'plab topish mumkin. Ularda asosan filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.Toshpo'latovaning fikri bilan aytganda, manipulyasiyaning asosiy mohiyatini aks ettirgan "kosa tagida nimkosa" usulidan foydalaniladi[8].

Xulosa o'rnida aytish kerakki, sho'rolar harbiy nashrlar, harbiy muxbirlarni targ'ibot-tashviqotga faol jalb etish orqali Turkistondagi milliy ozodlik harakatiga qarshi ayovsiz kurash olib borgan hamda ongga yashirin ta'sir etishdek quyidagi manipulyativ usullarni qo'llagan:

qizil askarlar siyosiy ongini o'stirish va tanqidiy, satirik materiallar va karikaturalar orqali sho'ro dushmanlariga nafratni shakllantirish;

Turkiston geografiyasini o'rgatish, muhim ma'lumotlarni chop etish orqali hududlarda milliy ozodlik harakati kuchlariga aniq zarba berish;

Harbiy bilimlarini oshirish yordamida Turkistondagi milliy ozodlik harakatini tez fursatlarda bostirish;

– ichki va tashqi siyosatni, inqilobni keng targ'ib qilish orqali qizil askarlarda sho'rolar siyosatiga ishonchni mustahkamlash;

– partiya va hukumat belgilab bergan masalalar yordamida (masalan, dahriylik) qizil askarlar ma'rifiy bilimlarini oshirish;

– inqilob ishi haq ekanligi bilan bog'liq mafkuraviy targ'ibotni qizil askarlar orasida yanada kuchaytirish.

1. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf
2. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. М., "Эксмо", 2003. – С.20.
3. Журналистика в условиях конфликта: передовой опыт и рекомендации: Пособие с рекомендациями для работников СМИ. – Киев.: «Компания ВАИТЭ», 2016. – 118 с.
4. Журналистика в условиях конфликта: передовой опыт и рекомендации: Пособие с рекомендациями для работников СМИ. – Киев.: «Компания ВАИТЭ», 2016. – 118 с.
5. Каменев С., Сборник указаний по борьбе басмачеством, Т.: издание **Революционного Военного Совета** Туркестанского фронта, 1924. –С.7-8.
6. амаев Н. "Ўзбекистонда Совет ҳокимиятига қарши қуролли ҳаракат ва ҳарбий матбуот", "Ўтмишга назар журнали", 2019 йил 10-сон.
7. "Красная звезда" газетаси, 1923 йил, 21 ноябрь, 257 (644) сон
8. "Красная звезда" газетаси, 1922 йил, 19 сентябрь, 58 (190) сон, 3-бет
9. Мўминов Ф, Тошпўлатова Н., Журналистика социологияси ва психологияси, Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. –Б.274

Saxiba SAIDMURADOVA,
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

"GO'RO'G'LI" ROMANIDA BADIIY USLUB VA PSIXOLOGIK TASVIRLAR

Har bir xalqning benazir zakovati, badiiy saviyasi, ulug' g'oyalar, falsafiy – ijtimoiy qarashlar majmui og'zaki ijod namunalarida, ayniqsa, yirik eposlarda mukammal ravishda namoyon bo'ladi. Turkiy xalqlarning boy tarixi, qahramonlik va ezgulik dahosi "Go'ro'g'li", "Alpomish" kabi yirik dostonlarda, ishq – muhabbat, vafo – sadoqat borasidagi orzu – umidlari "Tohir - Zuhra", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Sayyodhon va Hamro", "Najot o'g'lon", "Vomiq va Uzro", "Gul va Navro'z" kabi dostonlarida o'z ifoda – talqinlarini topgan.

Nafaqat turkiy xalqlar folklorida, balki, jahon xalqlari og'zaki ijodida ham, hatto, "Iliada", "Odisseya" kabi yunonlarning yirik dostonlari hajmidan ham yirik — "Go'ro'g'li" turkum dostoni o'z navbatida yozma adabiyotga ham beqiyos ta'lim etib kelayotgan badiiy polotno sifatida e'tiborlidir. Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston kabi asosan turkey o'g'uzlar yurti bo'lgan davlatlarda Go'ro'g'li dostonlari asosida nechta roman, qissa,

drama namunalari yaratilgan. Masalan, Turkmaniston xalq yozuvchisi Nuri Bayram "Go'ro'g'lining tug'ilishi" nomli roman yozgan. Xalq o'rtasida o'g'il farzandlariga Go'ro'g'li uning o'g'li Avaz va yana boshqa personajlari nomini qo'yish milliy odatlardan biri sanaladi.

Yozuvch Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li" romani uslubiy jihatdan o'ziga xos epos, mifologik talqinning psixologik ruhiy, ijtimoiy – ma'naviy pafos bilan yo'g'rilgan asarlaridan biri sanaladi. Muallif uni "Go'ro'g'li yohud hayot suvi" deb nomlagan. Odatda Go'ro'g'li obrazi bilan bog'liq asarlarda bu ulkan xalq qahramoni sarguzashtlari, hayotiy kechinmalari, ayrim syujet yo'nalishlari keltiriladi. Nazar Eshonqul asarida esa bu uslub yetakchi emas, hatto, asosiy matnda biron joyda Go'ro'g'li nomini ham, u bilan bog'liq voqealarni ham uchratmaymiz. Roman boshlanishida "Go'ro'g'lining tug'ulishi" dostonidan Go'ro'g'lining *"Aytsam yetgaymikan, enajon, zarim, yurakda g'amim ko'p, ichida zanglarim"* degan yurak so'zlari keltiriladi, xolos.

Muallifning tanlagan badiiy uslubiga ko'ra, qisqacha so'z boshisida asar g'oyaviy – ijtimoiy maqsadi bilan bog'liq izohlardan uning maqsad-muddaosi oydinlashadi. Ma'lum bo'lishicha, roman dastlab "Lahad" deb atalgan bo'lib, u o'tgan asrning 90- yillari o'rtalarida yozib tugallangan. Muallifning qayd qilishicha, *"... undan devorlarni zah bosgan, insonning botiniy quvvatini so'rishi evaziga yashagan tuzumning badbo'y hidlari anqib turibdi"*[1]

Ma'lum bo'ladiki, asar Nazar Eshonqul ijodi uchun muhim mavzu sho'ro tuzumi mustabid siyosatining kirdikorlari haqida. Yozuvchi buni quyidagi so'zlarida, balki, asar sharhi – izohi sifatida qayd qilgan fikrdlarida yanada batafsil bayon qilgan: *"O'zining tirikligini mavjudligini isbotlab beralmagan, insonning tirikligi va mavjudligini tan olmagan, insonning sha'n vqa g'ururini xo'rlash va haqoratlash evaziga yashagan mustabid tuzumdan chiqariladigan kichik bir saboq...."* [2]

Nazar Eshonqul qalban ruhan folklorga, qadimiy eposlarga, jumladan, "Go'ro'g'li" dostonlariga ehtiromi baland yozuvchi ekanligi ma'lum. Adabiy uslub masalasi ancha nozik va murakkab, shu bilan birga keng ma'nodagi tushuncha. Yozuvchi ijodidagi g'oyaviy badiiy xususiyatlar birligi uning dunyoqarashini ifodalovchi poetik tafakkurining shevasi sanaladi.

Yozuvchilar ijodidagi bir xil xususiyatlarning adabiyotdagi umumlashgan ko'rinishi mazkur adabiyotdagi uslublar yaqinligini, birligini va rang – barangligini keltirib chiqaradi. Shu bois ham yozuvchi uslubini xarakterlash, adabiyotdagi uslublar yo'nalishlarini aniqlashda hamisha bosh masala bu, mahorat masalasi bo'lganligidan adabiyotshunoslikning diqqat-e'tiborini tortib keladi. Ziyrak kitobxon biron asarni o'qiyotib, uning qaysi ijodkor qalamiga mansubligini payqaydi. Masalan, lirik ko'lam, mukammal hayotiy tasvirlar, o'ziga xos sharqona nazokat ustuvor bo'lgan asarlarni o'qiyotgan kitobxon bu Abdulla Qodiriy ijod namunasi ekanligini payqaydi. Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, G'affor Xotam, Xayriddin Sulton, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Shoyim Bo'taev kabi istiqlol davri nasrining navqiron ijodkorlarini mumtoz adabiyot, ilg'or Yevropa adabiyoti, modern yo'nalishi, psixologik talqin, sobiq mustabid tuzum kirdikorlarini fosh qilish, mifologik ixtiloflari jihatlari — umumiy uslubiy jihatdan mushtarak qilib turadi. Nazar Eshonqul asarlarida mif va psixologik talqin uslubi ancha yetakchilik qiladi. *"Mif va asotirlar shunchaki cho'pchaklar emas, qadim ajdodlarning avlodlarga qoldirgan hikmatlari, da'vatlari va chorlovlari ekanini bugun hech kim inkor qilmaydi. Faqat bu hikmatlarni hamma ham uqa olavermaydi. Anglash, o'qish, tushunish o'zining ishora, ramz, timsollar orqasiga yashiradi. Eng qimmatlisi bu "kosa tagidagi nim kaso" faqat badiiy ijodning mahsuli bo'lmay, balki insoniyat tafakkur tarzining, dunyoni bilish, his qilish hamda qabul qilishning, umuman ajdodlarimizning olamini anglash tarzining timsollari, tashbehlaridir"*[3]

Nazar Eshonqul o'z asarlarida, jumladan, "Go'ro'g'li" romanida bevosita murojaat qiladi, folklor asarlariga munosabatidan uning ana shunday mif va asotirlarni, umuman, mifologizmning nazariy va amaliy jihatdan ham ancha teran bilishi ma'lum bo'ladi. To'g'ri, adib "Go'ro'g'li" romanida aynan qaysi mif, asotir, yoki epos namunasidan misol olganligini uchratmaymiz. Ammo, uning san'atkorligi shundaki, eposlarda, anig'i "Go'ro'g'li " dostonida ifodalangan erk, hurlik, erkin inson orzusi, zulm, bosqin, xiyonat, inson qadrini toptash kabi zo'ravon g'oyalardan, badiiy namunalardan mohiyatan foydalanganligi, ularni bugungi davr, anig'i, sho'ro mustabid tuzumiga mazmunan yangi badiiy shaklda tadbiq qilinganligini anglaymiz. Nazar Eshonqul fikrlarini davom ettirib yozadi: *"Xalq og'zaki ijodidagi ramzlar va timsollarni sharhlash faqat badiiy adabiyotga emas, san'atning barcha turlariga, shuningdek, falsafaga ham yangi quvvat, yangi kuch beradi, tafakkurning yangi qirralarini ochilishiga olib keladi, ilmiy – ijtimoiy fikrlarga ijodiy ruh bag'ishlaydi. Bu tarixda ham, bugungi kunda ham o'z isbotini topgan haqiqat, Xususan G'arb adabiyoti va falsafasining XIX – XX asrlarda yangi bosqichga ko'tarilishini aynan Gomer asarlari va Yevropa xalqlarining og'zaki ijodidagi ramz va timsollarni topish, uni yangicha sharhlash, ulardan yangi tafakkur tarzini, yangi badiiy shakllarini izlash orqali sodir bo'lganini bugun hech qaysi mutafakkir inkor etolmaydi"*[4]

Demak, yozuvchi folklor va bugungi adabiy munosabatlarni masalasiga dunyo adabiyotidagi shu jarayonlarni sharhlash va o'rganish asosida munosabatda bo'ladi. "Go'ro'g'li" romanini yaratar ekan, yozuvchi qadimgi yapon folkloridan tortib, bugungi ilg'or Yevropa adabiyoti rivojigacha bo'lgan davrdagi mifologiya va yozma adabiyot munosabatlarigacha bo'lgan tajribalariga suyanishini tushunish mumkin bo'ladi.

"N. endi o'zini noqulay seza boshladi. To'g'ri, rahbar hamisha ham hammani qabul qilavermaydi, ayniqsa, N.ga o'xshagan lavozimdagilarni. Ammo qabul qilishni ham favqulotda hodisa, deb bo'lmaydi. Gapning sirasini aytganda, ostonada o'zini ko'rish uchun talashib turgani arziydigan yangilikmas. Bu borib turgan maynavozchilikning o'zi. Bundan tashqari, ular N.ga fikrini bir joyga to'plab olishga, demak, rahbarning savollariga aniq javob berishga halaqit berishyapti. Lekin bu gaplarni aytib, ular bilan bahslashib o'tirishga

vaqti yo'q edi. Mabodo, ularga shu yoqarkan, bilganlarini qilishsin.

N.xonasiga qaytib kelib, o'zini yana oynaga soldi. Nimadir yetishmayotganday edi. — Ichingizda duo o'qib oling, — dedi uning biroz besaranjom bo'layotganligini sezgan xonadoshi. Uning ovozidan hasad qilayotgani bilinib turardi, lekin ayni paytda N.ga o'zini yaqin olib, eski qadrdonlardek tutayotgan edi.

N. bunday paytda o'zini qanday tutish kerakligini bilmasdi. Shuning uchun bosh irg'ab qo'ya qoldi. Hamkasbi hasadi kelayotganini bildirmaslikka tirishar, shuning uchun N.ning bo'yingbog'larini to'g'irlab, yelkasidagi changlarni qoqib qo'yar, rahbarning oldiga kirganda o'zini qanday tutishi kerakligi haqida yo'l – yo'riq ko'rsatardi.

— Rahbarning oldiga kirganda, o'zingizni juda sipo tuting, yana har narsalarni, ayniqsa, ish bilan bog'liq muammolarni gapirmang. Aksincha, hamma ish rejadagiday va hatto juda yaxshi ketayotganini, ishlash uchun barcha sharoitlar yaratilganini ayting. Rahbar qo'l ostidagilar o'zini maqtashini yoqtiradi. Keyin har qanday savolga qisqa va lo'nda javob bering. Har bir gapingizda rahbardan butun idora minnatdor ekanini ayting..."[5]

"Go'ro'g'li" romani dovruqli idoraning odmi bir xodimi N.ning katta rahbar idora boshlig'ining chorloviga binoan uning qabuliga kirish arafasidagi ruhiy holatini psixologik tasviri bilan boshlanadi. N. ruhiyatida hukmron dovdirash, ikkilanish, albatta, boshliq huzuriga kirganda o'zini tutish andishasi bilan bog'liq holatlari psixologik nutqiy xarakteristika – tavsifi orqali talqin qilingan. Asar boshidanoq bu kabi tig'iz va iztirobli ruhiy olam talqini bo'y ko'rsatishidan ma'lum bo'ladiki, mazkur asar "psixologik roman" tipining namunasi sanaladi.

N.ning bunchalik dovdirashi, o'zi mansub idora rahbarining qabuliga kirish shunchalik vahmkor ekanligi holatida – mustabid siyosatga xos yovuzona iddao o'z shamolini ko'rsatadi. N. qabulxonada garang – lol, dovdiragan holda turarkan kotibaga yuzlandi.

"— Meni yarim soat oldin qabul qilishlari kerak edi, — dedi u biroz zardali ovozda bu yer pardozxona emas, deganday. Kotiba avvaliga unga hayron bo'lib qardi, keyin shoshib qoldi–da, pardoz anjomlarini yig'ishtirib:

— Qachon? Kim aytdi sizga? — deb so'radi.

N. o'ziga kim qo'ng'iroq qilganini va rahbar kutayotganini yana bir marta qaytardi. U iloji boricha kotibaga biron gap aytib yuborib, munosabati sovushidan xavotirlanib, bosiq ohangda, dona–dona qilib takrorladi. Kotibaning rangi endi batamom oqarib ketdi. U shoshgancha kimgadir qo'ng'iroq qildi. Keyin oldidagi ro'yxatga qaradi. U ikki – uch marta ro'yxatni o'qib bo'lgach, o'ziga keldi.

— Sizni chaqirishgani haqida menda hech qanday ma'lumot yo'q, — dedi u. Boyagi titrab ketgan ovozdan asar ham qolmagan, aksincha, u ancha zarda bilan gapirdi.

Siz yaxshilab eslang, qayta ko'ring, menga yarim soat oldin rahbar bilan uchrashishim shartligi aytilgan edi, — dedi biroz pisanda bilan "men bekorga bu yerga keldimmi" degan ohangda.

Kotiba yana bir marta ro'yxatni o'qib chiqdi. N. ham ko'z qirini tashlab turdi – kim biladi, bu ko'zi o'ynab turadigan kotiba hali o'qishni bilarmikan? Lekin kotibaning qo'lidagi ro'yxatda uning nomi yo'q edi. Bunga o'zi ham amin bo'ldi. Bu yerda chetdan keladigan uchta odamning ismi – sharifi turar, idoraning o'zidan hech kimning nomi qayd etilmagan edi."[6]

Oddiy kotibaning bu qadar zardali, zaharomuz muomalasidan qabulga kelgan bandalarning arziga bafurja quloq solish o'rniga tirnoq bo'yashini afzal biladigan satangligidan bu idoraning asosiy rahbari yoki rahbarchalari nechog'li dimog'dor va bepisand ekanligi ayonlashadi. "Go'ro'g'li" romani ko'plab maqola, risola va risolalarning tekshirish ob'ekti bo'lib kelmoqda. Mana, izlanuvchan adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Islomjon Yoqubov yozadi:

"Bosh qahramon N. o'z lavozimiga ko'ra shiftgacha tahlangan hujjatlarni titib turuvchi, u qadar jiddiy e'tiborda bo'lmagan oddiy bir xodim. Odatda, qo'l ostidagilar bilan deyarli gaplashmaydigan "Rahbar"ning uni tasodifiy yo'qlovidan xodimlar tipirchilab qolishadi. Kimdir havas qilsa, ikkinchi biri hasad o'tida o'rtanadi. Zotan, "Katta" hamisha ham hammani, ayniqsa, past lavozimdagilarni qabul qilavermaydi. Hech bir risolada yozilmagan qoidaga ko'ra: "Rahbar" oldida xodimlar ish bilan bog'liq maummolardan so'z ochmasligi, imkon qadar o'zlarini sipo tutishi, maqtov so'zlar quyunini yog'dirishi lozim. Jumladan, unga xodimlarning barcha ishlari rejadagiday va hatto yaxshi ketayotgani, yaratilgan "sharoitlar"dan g'oyatda mamnun ekani xususida so'zlashlari, mo'ljalga teguvchi aniq javoblar aytishga yuragi betlamasligi juda – juda xush yoqadi".

Inson erkinligiga dahl qilingan hollarda esa, hafvsizlik, huquqsizlik bo'y ko'rsatadi. Illo, inson his-tuyg'ulari nohaq tahqirlansa, yetkazilgan ma'navimy – ruhiy zarar qoplanmaganidek, jabr-zulm ham jazolanmaydi. Chunki, mas'uliyatsiz manfaatparast ijrochi kimsalar vijdon, iymon, insof, burch kabi muqaddas tushunchalarni ayovsiz toptashadi. *Nazar Eshonqul rutubatni avzoyi buzuq, qor uchqunlab turgan ob–havo, to'zon ostida qolgan shahar hayoti – kutilmagan tabiiy aynishdan so'zlashi bejiz emas. (17 b.) Chunki, romanda tanazzul yoqasida turgan sho'ro jamiyati zo'ravonligi, inson qadr-qimmatiga nisbatan bepisandligi fosh etildi."*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshonqul N. Go'ro'g'li yoxud hayot suvi. "Sharq yulduzi", 2012 yil 2- son, 14- bet.
2. Eshonqul N. "Go'ro'g'li"… 14- bet.
3. Eshonqul N. Epos: Hayolot kengligi "Kitob dunyosi", 2013-yil 28 –avgust.
4. Eshonqul N. Epos: Hayolot kengligi "Kitob dunyosi", 2013-yil 28 –avgust.
5. Eshonqul N. "Go'ro'g'li"... 16- bet.
6. Eshonqul N. "Go'ro'g'li"... 17- bet.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Yoqutxon ERKABOEVA
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy Kommunikatsiyalar universiteti
Media nazariyasi va amaliyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

GONZO JURNALISTIKASI VA UNING JANR IMKONIYATLARI

Jurnalistikadagi har bir janr o'ziga xos xususiyati va xarakteri bilan bir – biridan farq qiladi. Jurnalist materialda mavjud vaziyat yuzasidan auditoriyada ijtimoiy munosabat hosil qilish, u yoki bu xulosaga kelishga yordam berish uchun bu o'ziga xos jihatlardan samarali foydalanadi. Tabiiyki, gonzo uslubi ham bundan mustasno emas.

Gonzo-jurnalistika reportaj, esse, yo'l ocherki janrlarining o'ziga xos turi. U ifoda usuliga ko'ra reportaj janriga yaqin tursa-da, ammo uni aynan takrorlamaydi. Reportaj gonzo yo'nalishida eng keng qo'llaniladigan janr hisoblanadi. Chunki gonzoda ham reportajdagi kabi voqyea-xodisani o'sha joydan bevosita guvohi bo'lib yoritish, muallif tomonidan jarayonni hikoya qilish, o'quvchida qisqa axborotga nisbatan to'liqroq tasavvur hosil qilish kabi sifatlar mavjud. Mana shu o'xshash jihatlarni inobatga olgan holda, reportaj va gonzoni bir-biridan ajratib turadigan nozik chegaralarni farqlash zarurati paydo bo'ladi. Shuning uchun dastlab informatsion janr hisoblangan reportajning mohiyati, uning janr xususiyatlariga to'xtalib o'tsak.

Reportaj lotincha "reportare" – "yetkazib berish" degan ma'noni bildiradi. "Reportaj axborot berishning bir turi. Bunda jurnalist voqyea – hodisaning bevosita guvohi bo'lib, o'sha joy muhiti, manzarasi, odamlarning kayfiyati voqyea-hodisalar jarayonini (so'z yoki videotasvir vositasida) shunday tasvirlaydiki, reportajni o'qigan, eshitgan, ko'rgan har bir kishi shu paytgacha berilgan yangiliklar va qisqa axborotlarga nisbatan to'liqroq tasavvurga ega bo'ladi**".**[1.69] Janrning alohida o'ziga xosligi uning sintetik tabiatga egaligi, ya'ni informatsion va tahliliy janrlar elementlari qorishuvining mavjudligidir(hikoya qilish, tahlil qilish, qochirimlar keltirish, tasvirlash, surishtirish, fikrlarni bilish, xulosa chiqarish v.h.k). Professor, filologiya fanlari doktori Kroychik L. ye. reportajda axborotni tezkor uzatish bilan birga tahlilga ham asoslanganligi sabab uni jurnalistikadagi eng samarali janrlardan biri, deb hisoblaydi. [2. 87] Voqyea aslida qanday bo'lganini tasvirlash reportaj janrining asosiy elementi sanaladi va shu sababdan haqqoniylik, aniqlik birinchi o'rinda turadi. Reportajda muxbir voqyelikka ta'sir o'tkazuvchi yoki uni harakatlantiruvchi muhim shaxs bo'lmasada, ammo u har doim o'sha jarayonni faol kuzatuvchisi va sharhlovchisi hisoblanadi. Reportajdagi materiallarda voqyealar sahnalashtirilmaydi, balki qanday bo'lsa shundayligicha yoritiladi.

Reportajning janr sifatida o'ziga xosligi quyidagi sifatlarda namoyon bo'ladi:

Voqyealar bayonini izchil yoritish – vaqt va makonda faoliyat davomiyligi bilan bog'liq tarzda hikoya qilish sur'atining o'zgarib borishi;

Ko'rgazmalilik – detallarni batafsil tasvirlash orqali sodir bo'layotgan voqyeaning obrazli tasvirini hosil qilish, jarayonga taalluqli kishilarning xatti-harakat va replikalarini aks ettirib vaziyatning to'liq tafsilotini yoritish;

Hujjatlilikka asoslanganlik – reportajda muallif ocherk yoki fel'etondagi kabi ijodiy fikrlamaydi va vaziyatni qaytadan yarata olmaydi. Qanday bo'lsa, shundayligicha ko'rsatadi. Aslida voqyea qanday sodir bo'ldi, degan savolga javob topish uchun jurnalist tadqiqotchi sifatida faoliyat olib boradi;

Muxbir voqyelikka qo'shimcha ishonch berish maqsadida emotsional bo'yoqlar bilan hikoya qilish usulidan foydalanadi;

Muxbirning jarayonni yoritishdagi faol ishtiroki – bu reportyorning nafaqat vaziyatni bevosita guvohi bo'lishini ta'minlaydi, balki auditoriyada voqyea yuzasidan mustaqil tasavvur hosil qilish va xulosa chiqarishga yordam beradi.[2.98]

Har bir informatsion janr o'zining ichki xil va turlariga bo'linadi. Gonzo-jurnalistika ham reportaj janrining alohida, o'ziga xos turi bo'lib, unda odatdagi reportajlardan farqli tarzda voqyealar muallif atrofida yuz beradi. "Gonzo qiroli" Xanter Tompson ta'biri bilan aytganda "Voqyealar reportyorni emas, reportyor voqyealarni yaratadi".

Gonzo – zamonaviy jurnalistikadagi o'ziga xos yo'nalish. Reportajning bu turida jurnalist har doim voqyealar markazida bo'ladi hamda butun matn uning his-tuyg'u, kechinma va fikr-mulohazalari asosiga quriladi. Rossiyalik bloger Azat Sattarov "Gonzo uslubidagi reportajda jurnalist voqyealarni tavsiflashda bevosita uning ishtirokchisi bo'lishi kerak", deb keltiradi. [3]

Haqiqatdan ham gonzoda jurnalist tevarak-atrofida sodir bo'lgan hodisalarni o'quvchilarga shunchaki hikoya qilib bermaydi, balki o'zi bosh qahramon sifatida voqyealar rivojida ishtirok etadi. Shuning uchun ham bu uslubda voqyelikka nisbatan faqat bitta nuqtayi nazar ilgari suriladi – jurnalistning shaxsiy qarashi. An'anaviy reportajlarda jurnalistning shaxsiy pozitsiyasi ob'ektivlikka zid kelmasligi talab etilsa, gonzoda aksincha muallifning voqyea-hodisaga bildirgan his-tuyg'u, kechinma, ochiq bahosi uslubning asosini tashkil etadi. Mana shu xususiyati sabab reportajning bu turida ob'ektivlikdan ko'ra sub'ektiv munosabat ustunlik qiladi. Gonzo

o‘quvchiga nima bo‘lgani haqida hikoya qilmaydi, balki voqyea qanday bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bir qaraganda gonzo janr xususiyatiga ko‘ra klassik reportajga o‘xshash ko‘rinadi. Ikkisida ham tasvirlash, voqyea joyidan material tayyorlash, mavjud vaziyatni yoritish bor. Ammo tadqiqotchilar Xanter Tompson ijodidan kelib chiqib, gonzo-jurnalistikaning bir nechta o‘ziga xosliklarini sanab o‘tishadi. Aynan mana shu jihatlar gonzo uslubini leksik va stilistik jihatdan reportaj janridan alohida ajratib turadi.

Ular quyidagilar:

Bir reportajda zo‘ravonlik, giyohvandlik, sport va siyosat kabi mavzularni uyg‘unlashtirish;

Mashhurlardan iqtibos keltirish, aksariyat hollarda epigraf sifatida;

Davlat arboblari, qo‘shiqchilar, sportchilar fikriga havola keltirish;

Reportajning birlamchi mavzusidan og‘ib ketish;

Sarkazm yoki bug‘uq hazillardan yumor sifatida foydalanish;

Jurnalist bayon etayotgan hodisani to‘liq nazorat qilishi;

Tildan o‘zgacha foydalanish, yangicha so‘zlar kashf qilish, tabu so‘zlarni erkin qo‘llash, voqyealarga kesatish, norozilik bilan munosabat bildirish, haddan ortiq hissiyotga berilish, bo‘yoqdor iboralarni keng qo‘llash;

Fakt va voqyelik nihoyatda sub’ektiv bo‘ladi, matnning g‘oyaviy qurilishida real voqyealar emas, muallifning shaxsiy munosabatiga asosiy e’tibor qaratiladi, voqyealar tafsilotida muallif markaziy pozitsiyada turib o‘zi kuzatgan vaziyatining asosiy ishtirokchisi va yagona sharhlovchisi bo‘ladi.

Rus tadqiqotchilari Yuriy Zaxarov va Vladimir Babenkolar gonzo uslubida erkin so‘zlashuv alohida o‘rin tutishini qayd etadi. Tadqiqotchilar gonzo – jurnalistlar bunday til uslubidan voqyelikni hech qanday qoliplarga solmasdan, vaziyatni qanday bo‘lsa boricha auditoriyaga yetkazish uchun qo‘llaydi, deb keltiradi. [4] Chindan ham gonzo- reportaj muallifga nihoyatda erkin va ijodiy sharh yaratish imkonini beradi. Jurnalist reportaj voqyealarini sharhlashda o‘zi muloqot qilgan, guvohi bo‘lgan kishilar bilan o‘sha jarayonda qanday dialogni amalga oshirgan bo‘lsa, uning bayonini ham hech bir qo‘shimcha yoki tahrirlarsiz ochiqchasiga yoritadi. Muallifning bunday yo‘l tutishida o‘quvchilarda o‘sha vaziyat haqida to‘liq tasavvurni shakllantirish, ularni butunlay ayni muhit, jarayonga olib kirish maqsadi ko‘zlanganligidir. Albatta, bunda reportyor voqyelikni yoritishda nutqiy tasvir vositalaridan ham unumli foydalanadi. Sub’ektiv hikoya usulini qo‘llash, matn emotsionalligi, turli uslublar qorishuvi va yumor gonzo-reportajlarda nutqiy tasvirning muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Saidov H. To‘xlieva N. “Reportyorlik mahorati” T.-2008.
2. L. ye. Kroychik «Sistema jurnalistskix janrov»
3. Sattarov A. «Tendensii gonzo-jurnalistiki v sovremennых rossiyskix SMI» // LiveJournalURL: http://azat-sattarov.livejournal.com/
3. Zaxarov Yu. «Gonzo-jurnalistika v sovremennom mire» // «Mediaskop»: elektronnoe nauchnoe izdanie. 2009. 8 fevralya. URL: http://www.mediascope.ru/node/737).

Mahbuba HOLMATOVA,
a PhD student at Namangan State University

WAYS TO IMPROVE STUDENTS’ COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ESP CLASSES

The communicative competence in English as a foreign language is being developed in our country as well as in many other countries as a foreign language nowadays. The concept of “competence” is widely defined as a set of knowledge, skills and abilities that are necessary to perform a specific job. Communicative competence is a set of skills and abilities necessary for effective communication and is formed not only because of gaining practical experience in interacting with other people, but also in the learning process. Based on the research studies, we think that communicative competence is situational, adaptable and fluent in verbal and non-verbal (verbal and non-verbal) means of social behaviour. Communicative competence allows communicating: to transmit, receive, comprehend information, perceive, understand another person, and acts as a regulator of further relationships, contacts with other people.

Many learning strategies or activities are being used in practice in order to enhance language learning. Most of these activities, which improve language learning, are usually communication-based and task-based activities. These activities play a big role in improving communicative competence of students focused on en-

abling communication skills. Besides, learning a foreign language requires professional specificity aimed at mastering the future profession. The teacher sets goals not only to master the skills of speaking in a foreign language, but also to acquire knowledge in the chosen profession. Because, communicative competence in a foreign language makes a specialist- competitive in contemporary labour market.

A teacher of a foreign language faces a number of problems in teaching students in ESP classes:

- different levels of foreign language proficiency by students;
- a certain number of hours allocated for English classes;
- lack of motivation and need for students in learning a foreign language.

All these factors influence the achievement of a high level of mastery of a foreign language by students. Based on the current research studies, the solution of these challenges is possible with a more effective use of professionally oriented texts improving language skills and properly organized independent work of students. The proposed material for students should be personally significant to their interests, correspond to the level of foreign language proficiency, have a professional orientation, develop students' motivation and creative qualities and improve students' communicative competence. In this case, a foreign language teacher is required to possess not only knowledge of a foreign language, pedagogy and teaching methods, but also to study the vocabulary, the special terminology of the received specialty.

To solve the problem, Saragih (2014) offers several ways:

- the use of materials that help to acquaint students with the chosen specialty;
- the use of situations and exercises in a foreign language where students apply the knowledge gained in their specialty;
- conducting classes with subject teachers (consulting).

A foreign language teaching should be as an inseparable part of the professional training of students focused on improving communication skills, which will allow them to communicate on professional topics in a foreign language. Professional communicative competence is defined in many research studies as a part of communicative competence, a set of knowledge, skills and abilities that allows communication in a certain language within a certain profession and provides a solution to professional tasks characteristic of this field of activity. Having these ideas in mind, we think that the teacher in a foreign language classroom should create the conditions for professional activity for students by offering the following types of activities: authentic tasks, reading special literature, writing letters, research activities (writing reports, publishing scientific articles in a foreign language).

Working with profession-oriented texts in a foreign language develops the cognitive and communicative competence of students. According to Popova (2012), reading and understanding profession-oriented texts aim the following:

- studying the language and culture;
- extracting information;
- practical mastery of the language;
- self-development.

Profession-oriented texts involve understanding and extracting information where students will work with authentic literature and specialty texts in a foreign language, and make a presentation as the result. The teacher can offer the following exercises: reading original texts from newspapers, magazines and books in the specialty; prepare reports on the topic or visual presentations on the topics of the specialty; participation in scientific and practical student conferences. While working with texts, the teacher introduces new vocabulary to students. In this case, it would be appropriate to work with a dictionary. It is an important stage in understanding the text and working with a dictionary. Searching for a translation of new words trains memory and is aimed at memorizing vocabulary. Working with texts can be assigned for self-study in the classroom and at home. The teacher selects independently texts related to the specialty.

Mastering professional vocabulary will help students communicate in a foreign language not only on everyday topics, but also on topics of their specialization. The teacher offers students an exercise to compose a dialogue. The group is divided into pairs. Students have a baggage of vocabulary on the topic of their specialization and train in the pronunciation of words in a foreign language. Students practice dialogic speech. Informal interviews arise when one student acts as an interviewer - asks questions, and the second - answers on the topic of the chosen specialty.

The use and work with professional texts in the classroom develops students' communicative competence in a foreign language. Besides, we recommend to diversify the presentation of educational materials and use interactive teaching methods such as the method of problem presentation, discussions, case studies, group work, brainstorming, critical thinking, quizzes, mini-research, games, role-playing games, the blitz survey method, the questionnaire method and etc.

References

1. Saragih, E. (2014). Designing ESP materials for nursing students based on needs analysis // International journal of Linguistics, 6 (4), 59.
2. Zoyukova V.A. The role of reading in the methodology of teaching a foreign language // Young scientist, 2016.
3. Popova I.D. Criteria for selecting texts in teaching a foreign language to students of non-linguistic specialties. 20120

Nurjahon NAZAROVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti
tayanch doktoranti

ERTAK JANRI MATNINING DISKURSIV TAHLILI

Ertak hodisasiga diskurs maqomini berish va uning boshqa turdagi nutqiy tuzilmalar qatoridagi o'rnini aniqlash birmuncha qiyin vazifadir. Bunga erishish uchun uning mavqeyini belgilovchi tarkibiy xususiyatlarni aniqlash talab etiladi.

Tilshunoslikning yangi yo'nalishi ko'rinishida diskursologiyaning shakllanishi, dastavval, uning tadqiq obyekti sifatida tanlanadigan birliklarning maqomini belgilashdan boshlanadi. Aynan shu sababli diskursning maqomi, uning til va nutq hodisalariga munosabatini o'rganish, shuningdek, ushbu birlikni lisoniy belgilar qatoriga kiritish muhim masaladir. O.I.Moskalskaya matn tushunchasining ikki xil ma'noda va ikkita hodisaga nisbatan qo'llanishini ko'rsatib o'tgan edi. Birinchidan, bir yoki bir nechta gapdan iborat har qanday nutqiy tuzilma matn sifatida qaralgan bo'lsa, ikkinchidan, roman, povest, hikoya, ilmiy maqola, publitsistik material, rasmiy hujjat kabilarga ham matn maqomi berilgan. [1: 12]

Mazkur ko'rinishlardagi nutqiy tuzilmalarni umumlashtiruvchi mezon – mazmuniy yaxlitlik va kommunikativ mohiyat. Mazmun yaxlitligi yagona gapdan iborat nutqiy tuzilmada va gaplar zanjiridan tashkil topadigan asarlarda qariyb bir darajada namoyon bo'ladi. Chunki ular muloqot muhitida o'ziga xos kommunikativ qiymatga ega bo'ladi.

Tadqiqotchilar matnning maqomi va mohiyatini anglashga turlicha yondashadilar. Biroq ulardan eng muhimi quydagilardir:

Lingvistik yondashuvda matn obyektiv mavjud hodisa sifatida qaralib, uning eng asosiy xususiyatlari qismlar bog'liqligi (kogeziya) va mazmuniy yaxlitlik (kogerentlik) ekanligi qayd etiladi.

Psixolingvistik yondashuvda matn bilish va kommunikativ faoliyatlar mahsuli hamda vositasi maqomida talqin qilinadi. [2: 162]

Fikrimizcha, ushbu yondashuvlar to'lig'icha, diskurs hodisasi tadqiqiga ham mos keladi, zero diskursda nutqiy faoliyatning dinamik xususiyatlari va lisoniy belgining semiotik mohiyati mujassamlashgan holda namoyon bo'ladi. Bundan, albatta, ertak matni ham istisno emas. Ushbu turdagi diskursning mavjudligi uning ma'lum vaziyatga ishora qilishi hamda voqeaning kommunikantlar ishtirokida kechishi orqali isbotlanadi. Hikoya qiluvchi – narratorning ta'sir o'tkazishi axborotni uzatish va qabul qilishga xos kommunikativ harakat bajarilishidan xabar beradi. Bunday harakatlar rasmiy va norasmiy shakllarga ega bo'lishi mumkin. Jumladan, hayvonlar haqidagi ertaklarda rasmiylik tagma'noli ko'rinishga ega va bu janrning tarbiyaviy xarakterga egaligi bilan izohlanadi. Masalan:

– Qorning nima uchun katta? – deb so'radi u kishi.
– Jigarim zo'r, – dedi qumursqa.
– Beling nima uchun ingichka?– deb so'raganida:
– Mehnatim zo'r! – deb javob berdi qumursqa.

"A passing goat sees the fox and asks him why he is in the well. The cunning fox responds, "there's going to be a great drought, and I'm here to make sure I have water." The gullible goat believes this and jumps into the well. The fox swiftly jumps on the goat and uses its horns to reach the top, leaving the goat in the well" (the fox and the goat).

Badiiy jihatdan qayta ishlangan ertaklarda og'zaki nutqqa oid lug'aviy birliklar bilan bir qatorda, adabiy-kitobiy lug'at birliklari ham ishlatilgan:

"...Rustam, bu qal'ada sendan zo'r, kurash mashqi va hiylada sendan epchil, go'zallikda cho'lpon yulduzini cho'rilikka ham qabul qilmaydigan bir bahodir qiz bor".

" In a far away land, there was a king and queen. They had a beautiful baby girl. She had beautiful black hair and snow white skin. So the queen called her Snow White"; *"Once upon a time, Krishnadeva Rai, who ruled over the Vijayanagar kingdom, dreamt of a beautiful palace. It was made of glittering stones and floated in the air. The palace had everything that one could ever wish for. And it could be lit up with a thousand lights or made to disappear into the darkness by merely wishing so"*.

Maishiy mavzudagi ertaklarda so'zlarning og'zaki nutqqa, shevalarga xos shakllari uchraydi:

"Yopiray, nima bo'ldi, deb tanchaga qarasam atlas ko'rpaning bir uchi tanchaga tushib sasib yotibdi. Tura solib yonib yotgan ko'rpadagi olovni o'chirdim".

Ertak vositasida kechadigan muloqotning asosiy maqsadi mo'jiza, g'aroyibotlarni estetik idrok etish orqali xayolotdagi olamning go'zalligidan bahra olish, zavqlanish bo'lsa ajab emas. Bu yo'sindagi muloqot og'zaki va yozma ko'rinishga ega bo'lishi, bevosita yoki bilvosita kechishi kuzatiladi. Murakkab lisoniy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladigan ushbu turdagi muloqot turlari ma'lum sharoit va muhitda sodir bo'la oladi. Ertaklardagi mazmun uyg'unligi ularning qaysi janrga tobeligiga bog'liq: sehrli ertaklarda badiiy-estetik qiymat ustunlik qilsa, rivoyatlarda axborot ifodasi old o'ringa chiqadi, maishiy ertaklar hazil-mutoyibaga boy.

Ma'lumki, ertak xalq ijodining an'anaviy namunasidir va insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Inson qandaydir ko'zga tashlanmaydigan kuch, xavflar qurshovida yashab, uni izohlash imkoniga ega bo'lmasdan, ochlik va o'lim kabi dahshatlardan qutulish yo'lini izlab yashab kelgan. Tabiiyki, bunday chorasizlikdan mustasno bo'lishning imkonini topish kerak bo'lgan, aks holda yashashga hojat qolmaydi. Xuddi shu izlanishlar ertaklar olamining timsol va ramzlar yaratishiga asos bo'ldi. Oqibatda, maishiy va xayoliy mazmundagi ertaklar paydo bo'lib, xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan janriga aylandi. Ertak asrlar davomida xalq bilan

birga yashab keladi, avloddan avlodga milliy qadriyat sifatida yetkaziladi. Ertak so‘z ustalarining jamoaviy ijodi mahsuli bo‘lib qolmay, individuallik xususiyatiga ham ega, chunki unda olamning mifologik idroki aks etadi.

Folklor asarlarining muhim manbasi xalqning hayoti, tarixi, ijtimoiy munosabatlari, an’ana-udumlari, estetik dunyoqarashi, yashash muhiti, atrofdagi tabiat ekanligi ma’lum. Shu jihatdan, ertak o‘ziga xos diskurs ko‘rinishiga ega. Uning lug‘aviy tarkibi o‘ziga xos bo‘lib, uslubiy tuzilishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg‘unlashuvi sezilib turadi. Ushbu turdagi diskursning tahlili olam idroki inson ongida qay yo‘sinda aks topishiga oid muammolar yechimini topishga ko‘maklashadi.

Ertak diskursi, xuddi boshqa turdagi kommunikativ tuzilmalarda bo‘lganidek, o‘z semiotik maydoniga ega va bu maydonda lisoniy va nolisoniy belgilar o‘zaro munosabatga kirishib, u yoki bu ko‘rinishdagi kommunikativ, pragmatik vazifani bajaradi. Mazkur belgilar ma’nosida ertak olamining xususiyatlari aks topadi. Bundan tashqari, ramziy tasvirlar ham olam manzarasini tasvirlovchi belgilarga aylanadi. Masalan, o‘zbek va ingliz ertaklarida *a goose that lays golden eggs, a monstrous giant with two heads, flat nosed imps with pointed ears, a ghost,* o‘zbek ertaklarida esa parilar insonlar ko‘makchisi sifatida, kabutarlar xabarchi timsoli, tulki ayyorlik, chumoli mehnatkash jonzot timsolida keladi. Bunday ramziy belgilarning ertak tinglovchilarga pragmatik ta’siri yuqori darajada bo‘lishiga gumon yo‘q. Ramz (simvol)ni “haqiqiy belgiga” tenglashtirgan Ch.Pirs uning mavjudligini faqat interpretant (tinglovchi) yordamida voqelanadigan qiymatda ko‘radi. Zotan, so‘zlar odatda subyektlar o‘rnida turadi, ularning sifatlarini ifodalaydi, chunki ular tinglovchi ongida mutanosib belgilarni uyg‘otishi kerak. [3: 48–49]

Ertaklar matnida ma’lum bir zamon va makonda qo‘llanishda bo‘lgan belgilar tizimi voqelanadi. Ushbu turdagi matnlar grammatik, lug‘aviy tuzilishi, mazmun ifodasi bilan boshqalardan farq qiladi. Bunday belgilar qatoriga so‘z, so‘z birikmalari, gap kabilar kiradi va ularning sintagmatik aloqalari asosida gapdan yuqori sathga tobe birliklar hosil bo‘ladi.

Ertaklarda bayon qilinayotgan voqealar, personajlar bajarayotgan harakatlar, asosan, to‘qima xarakterga ega bo‘lib, ularning real hayotda sodir bo‘lishini tasavvur qilish qiyin. Masalan, faqat ertaklarda “baliq o‘ndan ortiq tilda gapirishi”, “tovuq oltin tuxum berishi”, “odam quyonga aylanib qolishi”, “ko‘zguda ma’shuq sevgilining jamolini ko‘rishi” mumkin. Bu sifat, noreal hodisalarni tasvirlash imkoniyati personajlar tashqi qiyofasi tavsifida ham faollashadi. Jumladan, ingliz xalq ertaklari personajlari tizimini o‘rgangan V.S.Annatova ularning qiyofasi tasvirida reallik va noreallik qarama-qarshiligi quyidagi qatorlarga egaligini qayd etadi:

a) voqea umumiy ko‘rinishga egaligi va ayrim noreal xususiyatlarning mavjud emasligi;

b) voqeiy umumiy ko‘rinish – ayrim noreal belgilarning mavjudligi;

d) xayoliy (fantastik) umumiy ko‘rinish – alohida noreal belgilarning mavjudligi;

e) xayoliy umumiy ko‘rinish – alohida xayoliy belgilarning mavjud emasligi. [4: 12]

Voqealar sodir bo‘lishining matnlarda ifoda topish holatlarini kuzatgan tadqiqotchilar reallik (voqelik) ning uch ko‘rinishga egaligini qayd etadilar. Ajratilgan obyektiv, subyektiv va lisoniy realliklarning har biri o‘z obyektiga ega. Obyektiv reallikni voqelikda mavjud predmet-hodisalar tashkil qilsa, qolgan holatlarda referent taffakurda xayolan tasavvur qilinayotgan voqelikdir. Xuddi shu referent lisoniy belgida aks topadi. Bu esa, o‘z navbatida, haqiqatda mavjud bo‘lmagan ertak personajlarini (dev, yalmog‘iz kampir, suv parisi...) nomlashga imkon beradi. Bu xildagi referentlar insonning tafakkur faoliyati zamirida, umumlashtirish va mavhumlashtirish amallari vositasida shakllanadi. [5: 78]

Xullas, M.Jo‘rayeva qayd etganidek, ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy janri sifatida “rang-barangligi, yaratilishi jihatidan qadimiyligi, g‘oyaviy-badiiy yuksakligi, dunyo xalqlari adabiy merosiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiluvchi go‘zal asarlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Qadimiy ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bu bebaho og‘zaki badiiy meros ... bebaho va ardoqli bo‘lib, ularning mazmuni negizida ezgulik va yovuzlik, soddalik va ayyorlik, muhabbat va nafrat, to‘g‘rilik va egrilik, boylik va kambag‘allik kabi barcha mintaqa hayotiga xos bo‘lgan umuminsoniy g‘oyalar yotadi”. [6: 54]

Ertaklarning yuqorida bayon qilingan xususiyatlari ushbu turdagi diskursning ijtimoiy-madaniy mohiyatini belgilashi bilan bir qatorda, uning kognitiv tabiatidan darak beradi. Zero, ertak inson ongi rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning bilim ko‘lami kengayishiga hissa qo‘shadi. Ertakni tinglab voyaga yetgan bolaning intellektual qobiliyati tez suratlarda rivojlanishi haqiqatdir. Eng muhimi, ertaklar matniga tayangan holda milliy dunyoqarash, milliy tafakkur taraqqiyoti haqida ilmiy xulosalar chiqarish mumkin.

Demak, ertak diskursini lisoniy-tafakkur jarayon sifatida va ijtimoiy-madaniy voqelik namunasi maqomida tasavvur qilish lozim. Uning matnida olam lisoniy konseptual manzarasining voqelanishi bilan bog‘liq holatlar tafsilotlarini yoritish orqali ma’lum bir lisoniy madaniyatga xos milliy konseptosferaning tarkibini aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва: Наука, 1981. – С. 12.

Баранов А.Г. Текст в функционально-прагматической парадигме. – Краснодар: Изд-во КГУ, 1988. – С. 162.

Сухачев Н.Л. О семиотике Ч.С.Пирса. – Санкт-Петербург: Наука, 2003. – С. 48–49.

Аннатова В.С. Атрибутика персонажей Британской народной волшебной сказки (Семасиологические исследования). Авторефер. дисс. канд. филол. наук. – Одесса, 1990. – С. 12.

Ковалевский Р.Л. Что же является предметом означивания? // Серия 2. Филология. – Волгоград, 1998. – С. 74–78.

Jurayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2016. – 54-bet.

Ravshan NIYAZOV,
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti Ingliz tili kafedrasi v.b. dotsenti;
Mo'mina UMEDOVA,
Buxoro davlat universiteti magistratura talabasi

O'ZBEK DETEKTIVINING VUJUDGA KELISHIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING GENETIK MANBA BO'LIB XIZMAT QILISHI VA YOZMA ADABIYOTDAGI ILK DETEKTIV UNSURLAR

Adabiyotda nasriy janrning murakkab bir turi hisoblanmish detektiv janr sirli jinoiy ishni fosh etish tafsilotlarini o'zida aks ettiradi. Ushbu janrda yozilgan asarlarning boshqa janr namunalaridan farqi shundaki, unda nafaqat asar qahramoni yoxud muallif, balki muammolar ijobiy yechim topib, jinoyat haqiqiy jazoga mahkum bo'lishini intizorlik bilan kutayotgan kitobxon ham o'zini izquvar o'rnida tasavvur qiladi. Kitobxonni bu darajada qiziqtira olish, uning uzluksiz diqqatini jalb qilish esa yozuvchidan ulkan mahorat talab qiladi. Jinoyatni fosh etish, jinoyatchilarni topish va ularning aybini isbotlash har doim ham oson bo'lmagan, buning uchun yozuvchiga analitik fikrlash qobiliyati, zukkolik, shuningdek, vaqt kerak bo'ladi.

Adabiyot deb atalmish muqaddas dargohga qadam qo'ygan har bir ijodkor bu sirli olamda o'zining anglab yetganlarini badiiy ifoda etishga harakat qiladi. Biz fikr yuritayotgan detektiv janrda ijod qilish shunchaki kitobxon nigohida oldi-qochdi gaplar, harakatlar bilan so'z o'yini qilish emas, balki chuqur ruhiy-falsafiy g'oyalarni targ'ib qilish demakdir.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Omon Muxtorning adabiyotshunos va ijodkorlarning "Bozor adabiyoti yoxud badiiy so'z mas'uliyati" davra suhbatida bildirgan ushbu fikrlari gapimizning isboti, desak adashmagan bo'lamiz: "Sarguzasht, detektiv tushunchasi bilan "yengil asarlar" degan bahoni qo'yish mutlaqo o'rinsiz. O'zbek adabiyotining mashhur yozuvchilaridan X.To'xtaboyevning qator asarlari, Tohir Malikning "Shaytanat" yoki Said Ravshanning "Qironcha" asarlarini qiziqib o'qiysan. "Ularning umri qisqa, tez unutilib ketadi" deyolmaysan. Ayrimlari o'n yil, yigirma yil, ayrimlari yarim asrdan buyon yashayapti. O'quvchiga bahramandlikdan tashqari, ma'naviy-ruhiy oziq ham beryapti".

O'zbek adabiyotida detektiv janr kecha yo bugun to'satdan paydo bo'lib qolgani yo'q. Ushbu janrning ilk uchqunlari milliy adabiyotimizda, xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan bo'lib, asrlar davomida shakllanib sayqal topib bormoqda. Omon Muxtor "detektiv asarning ilk unsurlari xalq og'zaki ijodida" ko'rinishini ta'kidlab, "keyingi bosqichda mashhur o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy folklordagi detektiv unsurlarni yozma adabiyotga olib kirganligini va buyuk "O'tkan kunlar" asarini yaratgan"ligini e'tirof etgan.

Milliy folklorshunoslik namunalari nafaqat detektiv janrning, umuman olganda jamiki yozma adabiyotning dunyoga kelishi, shu bilan birga taraqqiy etishi uchun genetik asos bo'lib xizmat qiladi. Dunyoga mashhur detektiv asarlar ijodkori, taniqli ingliz adibasi Doroti Seyers detektiv nasr ildizlarini dunyo xalqlari og'zaki ijodidan izlash maqsadga muvofiqligini, sharq folklori detektiv janr uchun genetik manba vazifasini o'taganligini e'tirof etgani butun adabiyot ahli tomonidan tan olingan rad etib bo'lmas haqiqatdir. [2] Zero, har qanday badiiy asar yaratishdagi ilk urinishlar xalq og'zaki ijodiga bevosita murojaat etgan holda dunyoga kelgan. Har bir yozuvchi o'z ijod namunalarida folklorga xos obrazlar, sujetlar, tasviriy vositalar, motivlardan qisman bo'lsa-da ijodiy foydalanishi hech kimga sir emas.

Adabiy davrlar tarixida xalq og'zaki ijodining beminnat xazinasidan bahramand bo'lmagan ijod ahlini tasavvur qilish amri mahol. Biz genetik asoslarini o'rganayotgan, tahlil obyektimiz hisoblangan detektiv asarlar ijodkorlari ham bundan mustasno emas. Buyuk rus yozuvchisi M.Gorkiy ta'kidlaganidek, "folklor so'z san'atining ibtidosidir".

Sharq xalqlari og'zaki merosida, jumladan, qadimgi Xitoy va Arab xalqlari ijod mahsuli "Qilni qirq yorib" qissasi, "Ming bir kecha", "Sindbodnoma" yoki "Ayollar makri" kitobi, o'zbek folklori yorqin namunasi bo'lmish "Uch og'a-ini botirlar" ertagi kabilar o'zida sof detektivlik belgilarini mujassamlashtirgan, boshdan oxir jinoyat va uni fosh etish muammosiga bag'ishlangan o'lmas asarlar ekanligi barchamizga ma'lum.

Keling, o'zbek milliy detektivining genetik asosi hisoblangan xalq o'gzaki ijodining hamda ba'zi yozma adabiy asarlarimizning aynan qaysi o'rinlarida detektivlik unsurlari yaqqol ko'zga tashlanishini birma-bir tahlil qilib chiqamiz.

Xalq og'zaki ijodida detektiv adabiyotning qanday ko'rinishlari uchraganini o'zbek xalqining mashhur "Alpomish" deb atalmish dostoni misolida o'rganamiz. Alpomish dostonining bosh qahramoni Hakimbek Qalmoq elining shohi tomonidan zindonband etiladi. Biroq o'zining botirligi, aql-u zakovati bilan zindondan qutilib chiqishga muvaffaq bo'lgach, otasi Boybo'rining yilqichisi Qultoy bilan ko'rishib qoladi. Qultoydan yurtidagi vaziyatni so'raydi. Qultoy Boybo'rining Bodom cho'ridan bo'lgan o'g'li Ultontoz Alpomishning xotini Barchinoyga uylanmoqchi ekanini, ularning to'yi bo'layotganini aytadi. Alpomish dushman Ultontoz oldiga yilqichi Qultoy qiyofasida borishini, Qultoy esa Alpomish qiyofasida qaytishini reja qiladi. Alpomish Qultoy qiyofasida borib, Qultoyning gaplari haqiqatmi-yo'qmi tekshirmoqchi bo'ladi. Ular ikkalasi kelishib olib, bir-birlari kiyimlarida hech kimning xayoliga kelmagan qiyofalarda to'yga borishadi. [3]

Bosh qahramon Alpomish (Hakimbek)ning ushbu oqilona rejasi detektiv asarlarning asosiy timsoli hisoblangan izquvarlar rejasini esga soladi. Izquvarlar maqsadi amalga oshmaguncha dushman ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qilganidek, Hakimbek ham o'zining aslida kimligini maxfiy tutadi.

Detektiv asarlarning asosiy mazmuni haqiqatni qidirish va adolat o'rnatish hisoblanadi. Alpomish ham xuddi shu yo'lni tanlaydi. Rejasini amalga oshirish maqsadida birovga o'zini tanitmasdan, yashirin tarzda harakat qiladi. Bundan kelib chiqadiki, o'zbek qadim folklorida ham detektiv janr elementlari mavjud bo'lgan. Ular o'zbek milliy detektivining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Xalq og'zaki ijoding har bir namunasida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash asosiy g'oya sifatida ko'zga tashlanadi. Detektiv janrda jinoyat va unga beriladigan jazo qanchalik muhim bo'lsa, folklor asarlarida ham jinoyatni fosh etish, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi bosh mavzu sifatida yetakchi o'rinni egallaydi.

Keyingi bosqichlarda o'zida detektivlik elementlarini mujassamlashtirgan bir qancha yozma adabiyotlar ham yaratildi. Lekin aynan XX asrda vujudga kelib, dunyo adabiyoti ixlosmandlarini lol qoldirgan mashhur o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani xalq og'zaki ijodidagi detektiv unsurlarni yozma adabiyotga olib kirgan asar hisoblanadi. [4] Asar bosh qahramoni Otabekning raqibi Homidning jinoyatlarini fosh etish uchun nihoyatda puxtalik va aniqlik bilan harakat qilishi jahon detektiv adabiyotidagi izquvarlar obrazini gavdalantiradi.

"Detektiv janr oldidagi mas'uliyatni chuqurroq his qilgan", deb e'tirof etilgan O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekovning XX asr 70-yillariga kelib detektiv ruhda yozilgan asarlari janr taraqqiyotiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi.

Taniqli o'zbek yozuvchisi, detektiv janr namoyondalaridan biri Tohir Malik aytganindek: "O'lmas Umarbekovni zamonaviy o'zbek detektiv adabiyotining asoschilaridan biri deb atash o'rinlidir. O'lmas akaning Qo'qon teatri sahnasida qo'yilgan birinchi sahna asarlari – "Sud", "Yoz yomg'iri" qissalari zamonaviy detektiv tarzida yozilgan dastlabki asarlardan biri edi". [5]

O'lmas Umarbekov o'zining "Fotima va Zuhra" romani orqali jahon adabiyotiga "o'zbek detektiv izquvar ayoli" obrazini olib kirdi. Detektiv asarlarning yetakchi xususiyati hisoblangan izquvarlik erkaklarga xos obraz bo'lsa-da, u o'z asari qahramon ayoli – Zuhra orqali mashhur militsiya ofitserlari yecholmayotgan muammolarni yechib, jinoyatlarni fosh etdi. Shu tariqa u milliy o'zbek detektiv adabiyotiga "izquvar ayol" obrazini tanishtirdi.

Bundan tashqari, Tohir Malikning mashhur "Shaytanat" asarida detektiv janr unsurlarini yanada yaqqolroq ko'rishimiz mumkin. [6] Ushbu asarda yozuvchi jinoyat olamidagi barcha qabihliklarni hamda ularning yuzaga chiqish sabablarini va jinoyatlarni fosh etishdagi mashaqqatlarni kitobxon e'tiboriga havola etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'zbek milliy abadiyotida detektiv janr unsurlari xalq og'zaki ijodi namularidan tortib to XX asrning badiiy adabiyotida ham ko'zga tashlanadi. O'tgan asr ijtimoiy-siyosiy tuzumi davrida milliy adabiyotimizga qaratilgan bir qator qarshiliklarga qaramay yaratilgan badiiy asarlar hozirgi o'zbek detektiv janri taraqqiyoti uchun katta hissa bo'lib qo'shildi. Yuqorida tahlil qilingan asarlar kabi o'zbek yozuvchilari ham bu mas'uliyatli janrda o'z ijod namunalarini yarata olishini isbotlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati " gazetasi. 2007-yil, 2-son.
2. Sulaymonov Sh. O'zbek detektiv nasri: genezisi va tabiati. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy unvonini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Buxoro, 2002. – 13-bet.
3. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Mahmud Zarifov. Alpomish. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
4. Rahimov Z., Talaboyeva M. Milliy detektivning shakllanish omillari. – Toshkent. 2014.
5. Umarbekov O'. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2002.
6. Xoliqov B. Detektiv romanlarda voqelikning badiiy talqinini tizimli modellashtirish (Mario Pyuzoning "Cho'qintirgan ota" ("The Godfather") va Tohir Malikning "Shaytanat" asarlari misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2018.

Safiya QALANDAROVA,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi
Tillar kafedrasi dotsenti, PhD

CHET TILDA KASBIY ISHBILARMONLIK MULOQOTI SHAKLLANISHINI TADQIQ QILISH METODOLOGIYASI

Chet tilda munosabatlar madaniyatini shakllantirish sharoitida kommunikatsiya jarayoni makonga aylanib, unda talabaning rivojlanishi amalga oshadi, o'quv va kasbiy faoliyatilari shakllanadi. Muloqotga layoqat kasbiy tayyorgarlikning muhim mezoniga, ichki dialog esa o'zini o'zi tadqiq, tahlil qilish va o'ziga baho berishning vositasiga aylanadi. Kommunikativ yondashuv shaxsiy faoliyatga yondashuv bilan birgalikda insonparvarlikka asoslangan pedagogikaning mohiyatini tashkil qiladi, shaxs rivojlanishiga doir munosabatlarni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv pedagogik jarayondagi har bir ishtirokchining shaxsiy o'ziga xosliklarini inobatga olishni taqozo etadi. Kommunikativ yondashuvni amalga oshirishning shartlari quyidagicha: hamkorning subyektiv xislatlarini ifodalashda tabiiylik va spontanlik; o'zgalarga va o'ziga ijobiy munosabatda bo'lish; o'zgalar haqida qayg'urish, uni o'ziga teng huquqli hamkor sifatida qabul qilish; hamkor bilan munosabatlarda uning kayfiyatiga qarab ish tutish va fikrlariga quloq solish. Kommunikativ yondashuvni qo'llash natijada talaba shaxsining rivojiga yordam berish mumkin.

V.A.Slastenin ta'kidlashicha, "pedagogikaning umumilmiy metodologiyasi tizimli yodashuv orqali namoyon bo'lishi mumkin, u atrof-borliqdagi hodisa va jarayonlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi va bir-biriga asoslanganligini belgilaydi". [1: 83] Bu yondashuv pedagogik borliqdagi o'z muayyan strukturasi va qonuniyatlari mavjud bo'lgan obyekt va hodisalarni bir butun tizim sifatida tadqiq qilishni taqozo qiladi. Tizimli yondashuv obyekt va jarayonlar tarkibining mexanik yig'indisiga mos kelmagan holda ularning integrativ, tizimiy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

B.F.Lomov tizimli yondashuvdagi hodisa va jarayonlarning ko'pqirraliligi, ko'p darajalarga egaligi, ularning xossa-xususiyatlari turlichaligi va bu hodisalarni rivojlanish jarayonida tadqiq qilish lozimligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. [2: 42–49] Tizimli yondashuvning zarurligi zamonaviy jarayonlarning o'zaro bir-biri bilan bog'liqligi bilan izohlanadi, bularning hammasi ko'pqirralilik va birlikni, komponentlarining bir vaqtda, bir tizimda harakatda bo'lishini taqozo qiladi.

V.S.Lednev fikriga ko'ra, tizimli yondashuv bir-biri bilan o'zaro bog'liq tekislikda qurilgan strukturaviy va dinamik modellardan tashkil topgan.

Bizning tadqiqotda qo'llanilgan tizimli metodning o'zagi quyidagi olti mezonga rioya qilishni talab etadi:

- tadqiq qilinayotgan hodisalarni bir yaxlitlikda tasvirlash;
- ko'p qirrali hodisalarni bir tugunga birlashtirish;
- tadqiq qilinayotgan fenomenning nuqtasini aniqlash maqsadida ularning darajaviy ko'rsatkichlarini anglash;
- turlicha sifat ko'rsatkichlari va xususiyatlarning barchasini hisobga olish;
- aniqlangan determinantlar tizimidagi hodisalar to'g'risidagi ma'lumotni yaxlitlash;
- hodisalar xatti-harakatini tadqiq qilish. [3: 80–81]

Tizimli metod qo'llanganda chet tilda kasbiy munosabatlarning shakllanish jarayonini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- bu jarayon kasbiy tayyorgarlikning sof asosiy tizimi hisoblanadi va pedagogikaning umumdidaktik mezonlari asosida amalga oshiriladi;
- mazkur jarayon boshqariladi va mukammalikka moyil;
- uning natijadorligi talabalarga tizimli ravishda ta'sir ko'rsatishi va maxsus pedagogik sharoitlar yaratilganligiga bog'liq;
- chet tildagi kasbiy ishbilarmonlik munosabatlari madaniyati kompetensiyalar tizimi sifatida kasbiy munosabatlarni samarali ravishda amalga oshirishga yordam beradi.

Shaxsiy faoliyatga yondashuvni amalga oshirish tadqiqotimizning asosiy metodikasi hisoblanib, quyidagi holatlar bilan aniqlanadi:

- chet tilda kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining faoliyati talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ochishga qaratiladi;
- chet tilda kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirish bo'lg'usi mutaxassislarning kasbiy shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi;
- chet tilda kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirish talabalarning faolligi va interfaol texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshiriladi.

E.I.Passov konsepsiyasiga asosan kommunikativ yondashuvni ta'lim strategiyasi deb qabul qilish lozim, uning jarayonida munosabatlarning asosiy parametrlariga rioya qilinadi, ya'ni:

- talaba faoliyatining motivatsiyaga asoslanishi, talaba tashqi stimul evaziga emas, balki o'zining ichki istak-xohishiga asoslanib ish tutadi;
- maqsadga yo'naltirilganlik (talaba oldiga qo'ygan maqsadi sari harakatlanadi);
- nutqiy faollik (doimiy munosabatlardagi masalalarni hal qilishga yo'naltirilganlik);
- muammoga shaxsiy munosabatlarini ifodalay bilishi (manfaatdorlik hissi);
- talabalarning o'zaro hamkorligi (ularning xatti-harakati koordinatsiyasi);
- his-tuyg'uli, mazmunli munosabatlarga kirishuvchanligi: (holatni qabul qila olishi), shaxsiy munosabatlari (ta'limning predmeti sifatida);

- situativlilik (munosabatlar holatga bog'liq bilimlarga asoslanganligi);
- funksiyaviylik (nutqiy funksiyalar nutqiy birliklardan ustun turishi);
- evrikaga moyillik (o'qigan holda material mazmun-mohiyatini anglash);
- mazmunga e'tibor (informativlik);
- muammoga asoslanganlik;
- verbal va noverbal vositalardan foydalanishda ifodalilikka e'tibor. [4: 242]

Dj.Kolli, M.Bayram kommunikativ yondashuvda hamkorning tafakkuri va xulq-atvorini tushunishga yo'naltirilgan o'ziga xosliklar shakllangan, muammolarga hozirjavoblik, munosabatlarda uddaburonlik va zukkolik bo'lishi lozimligini hamda kommunikativlikning lingvistik, ijtimoiy va diskursiv turlari mavjudligini ta'kidlagan. [5: 205]

Chet tilda kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirishda kommunikativ yondashuvni qo'llash uchun o'quv jarayoniga interfaol texnologiyalarni joriy etish talab qilinadi. Ushbu yondashuv yana muammoli-nutqiy, ijodiy mashq va topshiriqlarning sof lingvistik, reproduktiv-trening mashq va topshiriqlardan ko'ra ko'proq bo'lishini, munosabatlarda autentik situatsiyalarni qo'llashni, kommunikatsiya jarayoniga spontan ravishda qo'shilib keta olish ko'nikmalarining mavjud bo'lishini, chet tildagi kasbiy munosabatlarga ruhiy jihatdan tayyor bo'lishlikni taqozo qiladi.

Chet tilda kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirish modelini yaratish uchun kompetentlilik yondashuvini ham qo'llash lozim, chunki bu yondashuv zamonaviy ta'lim paradigmasida tayanch yondashuvlardan biri hisoblanadi. Kompetentlikka o'tish Yevropa hamjamiyatida ijtimoiy muammolar, ya'ni ochiq fuqarolik jamiyatini saqlab qolish, mehnat bozoridagi yangi talablar, iqtisodiy o'zgarishlar natijasida kelib chiqqan.

Kompetenlilik yondashuvi ikki asosiy tushunchaga asoslanadi: "kompetensiya" va "kompetentlilik". Kompetensiyalarni egallashga asoslangan g'oya 1970-yillarda AQShda va 1965-yilda N.Xomskiy tomonidan til nazariyasiga taalluqli "competence" tushunchasi oldinga surilganidan keyin kelib chiqib, shu asosda shakllangan. N.Xomskiy tilni real jihatdan qo'llash bu – ko'nikma va tajribalardan foydalanib, kompetensiyani ko'rsata olish demakdir, deya ta'kidlagan edi. [6: 9] Umuman olganda, britaniyacha va amerikacha an'analarga ko'ra, bu inglizcha terminlarni qo'llash, ya'ni "kompetentlilik" (competence) insonning hayotiy vazifalaridan kelib chiqadigan tushuncha bo'lsa, "kompetensiya" (competency) esa insonning axloqiy-xulqiy jihatlarga taalluqli.

"Kompetensiya" termini hozirda keng miqyosda qo'llanilmoqda. V.D.Shadrikov "kompetensiya" terminini bitiruvchilarni tayyorlashdagi integratsiyalashgan tavsifiy ko'rsatkichlar, amaliy faoliyatda muvaffaqiyatni belgilab beruvchi ta'lim natijasining kategoriyalaridir, deb ta'riflaydi.

A.V.Xutorskoy kompetensiyani shaxsning mahsuldor faoliyat ko'rsatishi uchun kerak bo'ladigan sifat ko'rsatkichlari deb biladi. U kompetensiyani maqsadlar, kompetentlikni esa natija deb ataydi. U kompetensiyani qadriyatlarga ega bo'lgan mazmuniy, umummadaniy, ijtimoiy-mehnatga bog'liq, shaxsiy kompetensiya kabi turlarga ajratgan. [7: 9–10]

Chet tildagi kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirish, kasbiy faoliyatda, oliy o'quv yurti xorijiy til darslarida kompetentlilik yondashuvini qo'llash kabi masalar dolzarb bo'lib bormoqda.

Demak, kompetentlilik yondashuvi shaxsning bilimlarni qo'llashga tayyor ekanligini anglatadi. Bu yondashuv quyidagilarga asoslanadi:

- kognitiv komponent (bilim)ning mavjudligi;
- emotiv komponent (bilimlarga munosabatlar)ning mavjudligi;
- faoliyatga doir komponent (bilimlarni qo'llash)ing mavjudligi.

Kasbiy tayyorgarlik kontekstida "kompetensiya" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga yordam beruvchi bilim va ko'nikmalarning shaxsiy sifat ko'rsatkichlari bilan birgalikdagi jamlanmasi kompetensiya deb ataladi.

"Chet til" darslarida kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyati shakllanadi, o'qituvchi va talaba shaxs sifatida rivojlanadi, bo'lg'usi kasbiy faoliyatda chet til kasbiy ishbilarmonlik kompetensiyalari hosil qilinadi.

Chet tilda kasbiy munosabatlarning aksiologik aspektini quyidagicha taqdim qilish mumkin:

- lingvistik kompetensiya o'rganilayotgan qadriyatlarning lisoniy mazmumnini ifodalaydi;
- madaniyatlararo kompetensiya xorijiy va milliy qadriyatlarni ta'minlaydi;
- kommunikativ kompetensiya nutqda to'planadi va anglangan qadriyatlarni olib keladi;
- kasbiy kompetensiya qabul qilingan qadriyatlarni amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Tanlab olingan metodologik yondashuvlar tashkiliy masalalar, mantiq, tadqiqotning dinamikasi va metodlar tanlovini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сластенин В.А. Педагогика. - Москва: Academia, 2006. – С. 83.
2. Ломов Б.Ф. Системность в психологии: Избранные психологические труды. – Москва: Издательство Московского психолого-социального института; – Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2003. – С. 42–49.
3. Педагогика и психология высшей школы: Учебное пособие / Ответственный редактор М.В.Буланова-Топоркова. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2002. – С. 80–81.
4. Пассов Е.И. Коммуникативное иноязычное образование. Концепция развития индивидуальности в диалоге культур. – Липецк: Изд-во Липецкого гос. ун-та, 1999. – С. 242.
5. British Studies: Intercultural Perspectives / Ed. by Mountford A., Wadham-Smith N. – London: Pearson Education Limited, 2000. – 205 p.
6. Лазарев В.В. Когнитивная парадигма: исторические предпосылки и современные реалии // Вестник Пятигорского государственного лингвистического университета. – 2000. №2. – С. 9.
7. Кряхтунов М.И. Психолого-педагогические условия профессионального саморазвития учителя: Дисс. д-ра пед. наук. – Москва, 2002. – С. 9–10.

Hasanjon OLIMOV,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti o'qituvchisi

GLOBALLASHUVNING MILLIY TIL VA MADANIYATGA TA'SIRI

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar zaxirasidagi mavjud qurol-yarog'lar, er kurrasini bir necha bor yakson qilishga etadi. Buni hammamiz yaxshi anglayapmiz. Lekin, hozirgi eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Globallashuv bir tomondan jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilayotgan bo'lsa, o'z navbatida salbiy holatlarga ham sabab bo'lmoqda, desak bu ayni haqiqat.

Globallashuvga berilgan ta'riflar ko'p. Masalan, filologiya fanlari doktori professor F. Mo'minov "globallashuv – bu ommaviylashuv", degan edi. Lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olish uchun fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rifga nazar tashlash kerak. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:[1]

Globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;

Globallashuv – jahonning gomogenlashuvi va universallashuv jarayoni;

Globallashuv – milliy chegaralarning "yuvilib ketish" jarayoni.

Til va madaniyatimizni bir uyga qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan vayronkor shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Tashqaridan esayotgan ana shunday "shamol"ni biz globallashuvga qiyoslasak bo'ladi. Xuddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimiz hamda tilimizga salbiy ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rish lozim.

Har bir xalq va jamiyat qo'shni davlatlardagi madaniy va iqtisodiy o'zgarishlarni ko'rib, hamnafas bo'lib yashamoqda. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy Amerika changalzorlarda turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni xalqlarning zamonaviy tamaddun ta'sirini o'zida his qilib turadi. Shular qatorida o'zbek tili ham boshqa tillardan so'zlarni o'z leksikasiga qabul qilgan. Ba'zi bir o'zbekcha so'zlar esa qardosh tillarda ham foydalanib kelinyapti.

Globallashuv ta'sirida tilimizga Evropa tillaridan bir qancha so'zlar, yangi tushunchalar kirib keldi.

Masalan, *monitoring, konsalting, diller* kabi so'zlar nutqimizda qo'llanila boshlandi. "O'zbek tilidan ma'ruzalar" kitobidagi[2] ma'lumotga ko'ra o'zbek tili leksikasi tarkibida umumturkiy so'zlar bilan bir qatorda fors-tojik tilidan, arab tilidan, rus va ingliz tillaridan o'zlashgan so'zlar mavjud. Bu xalqimizning tarixi bilan bog'liq. Endi, neologizmlarning (yangi so'zlar) tilimizda namoyon bo'lishi ijtimoiy – iqtisodiy aloqalar va fan – texnika yutuqlari natijasida o'zlashadi.

Shu bilan birga boshqa tildan o'zlashgan so'zlar o'zbek tiliga butunlay singib ketishi, ba'zilari esa singishmay qolishi ham mumkin. Shunga ko'ra o'zlashma so'zlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

To'liq o'zlashgan (kitob, daftar, shkaf, stol)

Nisbatan o'zlashgan (vokzal, aeroport)

O'zlashish jarayonida (skaner, skoch)

O'zlashmagan (ministr, oblast[3])

Globallashuv natijasida tilimizga yangi so'z va atamalar paydo bo'ldi. Xususan, jurnalistikada ham yangi fanlar, so'z va atamalar qo'llanila boshlandi. Misol uchun *interaktiv jurnalistika, ekstremal jurnalistika, art jurnalistika, jurnalist estetikasi, nashrlar industriyasi* kabi fanlar paydo bo'ldi. Albatta, bu ommalashuvning ijobiy tomonidir.

Biroq hozirgi kunda yoshlar turkiy so'zlarning, hattoki, o'zbekcha so'zlarning ma'nosini tushunmayapti. Maqola yo xabar yozish jarayonida lug'at boyligi ozligi uchun takrorga, so'zlarning ma'nosini yaxshi anglolmagani sababli uslubiy xatoga yo'l quyilyapti. Mashhur shoirlardan biri Sirojiddin Sayyid bir ma'ruzasida shunday degan edi: "Hazrat Alisher Navoiy ortda emas, u zot oldinda! Qachon biz Navoiyni tushunamiz, qachon u zotga talpinamiz?".

Darhaqiqat, buyuk shoirlar yozganlarini tushunish ba'zida insonga qiyindek tuyuladi. Ba'zan izohli lug'atdan foydalanamiz. Milliy til va ma'naviyatimiz, o'zligimizni tahdidlardan himoya qilish uchun yagona yo'l bu ilmli, salohiyatli bo'lishdir. Bundan samarali va kuchliroq vosita yo'q.

Bugungi kunda eng samarali qurol — axborot. Insonning oddiy kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlarining asosini ham, dunyo mamlakatlarining insoniyat taqdiriga daxldor qarorlarning manbaini ham axborot tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida moliyaviy ta’sir ko‘lamini ham anchagina kengaytiradi. Turli usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ‘ibot va tashviqotlarning asl maqsadi – inson qalbi va ongi uchun kurashga qaratilgan. Global tarmoq orqali tarqatilayotgan yolg‘on xabarlar internetdan foydalanuvchilar, ayniqsa, yoshlarni o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi. Yaqinda qo‘shni Qozog‘istonda ro‘y bergan voqealar ham bunga misol bo‘la oladi. Oddiy yonilg‘i qimmatlashishi natijasida yuzaga kelgan vaziyat siyosiy mitinglarga ulanib ketdi. Bundan davlat zarak ko‘rdi, oddiy xalq jabrlandi.

Savol tug‘iladi: nega aynan yoshlar? Axborot globallashuvi va axborot oqimining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri haqida so‘z yuritganda, avvalo, bu masalaning zamirida jamiyat va davlatning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutish lozim. Bundan tashqari, ulkan mas’uliyatni his etgan holda yoshlarda axborot xurujlariga qarshi kuchli ma’naviy imunitetni hosil qilish lozim. Ochig‘ini aytganda, yoshlarni keng ko‘lamda internet tarmog‘idan uzib qo‘ya olmaymiz. Hozir axborot asri. Ammo ularda har qanday axborotga to‘g‘ri munosabat bildiradigan, uni tahlil qiladigan madaniyatni shakllantra olsak, bu zararni ma’lum miqyosda chegaralay olish mumkin.

1. “Очиқ ахборот тизимларида ахборий-психологик хавфсизлик ” фанидан маърузалар матни. 2020 йил.
2. Н.Еркабоева. Ўзбек тилидан маърузалар тўплами. “Ёш куч” Тошкент – 2021
3. Н.Еркабоева. Ўзбек тилидан маърузалар тўплами. “Ёш куч” Тошкент – 2021

Tadqiqot

Maqsuda IKROMOVA,
Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy Tadqiqotlar Universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi asissenti

CHET TILINI O‘QITISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA INTERFAOL O‘YINLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqola chet tili darslarida ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanishga bag‘ishlangan. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida yosh avlodning ota-onalari, bobolaridan farqli o‘laroq, ilg‘or texnologiyalar davrida o‘sib ulg‘aymoqda. Ommaviy ta’lim va aloqani yaxshilaydi. Shu bois darslarni axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda qiziqarli o‘yinlar orqali tashkil etish o‘quvchilarning bilim olish qobiliyatini rivojlantiradi. Demak, dars jarayonini optimallashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yinlar, irodaviy urinish, aylana stol, interaktiv usul.

Annotation: The article is devoted to the effective use of the media in foreign language classes. In the process of human development, the parents of the younger generation, unlike their grandparents, are growing up in an age of rapidly changing technology. Extensive use of mass media and wired technology enhances education and communication. Organizing lessons through a variety of fun games enriches and strengthens students’ learning skills. Optimizing the course process is one of the most pressing issues today.

Key words: didactic games, willpower, round table, interactive technique.

Аннотация: Статья посвящена эффективному использованию СМИ на уроках иностранного языка. В процессе развития человечества родители молодого поколения, в отличие от своих дедушек и бабушек, растут в эпоху стремительно меняющихся технологий. Широкое использование средств массовой информации и проводных технологий улучшает образование и общение. Организация уроков с помощью различных забавных игр обогащает и укрепляет учебные навыки учащихся. Оптимизация учебного процесса - одна из самых актуальных проблем сегодня.

Ключевые слова: дидактические игры, сила воли, круглый стол, интерактивная методика.

Insoniyat taraqqiyoti jarayonida yosh avlod ota-onalari, buvi-buvalaridan farqli o‘laroq shiddat bilan o‘zgarib borayotgan texnika asrida o‘sib ulg‘aymoqda. Bizni qurshab turgan turli texnologiyalar uyimizda, idoralarda va maktablarda faoliyatimizga ko‘makdosh. Ommaviy axborot vositalari va ilg‘or texnologiyalardan keng foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlaydi. Darslarni turli interfaol o‘yinlar orqali tashkil etish talabada bilim olishga qiziqishni oshiradi. Darslar jarayonini optimallashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Yosh avlodning qay tarzda o‘sib-ulg‘ayishi, ta’lim olishi ularning kelajakda o‘z yo‘lini topishiga muhim ta’sir ko‘rsatar ekan. Keng imkoniyatlarga yo‘l ochib beruvchi

texnologiyalar va yangi axborot vositalaridan foydalanish rivojlanish tamoyillarini belgilab beradi. Bular quyidagilar:

1. Inson hayotini soddalashtirishda axborot texnologiyalaridan tizimli ravishda foydalanish;
2. Yosh avlod tarbiyasida televideniye va axborot vositalaridan yo‘naltirilgan holda foydalnish;
3. Ma’lumotlar bazasini qonun-qoida asosida elektron shaklda yaratish.

Integratsiya texnologiyasi va interaktiv axborot ilk bolalalik davri dasturlari mustahkam taraqqiyot asosiga quriladi. Yosh avlod bilan ishlovchi tarbiyachilar ham axborot texnologiyalaridan foydalanishni imkon qadar darajada o‘rganib borishlari ham talab etilmoqda. Sababi bugungi kun yosh kadrlari yangiliklarni juda tez ilg‘ab olishadi. Ba tarbiyachilardan yanada ko‘proq ma’lumot olishga ehtiyoj tug‘iladi. Ular tafakkuridagi bo‘shliqni to‘ldirishning asosiy obyekti sifatida tarbiyachilarini ko‘z oldilariga keltirishadi. Ular axborotlashgan asrda yashar ekan, soniya sayin o‘zlariga yangilikni kashf etib borishadi. Bunda axborot texnologiyalari sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib borishadi.

So‘ngi yillarda vizual axborotning rangli va juda sifatli hajmlarda yetkazilishi axborot texnologilariga bo‘lgan ehtiyojni oshishiga sabab bo‘lmoqda. Aql, idrok va nutqning o‘zaro bog‘liqligi, avvalo, fikrlash jarayonining til orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi. Tafakkurning o‘sishi axborot vositalariga bevosita tayanadi. Hozirgi kunda so‘z va uning mazmun-mohiyatini o‘rganish maqsadida assotsiativ eksperimentdan foydalaniladi. Assotsiativ eksperimentning barcha turlari uchun xos bo‘lgan xususiyat, ularda natijaning asosiy ko‘rsatkichi sifatida reaksiya vaqti hisoblanadi. Bu mezonlar nutq-fikrlash jarayonining dinamikasini o‘rganish imkonini beradi.Assotsiativ reaktsiya vaqti fikrlash jarayoni tezligini ifodalaydi.

Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni chet tilida aniq, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirishga, so‘zlarni dona - dona talaffuz qilishga, unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, intonatsiya vositalaridan to‘g‘ri foydalanishi amalga oshirishni belgilab beradi. Oliy ta’limda chet tilini o‘rgatish vazifalar har bir guruhda, talabalarning kursi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilib boriladi. Zeroki, talablarda tilni o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lishi mumkin.

Kompyuter texnologiyalari yordamida talabalarni so‘zlashuv nutqiga o‘rgatish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqilishi lozim bo‘ladi. So‘roq gap turlariga binoan chet tilida savollar oldindan tayyorlanishi tavsiya etiladi. Ularni butun guruh uchun berilgan savollarga yakka holda javob berishga, jamoa bo‘lib so‘zlashishiga, suhbatda qatnashishga, o‘rtoqlarning javobini qunt bilan tinglash va o‘zi ham savol berishga o‘rgatilishi ularda chet tilidagi nutqning samarali darajada o‘zgarishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, chet tili o‘qituvchilari bilan so‘zlashganda samimiy, mazmunli gapirish kabi ijobiy hislatlar ham tarbiyalanib boriladi.

Chet tilini o‘rgatishga moslashtirilgan oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan talabalarni chet tilida to‘g‘ri va aniq gapirishga, ya’ni chet ellik sayyohlar vakillari bilan turli jarayonida, kundalik va mehnat faoliyatlarida erkin, to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatishga katta ahamiyat berilgan.

Darslarning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlovchi unsurlardan biri bu didaktik o‘yinlardir. Didaktik o‘yinlar qoidali o‘yinlar tarkibiga kiradi va rolli o‘yinlarni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu kabi o‘yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o‘yinning tashkil etilishini belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishini belgilab beradi. Didaktik o‘yinlarda asosiy fikrlash jarayonlari — tahlil qilish, qiyoslash, xulosa chiqarish va hakazolar takomillashadi. Amaliy darslarni shakllantirishda didaktik o‘yinlar uning samaradorligini oshiradi. O‘yin paytida bolaning ijobiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini, xotirasini takomillashtiradi. O‘yinda o‘quvchilar o‘zlari sezmagan holda juda ko‘p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, chet tilidagi yangi so‘zlarni yod olishadi.

O‘z navbatida didaktik o‘yinlarga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Didaktik o‘yinlar o‘quv predmetlari bo‘yicha dastur materialiga muvofiq holda tanlab olinishi lozim.
2. Didaktik o‘yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo‘yicha ma’lum talablar qo‘yilgan holda ishlab chiqilishi kerak.
3. Didaktik o‘yinning muvaffaqiyatli o‘tishi uning maqsadini til o‘rganuvchilar tomonidan yaqqol anglab olinishiga bog‘liq. Chunki bunda o‘quvchilarning fikrini maqsadli yo‘nalishga solish, ularning topshiriqni bajarishga qiziqishini oshirish imkoniyati tug‘iladi.
4. O‘yinlarni tanlashda ma’lum izchillikka rioya qilish ham zarur.
5. Didaktik o‘yinlarning qoidasini va tashkil etilishini tuzish va ishlab chiqishda o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning turli bo‘sh va kuchli, faol va loqayd guruhlarini hisobga olish kerak.
6. Ta’limiy o‘yinning qoidalari sodda, aniq, bo‘lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.
7. O‘quvchi talabalar butun o‘yin jarayonida faol ishtirok etishi, o‘z «navbatini» uzoq, kutish o‘yinga qiziqishni susaytirishi mumkinligini unutmaslik kerak.
8. Dars bir o‘yinga umumiy va yakka tartibda yondashish, undagi topshiriqlarning murakkablik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

“Aylana Stol” metodi

O‘yinning maqsadi:

- mavzu va muammoni erkin suhbat asosida tahlil qilishga o‘rgatish, talabalar bilim darajasini tenglashtirish;
- Turli muammolarni tizimli bosqichma-bosqich hal etish yo‘llarini o‘rgatish

O‘yinni tashkil etish uchun kerak bo‘ladigan vositalar:

- Xonani o‘yin uchun moslagan holda jihozlash, ya’ni talabalar yuzma-yuz holatda barcha ishtirokchilarni ko‘rib turishlari lozim bo‘ladi;
- dasturda ko‘rsatilgan tarjima nazariyasiga oid mavzu ma’ruzada tushuntirib berilgan bo‘lishi va qo‘shimcha ma’lumot topib, mustaqil o‘qish vazifa sifatida berilgan bo‘lishi lozim;

- "erkin mikrafon" prinsipini o'yinda qo'llash ya'ni so'zlash navbat asosida emas fikr mavjudligiga ko'ra tashkil etish;

- Aylana stol ishtirokchilari javob berishi lozim bo'lgan savol va topshiriqlar bazasini yaratish (mavzuga doir savollar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi);

- berilgan fikrlarni yanada kengroq shaklda davraning o'zida muhokama qilish;

Dars jarayonida interaktiva usullardan foydalanaish bugungi kun talabiga aylangan. O'qitishning interaktiv usullari o'quvchilarning g'oyatda katta ta'lim sa-lohiyatini faollashtirish va foydalanishga, o'quv jarayoniga ijodiylik elementlarini kiritish va ijodiy faoliyat yurituvchi tizmlarga xos bo'lgan iner-giya xususiyatlaridan foydalanishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlardan til o'rgatishga asoslangan fanlarda foydalanish talabaning har tamonlama bilim bazasini boyitish uchun xizmat qiladi. Didaktik o'yinlarni dars jarayonining qaysi qismiga tashkil etish o'qituvchilarning individual qarashlariga bog'liq bo'ladi.

Yosh avlod nutqini rivojlantirishning asosiy vositalaridan (shakllardan) biri bu ta'lim. Ta'limning asosiy shakli — amaliy mashg'ulotdir. Chet tilida nutq o'stirish amaliy mashg'ulotlarida talaba o'z nutqini o'qituvchining namunaviy nutqi bilan taqqoslashga, boshqa talabalar bilan o'quv materiallarni bajarishga, ya'ni o'qituvchining tushuntirishini, hikoyasini tinglashga, birgalikda kuylashga ma'lum bir ob'ektga diqqatini qarata olishga, navbat bilan gapirishga o'rgatadi.

Chet tillarini o'qitishga mo'ljallangan oliy o'quv yurtlarida ko'proq aralash turdagi mashg'ulotlardan foydalanish joriy qilingan. Masalan, bir mashg'ulotning o'zida talabalarni yangi bilim beruvchi material bilan tanishtiriladi ilgari hosil qilingan bilim takrorlanadi va mustahkamlanadi. Nutq o'stirish mashg'ulotlarni o'ziga xos xusisiyatlarga ega bo'lib, ayrim vaqtlarda mashg'ulotni o'tkazishda qiyinchiliklar vujudaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Barkamol avlod - O'zbekistonning poydevori" Toshkent, 1998.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Toshkent, 1997.
3. Shodiyeva Q. "O'rta guruh bolalarning nutqini o'stirish" Toshkent 1993.
4. Комиссаров В.Н. Слова о переводе. (Очерк линг. учения о переводе) – М.: МО. 1973.
5. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – М.: МО. 1980.
6. Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике. В кн.: «Прагмалингвистика» Сафаров Ш. Т.: 2008. 7. ZufarovSh. Ta'limda innovatsion jarayonlarni tizimli boshqaruvi. Nazariya, tahlil, tasnif.T.; 2010.6-bet

Solijon AZIZOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti

TALABALARNING CHET TILIDAGI YOZUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLI: RAQAMLI TA'LIM MUHITI, HAMKORLIK VA QAYTA ALOQA

Annotatsiya. *Maqolada chet tili ta'limiga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning bo'lajak mutaxassis sifatida yozuv kompetensiyasini raqamli va an'anaviy ta'lim shakllarining o'zaro uyg'unlashgan talqini – "blended" sharoitida takomillashtirishda integratsion raqamli ta'lim muhiti, o'zaro hamkorlik va qayta aloqa "feedback"ning dolzarb amaliy ahamiyati to'g'risida atroflicha mushohada yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *yozuv kompetensiyasi, til ta'limi, raqamli ta'lim, qayta aloqa, ingliz tili, savodxonlik, "blended" ta'lim muhiti, oliy ta'lim, hamkorlik, tajriba.*

Annotation. The article discusses in detail the integrated digital learning environment, interaction and feedback in improving the competence of students studying in higher educational institutions specialized in teaching foreign languages, as future specialists in the mixed interpretation of digital and traditional forms of education.

Key words: writing competence, language education, digital education, feedback, English, literacy, blended learning environment, higher education, collaboration, experience.

Аннотация. *В статье подробно рассматривается интегрированная цифровая среда обучения, взаимодействие и обратная связь в повышении компетентности студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, специализирующихся на преподавании иностранных языков, как будущих специалистов в смешанной интерпретации цифровых и традиционных форм обучения.*

Ключевые слова: *письменная компетенция, языковое образование, цифровое образование, обратная связь, английский язык, грамотность, смешанная среда обучения, высшее образование, сотрудничество, опыт.*

Til ta'limi – bu barcha zamonaviy (ona tili bo'lgan va bo'lmagan) tillar va madaniyatlar sohasiga oid ta'limdir.[1] Xususan, chet tili ta'limi o'zaro hamkorlikda olib boriluvchi, uzviylik va uzluksiz omillari asnosida tashkil etiluvchi murakkab jarayondir. Jumladan, chet tili ta'limi bo'yicha mutaxassis, ya'ni o'qituvchi va til o'rganuvchilar bugungi har tomonlama innovatsion texnologiyalar va g'oyalar yordamida modernizatsiyalashgan ta'lim muhitida bir qator mas'uliyatli rollar va vazifalarni bajarishmoqda. Chunki hozirgi chet tili ta'lim muhiti yillar davomida takomillashtirildi va insoniyat olamining har bir zamondagi talab va ehtiyojlariga moslashtirilgan holda amaliyotga tatbiq etilmoqda. Zero, har qanday tilni bilish – bu lingvomadaniy xilma-xillikni o'zaro tushunish vositasiga aylantirishning o'ziga xos mexanizmidir.[2] Natijada chet tilini o'rganish til o'rganuvchilarning nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarining, balki madaniy, tarixiy, iqtisodiy, siyosiy bilimlarining ham oshirilishida ahamiyatli ko'makchiga aylandi.

Agar chet tilining ona tili va ikkinchi tildan farqli jihatiga e'tibor qaratilsa, mazkur ta'lim jarayonining o'qituvchi va til o'rganuvchilarning amaliy dars mashg'ulotlarida bajaradigan butun bir vazifa va chora-tadbirlarining umumiy konsepsiyasi yuzaga chiqadi. Ya'n, chet tili – bu atrofni o'rab turgan muhitda ona tilida so'zlashuvchilar deyarli yo'q yoki umuman bo'lmagan tildir. Chet tili deganda ta'lim jarayonida sun'iy sharoitda o'rganiladigan va kundalik muloqotda ona tili bilan birga foydalanilmaydigan til tushuniladi.[3] Shu sababli, ta'lim bosqichlarida chet tillarini o'rganish va o'rgatish tizimini uzviylik va uzluksiz omillariga chuqur e'tibor bergan holda tashkil etish sohada olib borilayotgan va olib borilishi mumkin bo'lgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarining tahliliy-tanqidiy samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Vaholanki, xorijiy tillarni chet tili sifatida o'rgatishni yo'lga qo'ygan har bir mamlakat yoki hududda chet tili ta'lim sohasining muvaffaqiyatli olib borilishi to'g'ridan-to'g'ri mazkur ta'limiy kontekst asosiga qurilganligi bilan o'zining dolzarb ahamiyatiga egadir.

Umuman olganda, til o'rganuvchining chet tilini o'rganganlik darajasini aniqlashning eng muhim vositasi uning ushbu tildagi nutq faoliyati turlari – gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvni qay darajada egallaganligi bilan belgilanishi fanda ma'lum. Chet tili ta'limining oliy ta'lim bosqichida o'rgatish va o'rganish holati misolida mazkur nutq faoliyati turlarining takomillashtirish jarayoni ta'limning quyi bosqichlaridan bir qator jihatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, chet tillarini o'rgatishga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim bosqichida talabalarning ma'lum bir xorijiy tildagi bilim, ko'nikma va malakalari nofilologik oliy ta'lim tizimidan o'zining amaliy jarayonlardan ko'zlagan maqsad-vazifalari, tarkibi va o'quv ko'lami bilan tubdan farq qiladi.

Ikkinchidan, filologik oliy ta'limda talabalarning ta'lim olish jarayonlari asosiy o'rganilayotgan chet tilidagi nutq faoliyati turlarini takomillashtirish bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning bo'lajak mutaxassis sifatida kelgusidagi kasbiy va professional faoliyatlariga ham nazariy, ham amaliy tayyorgarlik olib borilishi bilan o'zining dolzarb ahamiyatini namoyon etadi.

Aslini olganda, nutq faoliyati turlarining har biri chet tili ta'limining amaliy samaradorligida o'z maqsad-vazifasiga va o'rniga egadir. Biroq, bo'lajak mutaxassis sifatida talabalarning gapirish va yozuv kompetensiyalariga ularning jarayonda takomillashtirishlari lozim bo'lgan asosiy amaliy ko'nikmalari sifatida alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot yo'nalishidan kelib chiqqan holda mazkur maqolada talabalarning yozuv kompetensiyasini "blended" ta'lim muhitida takomillashtirishda raqamli ta'lim muhiti, undagi ta'lim texnologiylarining o'rni, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik va raqamli qayta aloqaning samarali jihatlari tahlil jarayoniga tortildi. O'z navbatida, shuni ta'kidlash joizki, yozuv bizga tilni qanday o'qishimiz, yozishimiz va undan foydalanishimiz, "bilish" nimani anglatishi haqidagi eng chuqur saboqni beradi, chunki u bizning bilim olishimiz va fikrlash uslubimizni tasavvur qilishimizga imkoniyat yaratadi.[4] Misol uchun, chet tilida yozuv kompetensiyasini takomillashtirish nafaqat ushbu amaliy ko'nikma doirasida, balki qolgan barcha kompetensiyalar uyg'unligida amalga oshiriladi. Buning asosiy sababi sifatida shuni qayd etish mumkinki, chet tilida til o'rganuvchilarning o'zlashtirgan bilimi emas, aksincha, egallagan ko'nikmalari nazorat qilinadi va mazkur holatda barcha nutq faoliyati turlarining mushtarakligi yakunda ko'zlangan natijalarga har tomonlama erishish uchun shart-sharoit yaratadi. Aslida chet tilida yozish til o'rganuvchi va o'qituvchisi uchun qiyinchilik tug'diradi. U individual tarzda har bir yozuvchi (muallif)ning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishi lozim va unda yozma nutqning o'quvchisi tushunishini xohlaydigan biron bir mavzuga yo'naltirilgan bo'lishi va yozuvchining ishtirokini davom ettiradigan tajribani taqdim etishi kerak.[5]

Yozuvga va chet tili ta'limiga oid yuqorida keltirilgan barcha ilmiy-amaliy izlanishlarning natijalariga ko'ra, yozuvning chet tili ta'limidagi dolzarblik darajasini belgilab bermoqda, umumiy holatda esa chet tili ta'lim jarayonlari murakkab, ko'p qirrali va o'z navbatida, har doim ikki tomonlama olib boriluvchi voqelikdir. Shu bois, yozuv – tilda qabul qilingan yozuv tizimi (grafik belgilar) yordamida fikrni ifodalashni ta'minlovchi samarali nutq faoliyati turidir[6+] va u nutq faoliyatining mahsuldor turlariga tegishli bo'lib, axborotni yozma ravishda uzatish bilan bog'liq bo'lgan murakkab fikrlash jarayonidir.[7]

Ayniqsa, yozuv kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikda olib boriluvchi uzluksiz faoliyat, undagi pedagogik va innovatsion texnologiyalar tatbiqining uyg'unligi hamda talabalar e'tiboriga havola etilayotgan chet tili ta'limi vositalari, xususan, qayta aloqaning samarali shakllarining bugungi kundagi ta'sir doirasi sezilarli darajada oshdi. Natijada chet tillarini o'qitish metodikasining ilm-

iy-amaliy tadqiqotlarida yuqorida ta'kidlangan omillar har tomonlama chuqur tahlil etildi va bu jarayon muntazam davom etmoqda. Chunki chet tili ta'limi zamon talabi va til o'rganuvchilarning real ehtiyojlariga moslashib boruvchi hodisadir. Xususan, yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning bugungi zamon va makon ta'lim jarayonlaridagi tendensiyasini oliy ta'limning ingliz tili yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarni bo'lajak mutaxassis sifatida tayyorlash misolida quyida batafsil tahil etiladi.

Avvalambor, endilikda ingliz tili o'rganuvchilari butun dunyo bo'ylab onlayn muloqot qilish orqali yangi o'zlashtirilgan yozuv ko'nikmalaridan bevosita foydalanishlari va ularni rivojlantirishlari mumkin bo'lmoqda. O'z navbatida, asosiy o'rganilayotgan chet tili – ingliz tilida yozishni osonlashtirishda onlayn korpus va lug'atlar samarali vositalar sifatida qo'llanilishi yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, matn muharrir dasturlari til o'rganuvchilarga yozma matnlarni mustaqil ravishda yoki hamkorlikda o'rganish tartibida ularning qoralama nusxalarini tayyorlash, qayta ishlab chiqish va tahrirlash uchun xizmat qilmoqda. O'qituvchilar va til o'rganuvchilar elektron pochta orqali trekni o'zgartirish funksiyasidan foydalangan holda kontekstga doir fikr-mulohazalarni taqdim eta olmoqda.[8]

"Blended" ta'lim muhitida esa chet tili o'qituvchisi talabalarning har tomonlama qulay va interaktiv o'qish faoliyatini olib borishlari uchun shart-sharoit yaratishga mas'uldir. Vaholanki, "blended" ta'lim keng doiradagi jamoaviylik va hamkorlikni, qamrovi keng global ulanish qobiliyatini, o'quv materiallarining dolzarbligini va talabalarga istalgan vaqtda, istalgan joyda o'rganish erkinligini ta'minlaydi.[9] Shu o'rinda ayni ta'lim muhitida qo'llaniluvchi texnologiyalar to'g'risidagi umumiy bir xulosani qayd etib o'tish joizdir, ya'ni "texnologiya dizayn va o'quvchilarni jalb qiladigan muhitlardan iboratdir. Texnologiya, shuningdek, o'quvchilarni jalb qilish uchun kognitiv ta'lim strategiyalari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari kabi har qanday ishonchli texnika yoki usuldan iborat bo'lishi mumkin".[10] Jumladan, ingliz tilida yozuv kompetensiyasini takomillashtirish misolida olib qarasak, raqamli ta'lim texnologiyalari oliy ta'limda talabalarning nisbatan mustaqil tarzda o'z bilim, ko'nikma va malakalari ustida ishlashlari yo'lida bir qator qulayliklar yaratib beradi.

Birinchidan, ***blended ta'lim muhitida raqamli ta'lim texnologiyalari sifatida tatbiq etiluvchi vositalar yozuv kompetensiyasini innovatsion integratsion ta'lim sharoitida takomillashtirishda samaralidir***. Oliy ta'lim bosqichida chet tili o'qituvchisi, misol uchun, ingliz tili ta'limida eng so'nggi raqamli texnologiyalari qatorida ijtimoiy tarmoq va messenjerlardan tizimlashtirilgan dastur asosida foydalanishi mumkin. Bu vositalar amaliy yozuv ko'nikmalarini real muhitda bosqichma-bosqich takomillashtirib borishda talabalarga ko'mak beradi va dasturlarning asosiy tili – ingliz tili bo'lganligi jarayonning yanada qulay va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, yozma nutqning turli janrlarini tayyorlashda turli ta'limiy saytlar, bloglar va platformalar kabi raqamli ta'lim texnologiyalari nafaqat o'qituvchining, balki talabalarning ham hamkorlikdagi faoliyatlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur raqamli texnologiyalar orqali talabalardan yozma nutq janrlarini yaratishga doir topshiriq va vazifalar o'qituvchi tomonidan mutazam taqdim etib boriladi, yakunda esa talabalardan ular matn yoki fayl ko'rinishida qabul qilinib olinadi. Zero, Telgram messenjeri platformasi orqali butun bir blended ta'lim shaklining innovatsion qismini integrallashtirish mumkin. Yoki Google Forms texnologiyasi orqali fayl ko'rinishidagi vazifalarni qabul qilib olish mumkin, chunki elektron pochta manzillari orqali ishlash ham oliy ta'limning hozirgi kontekstini yanada optimallashtirishda ahamiyatlidir. Darsdan tashqari holatda talabalarning virtual olamda yozuv kompetensiyalarini takomillashtirishlarida bir vaqtning o'zida bir nechta o'quv materiallarini tahlil qilgan holda faoliyat olib borishlari chet tili ta'limining samaradorligida muhim omilga aylanib bormoqda. Shu boisdan talabalarning ijodiy tafakkuri, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va chet tilidagi yozuv ko'nikmalarini o'qitishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlari va til o'rganuvchilarning manfaatlariga hamohang tarzda shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.[11] Ikkinchidan, ***ingliz tili misolida talabalarning yozuv ko'nikmalarini takomillashtirishda o'qituvchi va talabalar o'rtasida hamkorlikdagi ta'limiy faoliyatning bugungi rivojida dolzarbdir***. Hamkorlik omili chet tili ta'limida kundan kunga o'z mavqeyini oshirib bormoqda va bunga bir qator sabablar mavjud. Misol uchun, oliy ta'limda talabalarning nisbatan mustaqil faoliyat olib borishlariga, o'qituvchining butun bir jarayonni nazorat qilishga va til o'rganuvchilarni kerakli vaziyatda qo'llab-quvvatlashga jalb etishga qaratilgan amaliy muhitning e'tibor markaziga tortilgani bilan belgilanmoqda.

Yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda ham raqamli ta'lim platformalari va texnologiyalari yordami ahamiyatlidir. Bunda o'qituvchi va talabalarning o'quv materiallarini, topshiriq-vazifalarni muhokama qilish va o'zlashtirilgan ko'nikma-malakalarning shaffoflikda nazorat qilinishida hamkorlikning ta'sir doirasi kuchli. Uchinchidan, ***blended ta'lim muhitida taqdim etiluvchi qayta aloqaning innovatsion talqini butun bir dars mashg'ulotlari va o'quv materiallarining sifat va mazmunini yanada ijobiy tomonga o'zgartirishda muhimdir***. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini to'g'ri va samarali yo'sinda baholash, ularni o'rinli fikr-mulohazalar bilan ta'minlash qayta aloqaning chet tili ta'limidagi dolzarbligini yanada oshiradi. Zero, talabaning yozma nutq janrini yaratishda yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan fikr-mulohaza, tavsiyalar interaktiv o'quv materiallari bilan o'zaro

integrallashgan holatda bo‘ladi. Natijada ham talabalar, ham o‘qituvchilar uchun butun bir ta’lim jarayonining sifatli va mazmunli bo‘lishida qayta aloqaning ham samarali jihatlari keng ko‘lamda amaliyotga tatbiq etiladi.

Xulosa shuki, bugungi kunda bo‘lajak mutaxassis sifatida talabalarning chet tilidagi amaliy ko‘nikmalarini uzluksiz va uzviy shaklda takomillashtira olishlarida raqamli ta’lim muhiti va o‘qitish metodikasidagi yangiliklar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chet tili ta’limidagi har bir kichik omil yoki vosita ham o‘z o‘rni va maqsad-vazifalariga ega ekanligini raqamli ta’lim muhiti, hamkorlik va qayta aloqa kabi muhim jarayonlarda bevosita ko‘rishimiz mumkin.

1. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – Москва, – 2007.
2. Солонцова Л.П. Методика обучения иностранным языкам: Часть 1: Общие вопросы. Базовый курс. в 3 частях: учебник для вузов (бакалавриат), с.245. – Москва, – Издательство ВЛАДОС, 2018.
3. Солонцова Л.П. Методика обучения иностранным языкам: Часть 1: Общие вопросы. Базовый курс. в 3 частях: учебник для вузов (бакалавриат), с.9. – Москва, – Издательство ВЛАДОС, 2018.
4. Zamel V. Writing one’s way into reading. TESOL quarterly, 26, 463-485. – 1992.
5. Jozsef H. Advanced writing in English as a foreign language: A corpus-based study of processes and products, p.49. – 2001.
6. Буковский С.Л., Щукин А.Н. Основы методики обучения иностранным языкам в схемах и таблицах. Иллюстративно-графический курс: учебное пособие, с.231. – Москва, – ФЛИНТА, 2020.
7. Иванченко А.И. Практическая методика обучения иностранным языкам: Методическое пособие, с.193. – Санкт-Петербург: КАРО, 2016.
8. Levy M. Technologies in use for second language learning. The modern language journal, 93(3), 769–782. – 2009.
9. Bonk C.J., Graham C.R. The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs. – John Wiley & Sons, 2012.
10. Jonassen D.H., Howland J., Marra R., Crismond D. Meaningful learning with technology, p.12. – Upper Saddle River: Pearson/Merrill Prentice Hall, 2008.
11. Azizov S. Blended learning technologies: course design, collaboration and assessment in improving students’ essay writing skills. Philology matters, 2, 125-140. – Tashkent, – 2021.

Obid JAYNAROV
Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA “TARBIYA” FANINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda “Tarbiya” fanini o‘qitish texnologiyasi va mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ma’naviy kompetensiyalarini rivojlantirishga inovatsion yondashuv texnologiyasi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy kompetensiya, tarbiya, Vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, innovatsiya, ta’lim texnologiyalari.

Annotation. In this article, opinions on the technology of teaching educational science today and the technology of progressive approach to the development of moral competences of students in training are discussed.

Keywords:, spiritual compensation, education, patriotism, national identity, innovation, educational technology

Аннотация. В данной статье изложены размышления о технологии преподавания дисциплины воспитание на сегодняшний день и технологии инновационного подхода к развитию духовных компетенций учащихся на занятиях.

Ключевые слова: духовная компетенция, **воспитание**, патриотизм, национальное самосознание, инновации, образовательные технологии.

Bugungi kunda ta’limni modernizatsiyalash zarurati, dunyo hamjamiyatiga integratsiya jarayoni ta’lim tizimiga innovatsiyalarni joriy qilishni taqozo etmoqda. Axborotlashgan jamiyat davrida bilim va malakaning inson hayotidagi ahamiyati birinchi o‘ringa chiqadi.

Shaxsda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish, ularda vatanparvarlik, Vatan va millat taraqqiyotini ta‘minlovchi ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Jamiyat fuqarolarining milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash hamda milliy iftixor tuyg‘ulariga ega bo‘lishi davlat mustaqilligini mustahkamlash, jamiyat ravnaqi va millat taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlari, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalari talabalariga “milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash” va “milliy iftixor” tushunchalari to‘g‘risida ma’lumotlar berish, ularda bu kabi sifatlarning shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

“Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirishda ana’na, Vatanparvarlik, komil inson tushunalarini

aniq tasavvur etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana'na – ajdodlarning tarixan to'plagan ma'naviy qadriyatlarini avlodlarga uzatish vositasi. Ana'na o'z holicha mavhum tushuncha bo'lib, aslida, qadriyatga aylangan rasm-rusumlar, urf-odatlar, marosimlar, udumlar, ko'nikmalar, malakalar, turmush tarzi va boshqalar haqida fikr yuritilganda, u aniq ma'no kasb etadi. Millatlar, xalqlar, elatlarning tarixiy xotirasiga zo'r hurmat bilan qarash, avvalo, ana'naga aylangan marosimlarda o'z ifodasini topadi. Qadriyat va ana'nalar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari shakllanishiga ta'sir qiladi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me'yorlari, urf-odat, marosim va boshqalar ana'na sifatida namoyon bo'ladi. U yoshlarni tarbiyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o'rgatish vositasi hamdir. Har bir davrning o'z qadriyatlari bo'lib, vaqt o'tishi bilan azmunan boyib boradi, ba'zilari yo'qoladi, yangilari vujudga keladi. Davr talabiga javob bermaydigan ana'nalar unutiladi, o'tmishga aylanadi.

Ana'nani asosan ikki turga bo'lish mumkin:

a) ana'naga aylangan xayrli (bunyodkor) marosimlar, ishlar, faoliyat yo'nalishlari. Bunday ana'nalar ijtimoiy taraqqiyot, milliy ravnaq va inson kamoloti uchun bemisl ahamiyatga molikdir;

b) ana'naga aylanib qolgan zararli (vayronkor) udumlar, ishlar, faoliyat yo'nalishlari. Bular har doim inson ongi va ruhini qashshoqlashtirib, u ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga zavol bo'ladi.

Tarixiy jarayonlar, ijtimoiy taraqqiyotning oldinga borishiga, insonning barkamol, sog'lom ravnaq topishiga xizmat qiladigan hamda muayyan xalq ommasining tub manfaatlariga muvofiq keladigan marosimlar, rasm-rusum, urf-odat, turmush va tafakkur tarzi xayrli ana'na vositasi ta'sirida rivojlanadi va qadriyatga aylanadi.

Vatanparvarlik – Vatan oldidagi mas'uliyat va burchni anglash tushunchasi. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko'p anglashilsa, kishilarda vatanparvarlik tushunchasi shuncha baland bo'ladi. Bu jarayon cheksizdir. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanparvarlikning yangi-yangi qirralarini kashf etib boradi. Har bir shaxsdagi vatanparvarlik tuyg'usi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq.

Haqiqiy vatanparvarlik - millat, Vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida mehnat qilish hamda kurashishdir.

Komil inson – ijtimoiy taraqqiyotning asosiy g'oyalaridan biridir. Komil inson g'oyasi va uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlar insoniyat sivilizasiyasining ma'no-mazmunini tashkil qiladi. Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g'oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi, ya'ni, jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizasiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezoni shaxsning barkamolligi orqali jamiyatni baxt-saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan. Insondagi komillik, eng avvalo uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidadir. Shu ma'noda buyuk yunon faylasufi Suqrotning "O'zing o'zingni bil", — degan da'vati ham insonning o'z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat va 66 majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir.

Madaniy meros – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, diniy va ruhiy qarashlarda xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmui.

Har bir davr o'ziga xos bo'lgan madaniy merosni yaratadi va kelajak avlodga qoldiradi. Masalan, qadimgi yunon madaniyatini oladigan bo'lsak, o'sha davrning fani, adabiyoti va san'ati sohasidagi nodir asarlari insoniyatni hozirgacha hayratga solib kelmoqda. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda Uyg'onish davri boshlandi, dunyoviy va ilohiy ilmlar rivoj topdi. Fanning turli sohalarida ulkan ishlar qilindi. Jahonga dong'i ketgan allomalar Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Hakim at-Termiziy, imom Buxoriy, Zamaxshariy, Marg'inoniy, Moturudiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalar tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va diniy qarashlari, badiiy ijodlari bilan tarixda chuqur iz qoldirdilar.

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududidan moddiy boylik bo'lmish asori-atiqalar, yodgorliklar madaniy obidalar ko'plab topiladi. Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz, Xiva, Shahrisabz shaharlarida saqlanayotgan yodgorliklar, masjidu-madrasalar, maqbaralar jahonning ko'p mamlakatlaridan kelgan sayyohlarni lol qoldirmoqda.

Har bir davrning ma'naviy va moddiy madaniyati o'sha tuzumdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvolini belgilaydi. Madaniyat sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar keyingi davrda yangi jamiyat tomonidan o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va yangi mazmun bilan to'ldiriladi, sharoitga to'g'ri kelmaydiganlari inkor etiladi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, urf-odat, marosim va ana'nalar, milliy bayramlar qayta tiklandi, o'zbek tili davlat tili maqomini oldi, islom dini madaniyatimizning tarkibiy qismiga aylandi, tariximiz qayta o'rganib chiqilmoqda. O'tmishda milliy madaniyatimiz ravnaqiga katta hissa qo'shgan buyuk siymolarning nomlari tiklanib, abadiylashtirilmoqda, yubileylar o'tkazilmoqda. Xullas, milliy madaniy merosimizni xalq mulkiga aylantirish borasida ko'p xayrli ishlar qilinmoqda. Bularning hammasi mustaqillik sharofati tufaylidir.

Ijtimoiy-ma'naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q.[1]

Jamiyatimizga chuqur bilimli, malakali, tezkor va konstruktiv tarzda qaror qabul qila oladigan mutaxassislar zarur. Shu bois o'qituvchi va o'quvchi-talabaning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligi ta'lim jarayonining muhim jihatiga aylanib, bunda ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish katta ro'l o'ynaydi. Ta'lim

jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash mutaxassislarni tayyorlashning sifatini oshirishga hamda talabalarning mustaqil ishlarining rolini faollashtirishga ko'maklashadi. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish kelajakda uning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratadi.

Innovatsiya yoki yangilash insonning har qanday kasbiy faoliyatiga xosdir. Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lmay, ilmiy izlanishlar, ilg'or pedagogik tajriba natijalari sirasiga kiradi. "Innovatsiya" tushunchasi lotinchadan tarjima qilinganda "yangilanish, yangilik, o'zgarish" ma'nosini anglatadi. Pedagogik jarayonda innovatsiya ta'lim va tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, metod va shakllariga yangilik joriy qilish, o'qituvchi va o'quvchi-talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish demakdir. Bugungi kunda pedagogikada aynan innovatsiyalar ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul vositasi bo'lib bormoqda. Mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda uning milliy o'zlikni anglash, bag'rikenglik va tolerantlikka oid malakalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda milliy o'zlikni anglash va bag'rikenglikni rivojlantirish borasida ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgan bo'lsa-da, ommaviy madaniyatga berilish, axloqiy regressiya holatlari ham yo'q emas. Ta'limda innovatsiyalarning jadal rivojlanishi "Tarbiya" fanini o'qitishda muammoli ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, loyihaviy ta'lim, kasbiy mashg'ulotlar, masofaviy ta'lim, Internet resurslaridan foydalanish kabi innovatsion texnologiyalarni qo'llash, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali ta'limni differensial tarzda amalga oshirishni taqozo qiladi.

Bugungi kunda e'tibor qozonayotgan muammoli ta'lim texnologiyasi bilishga oid, ijodiy topshiriqlarni bilim va malakalarni oshirish orqali mustaqil bajarishni ko'zda tutadi, talabalarni ma'lum bir harakatlar tizimini shakllantirishga undaydi, muloqotda ijodiy muhitni yaratadi. Muammoli ta'lim texnologiyasini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

1. Berilgan vaziyat (holat)da yuzaga kelgan muammoni aniqlash.
2. Holatni tahlil qilish, muammoni ifodalash.
3. Muammoning yechimini topish.
4. Yechimning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash.

Shu tariqa, ta'limning innovatsion texnologiyalari o'qituvchining faoliyatini quyidagi jihatlarga yo'naltiradi:

• kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali talabaning faol fuqarolik pozitsiyasiga, murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'l topish va muammolarni ijobiy hal qilish layoqatiga ega shaxs bo'lib yetishishiga ko'maklashish;

• ta'lim sub'ektlarining o'zaro munosabatlari xarakterini o'zgartirish, ya'ni o'qituvchi va talabaning hamkor ekanligini, bir maqsadga xizmat qilishlarini anglash;

• ta'lim jarayonining ko'p qirraliligi orqali talabalarning ushbu jarayonga va fanga nisbatan motivatsiyasini kuchaytirish;

• ta'lim jarayonini tashkillashtirish usullarini tubdan o'zgartirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish va joriy etishga e'tiborni kuchaytirish.

Innovatsiyalarning ta'limda qo'llanishi bugungi kunda ta'lim, fan va amaliyotning integratsiyasiga olib boruvchi asosiy yo'l ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Bu esa zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyalar ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositasiga aylanmog'i kerakligini anglatadi.

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017y, -461-bet

Nargiza SATTAROVA,
O'zbekiston Milliy universitetiJurnalistika fakulteti
Lingvistika (o'zbek tili)yo'nalishi 2-bosqich magistranti

ERKIN VOHIDOVNING "OLTIN DEVOR" DRAMASIDA PRESUPPOZITSIYA IFODASI

Annotatsiya. Ma'lumki, presuppozitsiya implitsit vosita bo'lib, yashirin ifoda usullaridan sanaladi. Presuppozitsiya-muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma'no. Presuppozitsiya tushunchasi kontekst va vaziyat tushunchalarini o'z ichiga oladi. Mazkur maqolada o'zbek shoiri Erkin Vohidovning yashirin ifoda vositalaridan biri bo'lgan presuppozitsiyadan foydalanish mahorati "Oltin devor" dramasi misolida tahlil qilinadi. Ijodkorning o'ziga xos badiiy jihatlari tadqiq etiladi.

Abstract. It is well known that presupposition is a means of implication and a means of implicit expression. Presupposition is a hidden meaning that is not expressed directly in a particular sentence. The concept of presupposition includes the concepts of context and situation. This article analyzes the use of presupposition, one of the secret means of expression of the Uzbek poet Erkin Vahidov, in the drama "Golden Wall". The artist's unique artistic aspects are explored.

Аннотация. Хорошо известно, что пресуппозиция является средством импликации и средством имплицитного выражения. Пресуппозиция – это скрытый смысл, не выраженный непосредственно в конкретном предложении. Понятие пресуппозиции включает в себя понятия контекста и ситуации. В данной статье анализируется использование пресуппозиции, одного из тайных выразительных средств узбекского поэта Эркина Вахидова, в драме «Золотая стена». Исследуются уникальные художественные стороны художника.

Kalit so'zlar: Presuppozitsiya, implitsit, lingvopragmatika, ijtimoiy status, deyktik ifoda

Keywords: Presupposition, implication, lingvopragmatics, social status, deictic expression

Ключевые слова: ресуппозиция, имплицит, лингвопрагматика, социальный статус, дейктическое выражение.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda bir qator metafanlar yuzaga keldi. Bunday yangi sohalar safida lingvopragmatika ham munosib o'rin egallab ulgurdi. Bugungi kunda mazkur yo'nalishda talaygina ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, bolalar nutqi pragmatikasi, ayol va erkakalar nutqidagi o'ziga xos pragmatik jihatlar, shuningdek, turli ilmiy va badiiy asarlarning lingvopragmatik tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy-publitsistik maqolalar, tadqiqotlar yaratilmoqdaki, bular o'z navbatida mazkur sohaning taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Tilshunosligimizdagi mazkur o'zgarishlar nafaqat fanimiz rivojiga, balki milliy tafakkurimiz taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda badiiy asarlarning lingvistik, lingvopoetik tadqiqiga bag'ishlangan monografik yo'nalishdagi tadqiqot ishlari ham yuzaga kelmoqda. Shular qatorida E.Vohidov asarlari turli tadqiqotlarda u yoki bu yo'nalishda o'rganilmoqda. Ammo shu kunga qadar ijodkorning "Oltin devor dramasi"ning pragmatik jihati tadqiq etilgan emas.

Ma'lumki, presuppozitsiya matnda yo'qolmaydigan, o'zgarmaydigan hodisa bo'lib, u asosan, gapda aks etgan asosiy propozitsiya ustiga quriladi va uni semantik jihatdan to'ldiradi[6:2008]. Presuppozitsiya orqali propozitsiyaning ifodalanishi natijasida gap semantik jihatdan murakkablashadi [1:2009]. M.Hakimov presuppozitsiya terminini "tagbilim" tushunchasi bilan ifoda etishga harakat qilgan. "Presuppozitsiya (tagbilim) ham, tagma'no ham lingvistik muammo ekanligi, shuningdek, matn semantik implikaturasining birliklari ekanligi bilan integral belgiga ega bo'ladi", deya e'tirof etgan[2:2001].

O'zbek tilida ayrim yuklamalar borki, ular gapda presuppozitsiyaga ishora qiladi. Jumladan, "Presuppozitsiya *ham* yuklamasi yordamida yuzaga keladi" [5:1994]. Masalan, "Oltin devor" dramasidan olingan quyidagi parchalarni tahlilga tortaylik:

Saidmalik – Bundan bir yil oldin sen bo'lmaganingda ikkita yo'lto'sarning qo'lida o'lib ketgan bo'lar edim. Mushtlashishga ham chakki emas ekansan-a?

("Oltin devor"*)*

Ma'lumki, *ham* yuklamasi ta'kid-kuchaytiruv ma'nosini ifodalovchi yordamchi so'z turkumi bo'lib, ushbu parchada esa *boshqa ishlar qatori mushtlashishni ham qoyillatarkansan*, mazmunidagi presuppozitsiyaning shakllanishiga xizmat qilib kelmoqda.

Abdusalom – juda ham to'g'ri qilgan ekanlar, rahmatli otam. Sening otang ham o'zingga o'xshagan judayam ayyor, tulki edi. Mana shu devorni olishda ham, rejani to'rt enlik beridan olganlar. Haliyam mana shu hovlingda to'rt enlik haqqim bor. ("Oltin devor"*)*

Mazkur parchada yashirin ifoda vositalaridan presuppozitsiya hamda tagma'no mavjud bo'lib, avvalo, *tulki* so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olishimiz lozim bo'ladi. Tulki aslida o'ta sezgir va ayyor, yirtqich sutemizuvchi hayvon bo'lib, ko'chma ma'noda o'ta ayyor odamga nisbatan ishlatiladi. Bu yerda leksik tagma'noni ifodalab, har qanday vaziyatlarda suvdan quruq chiqishga urinadigan, ishbilarmon, uddaburonlik ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan va *"otangning ayyorligi shu qadarki, hattoki devorni ham o'z manfaati yo'lida to'rt enlik beridan olgan"* mazmuni anglashilgan. Presuppozitsiya esa *sen juda ayyor, tulki odamsan. Otang ham xuddi sen kabi ayyor odam bo'lgan*. Ya'ni otasiga nisbatan salbiy munosabat orqali farzandining xususiyati ochib berilgan hamda salbiy baho mazmuni anglashilgan.

-mi so'roq yuklamasi yordamida tuzilgan ritorik gaplar vositasida ham presuppozitsiyaga ishora qilinadi. Bunday gaplar shaklan so'roq gap ko'rinishida bo'lsa-da, mazmunan inkorni ifodalaydi:

Bundan ko'ra qaro yerga kirsam bo'lmasmidi? ("Oltin devor")

Presuppozitsiya – *Bundan ko'ra qaro yerga kirsam bo'lardi*. Mazkur gapning kesimi shaklan bo'lishsiz ko'rinishda bo'lsa-da, lekin mazmunan bo'lishlilik ifodalangan. Qolaversa, *qaro yerga kirmoq* frazeologik ifodasidan so'zlovchi shaxsning boshiga tushgan kulfat shu qadarki, hattoki u tiriklar safidan chiqib, *ajalidan besh kun burun* boqiy dunyoga rixlat qilishga ham tayyor ekanligi, adresant ruhiy holatining zaifligi va, shuningdek, aynan milliy mentalitetimiz, e'tiqodimiz bilan bog'liq *uyat o'limdan qattiq* maqoliga hamohang inson or-nomusi, g'ururi, sha'ni kabi axloqiy masalalar ifodasi ham anglashiladi.

Abdusalom - Siznikida to'y qilib bo'ladimi? ("Oltin devor")

Presuppozitsiya – *Siznikida to'y qilib bo'lmaydi*. Shuningdek, bu parchada ellipsis hodisasi ham mavjudki, bu yerda *siznikida* ifodasi *sizning uyingizda* birikmasi shaklida bo'lishi lozim edi, lekin nutq vaziyati talabi bilan qaralmish ifoda tushirib qoldirilgan va buning natijasida mensimaslik munosabati yuzaga chiqqan.

Mo'min – Men jinnimanmi, o'g'lim, jinnimanmi? ("Oltin devor"*)*

Ritorik so'roq gap orqali "*Men jinni emasman*" presuppozitsiyasi ifodalangan. Qolaversa, *jinnimanmi* so'zini takror keltirish orqali ta'kid ma'nosi kuchaygan, yalinish munosabati yuzaga chiqqan.

Kim, nima so'roq olmoshlari ishtirokidagi ritorik gaplarda ham presuppozitsiya mavjud bo'ladi. So'roq olmoshlari ishtirokida tuzilgan bunday javob talab qilmas gaplarda so'roq olmoshi nimani anglatsa, u ishora qilgan ma'no alohida ta'kidlanadi, uning ta'sirchanligi kuchaytiriladi[3:2012]. Masalan, kim so'roq olmoshi ishtirok etgan so'roq gaplarda hamma yoki hech kim tushunchasi alohida ta'kidlanadi.

Mo'min - Mening o'g'limga kimlar qizini bermaydi? ("Oltin devor")

Mazkur ritorik so'roq gapi orqali *"Menga hamma qizini beradi*" presuppozitsiyasi ifodalangan. Bunday ritorik so'roq gapning kesimi inkor shaklda bo'lsa-da, gap mazmunan tasdiqni ifodalagan. Bu jumladan, shuningdek, *menga manaman deganlar qizini beradi, sen kim bo'libsan* mazmunidagi mensimaslik, suhbatdoshini pisand qilmaslik mazmuni ham anglashiladi.

Saidmalik – Men senga nima yomonlik qildim? ("Oltin devor")

Presuppozitsiya – men senga hech qanday yomonlik qilganim yo‘q. *Nima* so‘roq olmoshi vositasida *hech qanday* bo‘lishsizlik olmoshiga ishora qilingan. Bu yerda, shuningdek, so‘zlovchi shaxsning o‘zini oqlashga, vaziyatni yumshatishga harakati namoyon bo‘ladi va yalinish, xokisorlik mazmuni anglashiladi.

Shafoat – Nima men senga poyloqchimanmi? (“Oltin devor”)

Bu gapda *poyloqchi emasman* presuppozitsiyasi mavjud bo‘lib, *nima* so‘roq olmoshi orqali esa ta’kid ma’nosi kuchaytirilgan va suhbatdoshiga nisbatan mensimaslik, o‘zini katta olish kabi salbiy munosabat ifodalangan.

Faqat yuklamasi ham yashirin presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi vosita bo`lib, u o‘zi ajratib kelayotgan bo‘lakka yaqin bo‘lgan tushunchalarni zidlash orqali presuppozitsiyani hosil qiladi. Zidlashning tasdiq yoki inkor xarakterda bo‘lishi o‘zi ishtirok etayotgan gapning predikatiga bog‘liq bo‘ladi. Agar predikat tasdiq formada bo‘lsa, yashirin presuppozitsiya inkor xarakterda bo‘ladi” [5:1994].

Matlab - Hajga faqat halol mehnat bilan topilgan pul bo‘lishi kerak. (“Oltin devor”)

Ushbu gap ham shaklan tasdiq ko‘rinishida-da, lekin mazmunan *harom pul bilan hajga borilmaydi*, presuppozitsiyasiga ishora qilingan. Mantiqiy izchillik asosida tahlilga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, parchada tasdiq orqali inkor munosabatidagi presuppozitsiyaga ishora qilingan bo‘lsa-da, ammo presuppozitsiya anglatgan inkor mazmunidagi jumlada ham aslida tasdiq ma’nosiga ishora mavjud. Bunday badiiy mukammallik ijodkorning so`zdan foydalanishda naqadar sinchkov bo‘lganinl namoyon etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Erkin Vohidovning sermazmun va betakror ijodiyotini har turli yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa-da, yangi-yangi ma’nolar kashf etilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Davlatova R.H. Propozitsiya va uning o‘zbek tilida ifodalanishi. Filol.fanlari nomz…dis.avtoref. Toshkent, 2009.
2. Hakimov M. Tagma’no va tagbilim xususida ba’zi mulohazalar. // O‘TA. 2001, 1-son.
3. Maksumova S.S. Erkin Vohidov asrlarida konnotativlikning ifodalanishi. Filol.fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2012.
4. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi.Toshkent, 2001, 4-son.
5. Rahimov U.E. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. Filol. fanlari nomz…dis.avtoref–Samarqand,1994.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya.-Toshkent, 2008.
7. Vohidov E. “Oltin devor” komediyasi. **www.ziyouz.com** kutubxonasi.

Muhabbat YUSUPOVA,
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region, PhD;
Dilnoza ABDUKABIROVA,
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region,
Faculty of Tourism, Department of Foreign Languages and Literature (English)
a 2nd year master’s student

LINGUAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotatsiya. Frazeologik birliklar va idiomalarda til shakllanishining tarixiy belgilarini ko‘ramiz, til rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan madaniyat va ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini topamiz. Idiomalar asl xususiyatga ega; tarjima tilida analoglarni topish juda qiyin. Masalan, ingliz va o‘zbek frazeologiyasida sof milliy idiomalar bilan bir qatorda tarjimada tegishli ma’noni topishga yordam beruvchi ko‘plab xalqaro frazeologik birliklar va idiomalar mavjud. Ba’zi idiomalarda stilistik elementlar saqlanib qolgan bo‘lib, o‘tgan davrlar vakillari, davrning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: semantik, idiomalar, dominantlik, frazeologik birliklar, o‘ziga xos, jihatlar.

Annotation. In phraseological units and idioms, we see historical signs of language formation, find unique features of culture and education, which significantly influenced the development of language. Idioms have an original character; it is very difficult to find analogues in the language of translation. For example, along with purely national idioms in English and Uzbek phraseology, there are many international phraseological units and idioms that help to find appropriate meaning in translation. Some idioms retain stylistic elements – representatives of previous eras, reflecting the priorities of the time.

Keywords: semantic, idioms, dominance, phraseological units, unique, aspects.

Аннотация. Во фразеологизмах и идиомах мы видим исторические признаки формирования языка, находим уникальные черты культуры и образования, которые существенно повлияли на развитие языка. Идиомы имеют оригинальный характер; очень сложно найти аналоги в языке перевода. Например, наряду с чисто национальными идиомами в английской и узбекской фразеологии существует множество интернациональных фразеологизмов и идиом, помогающих найти соответствующее значение в переводе. Некоторые фразеологизмы сохраняют стилистические элементы - представители предшествующих эпох, отражающие приоритеты времени.

Ключевые слова: семантический, идиомы, доминантность, фразеологизмы, уникальный, аспекты.

The phraseological structure of the Uzbek and English languages is very various, but have similar meaning. The considerable part of it is made by units with national and thematic semantics. In the article, in comparative aspect, semantic properties of phraseological units of the Uzbek and English languages are considered. Concept is externalized with the help of various linguistic means referring to different linguistic levels. It can be expressed by words, derivatives, phraseological units, proverbs, aphorisms and even texts. For example, the concept *beauty* is represented by:

- lexical units: *beauty, charm, loveliness, handsomeness, attractiveness, prettiness, glamour;*

- word-formation units:

adjectives: *beautiful, charming, pretty, handsome, good-looking, lovely, gorgeous, attractive, exquisite, beauteous, radiant, enjoyable, captivating, alluring, superb, wonderful, fine, splendid, admirable, great;*

verbs: *to beautify, to adorn, to ornament, to glamorize, to grace, to decorate, to adorn, to garnish, to embroider, to fancy up;*

- phraseological units: *graceful as a swan, as pretty as picture, as handsome as a young Greek god, as handsome as paint, as shining as star;*

- proverbs and sayings: *beauty is a living thing; beautiful man creates beautiful things; beautiful man acts beautifully; good fame is better than a good face; a pretty girl, a heart of gall; handsome is as handsome does;*

- quotations and aphorisms: *All that's beautiful drifts away like the waters (W.B. Yeats); Beauty is all very well at first sight; but whoever looks at it when it has been in the house three days? (G.B. Shaw); Remember that the most beautiful things in the world are the most useless; peacocks and lilies for instance (J. Ruskin);*

- texts: a fragment of the text or the entire text (e.g. "Dorian Grey", "The Nightingale and the Rose" by O. Wilde).

One of the problematic areas in the concept theory is the concept structure. There are different views and approaches to this problem. Not going into details of this problem, we should stress that the majority of the researchers outline a three-level structure of the concept, including notional, imagery and axiological constituents of fields (S.G. Vorkachyov, Z.D. Popova, I.A. Sternin, V.I. Karasik, etc.)

The Uzbek language has developed a long history of the Republic of Uzbekistan. During this time, it collected a great number of phraseological units, which people found successful, interesting and still have used them. So there was a special section of linguistic phraseology, a set of stable expressions of independent importance. In order to talk further about this method of translation, we will give a definition of the phraseological equivalent. Phraseological equivalent is phraseologism in translation language, by all indicators equal to the translated unit. The mere affiliation of idiom with internationalism is not enough to ensure its correct translation. First, not all "international units" included in English are available in Uzbek. Secondly, despite the same path of translation – calculus, there are still minor formal differences between equivalents (phrase – complex word, sentence – non-sentence construction, different suffixation, etc.), and this sometimes makes the translator very difficult to find out analogues. For example, the Uzbek equivalent of *"qo'yniga qo'l solmoq"* is "to have a finger in every pie" in English – a translation of the sentence design (which is much more common in the Uzbek language). Third, although comparatively rare, equivalents may be greater than one and then the translator cannot automatically replace the unit with an equivalent.

The word formed in the meaning of a phraseological unit comes from the use of the word in whole or in part. For example, trying to understand someone's thoughts is like figuring out what it is. As a result, free combinations are combined to express other content that is similar to what is understood, and the device becomes an idiom. Or "having a finger in pie" as idiom phrase can see the same attitude. The same phraseological unit can be both composite and expressive. This phenomenon is quite common and occurs mainly by changing the proportion of the structure in phraseologism. For example, *"ko'nglini ko'tarmoq"* (in English "cheer") is a phraseologism with a built-in compound; but this does not happen in English because its meaning has changed radically: *She took great care of everything - took care of children.* From the above-mentioned examples, it is clear that the expression of a phraseological unit should take into account not only the lexemes contained therein, but also the morphemes of their presence as a permanent component of the phraseological unit. Because morphemes, along with lexemes, are the internal grammatical structure of idiom. Only parts that are added in connection with speech are not part of the plan of expression of the idiom. For example, *"shumliging o'zingning boshingga yetsin"* (let your ideas be in your head).

When you say that a phrase should be understood as a structure to express idiom, stylistic expression, lexemes and morphemes, this is added in connection with compound speech in phraseologism as a cross section, hence it is not included in the structure of expression of idiom.

The category of work is one of the basic cultural universals, which reflects the picture of each nation as a whole, and the linguistic picture of the national language in particulars. Comparison of language tools reflecting the universals of different languages will allow to compare language structures, as well as discover similarities and differences. This circumstance makes relevant the subject of our research work.

References

1. Мусаев К. Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода. – Ташкент: Укитувчи, 1980. – С. 90.
2. Кунин А.В. Английская фразеология. – Москва: Высшая школа, 1970. – С. 46.
3. Бушуй А.М. Язык и действительность. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 68.

Zulfiya BERDIEVA,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi,

XORIJIY ANTROPONIMLARNING DISKURSIV PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotasiya: *Ushbu maqolada xorijiy antroponimlarning diskursiv pragmatik xususiyatlari va uning hozirgi tilshunoslikdagi talqini lingvo-kulturemalar sifatida antroponimlar va iboralar, tildagi o'xshatish va metaforalarni tahlil va tadqiq qilishga harakat qilanadi. Xorijiy antroponimlarning hozirgi tilshunoslikdagi talqini semantik xususiyatiga ko'ra o'zaro adekvat (o'xshash), ularning mazmun, tashqi tuzilish, shakli pragmatik tadqiq qilinadi.*

Tayanch so'z va iboralar: *xorijiy antroponimlar, diskurs, pragmatik xususiyat, tilshunoslik, lingvokulturema, o'xshatish, metafora, semantik xususiyat, o'zaro adekvat, mazmun, tashqi tuzilish, shakl.*

Annotation. *This article aims to analyze and study anthroponyms and phrases, language analogies and metaphors as linguistic cultures, both discursive and pragmatic features of foreign anthroponyms, and their interpretation in modern linguistics. The interpretation of foreign anthroponyms in modern linguistics is mutually adequate (similar) in terms of semantic properties, their content, external structure, form are studied pragmatically.*

Keywords: *foreign anthroponyms, discourse, pragmatic attribute, linguistics, linguocultureme, analogy, metaphor, semantic attribute, mutual adequacy, content, external structure, form.*

Аннотация. *В данной статье ставится задача проанализировать и изучить антропонимы и словосочетания, языковые аналогии и метафоры как лингвокультуры, как дискурсивные, так и прагматические особенности иноязычных антропонимов, а также их интерпретацию в современной лингвистике. Толкование иноязычных антропонимов в современной лингвистике взаимно адекватно (сходно) по семантическим свойствам, их содержание, внешняя структура, форма изучаются прагматически.*

Ключевые слова: *иноязычные антропонимы, дискурс, прагматический признак, языкознание, лингвокультурема, аналогия, метафора, семантический признак, взаимная адекватность, содержание, внешняя структура, форма.*

Ma'lumki, zamonaviy tilshunoslikda antroponimlarning kommunikativ imkoniyatlari kognitiv tilshunoslik, diskurs tilshunosligi, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalingvistika, stilistika singari yo'nalishlarning asosiy tadqiq ob'ektiga aylandi. Ayniqsa, antroponimning o'z referenti bilan tilda, voqelanish paytida va nutqda o'zaro bog'lanishi asosida yuzaga keladigan konnotatsiyalarning pragmatik jihatlarini o'rganish nihoyatda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida globallashuv jarayoni bilan bog'liq madaniyatlararo muloqotda faollashadigan antroponim ma'nosining denotativ va konnotativ voqelanishiga ta'sir ko'rsatadigan pragmalingvistik omillarni o'rganish muammosi tobora dolzarblashib bormoqda. Antroponimlarning diskursiv-pragmatik xususiyatlarini yangi ilmiy-nazariy qarashlar va metodlarga tayangan holda tadqiq etish hamda bundan dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Antroponimik birliklar ingliz, nemis, rus, o'zbek tillari materialida ham maxsus tadqiqotlarning ob'ekti sifatida turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Masalan, ingliz antroponimikasida shaxs identikligi va pragmatikasi[1], antroponimlar yasalishining nominativ jihatlari va ingliz laqablarining milliy madaniy o'ziga xosligi[2], allyuziv va pretsedent antroponimlarning qo'llanishi[3] kabi mavzular tahlil qilingan. Nemis badiiy diskursida atoqli otlar kognitiv ma'nosining taraqqiyoti masalalari tavsiflangan[4].

O'zbek antroponimlarini lingvistik, tarixiy, etnosemantik, sotsiolingvistik nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ismlarning nominativ vazifasi, ism ma'nosi tushunchasi, ism berishda amal qilinadigan udum va odatlar, diniy ma'noli nomlarning bolaga berilish sabablari, ism berishda amal qilinuvchi totemistik va animistik e'tiqodlarga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan[5]. O'zbek ismlari, familiya va ota ismlari, laqablari va taxalluslari quruq yorliq bo'lmasdan, ma'lum ma'noga ega ekanligi haqida ham fikrlar bildirilgan[6]. O'zbek antroponimiyasi lug'aviy boyligining o'z qatlamini tashkil etgan ismlarning mazmuniy tasnifi va grammatik tuzilishi hamda mintaqaviy o'ziga xosligi masalalari tadqiqotchilarning e'tiboridan chetda qolmagan[7].

Antroponimlarni o'rganish jarayonida yuzaga kelgan asosiy muammolardan biri – bu ularning leksik ma'nosi bilan bog'liq muammodir. Bugungi kunga qadar qancha bahslar bo'lsa, shuncha fikrlar saqlanib qolmoqda. Antroponimik birliklarning ma'nosi muammosi bo'yicha fransuz va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni uchta asosiy guruhga – asemantiklik, ya'ni onimlarning ma'nosi yo'q degan nuqtai nazar, semantiklik, ya'ni onimlar keng ma'noga ega degan nuqtai nazar va ikkalasining ham xususiyatlarini birlashtirgan, go'yoki birinchi va ikkinchi nuqtai nazarlarni "yarashtiradigan" nuqtai nazarga ajaratish mumkin[8].

Antroponimlarning diskursiv-pragmatik tabiatini yoritish jarayoni, tabiiyki, antroponimlarda ma'noning mavjudligiga asoslanadi. Antroponim semantikasi apellyativ manosiga nisbatan kengroq deb hisoblaymiz. Atoqli ot lingvistik va ekstralingvistik komponentlardan tashkil topgan murakkab tuzilishga ega. SHu bilan birga, lingvistik komponent stilistik qiymatni ham, til va nutqda qo'llanish xususiyatlarini ham va boshqa elementlar-

ni ham o'z ichiga oladi. Ekstralingvistik komponent tarkibiga ismning murakkab assotsiatsiyalari, ism egasining mashhurlik darajasi, ism va uning egasi haqida ensiklopedik ma'lumot, ismning mafkuraviy yo'nalishi va boshqalar kiradi. Antroponim semantikasida uchta asosiy qismni ajratamiz: denotativ – denotat, ya'ni nomlashning tabiatini belgilaydigan predmet tur bilan o'zaro bog'lanadi; signifikativ – sinifikat, ya'ni bilvosita antroponimda mujassamlashgan tushuncha bilan o'zaro bog'lanadi; pragmatik – denotat haqidagi ob'ektiv axborot asosida vujudga keladigan cheksiz ko'p sub'ektiv qo'shimcha ma'nolar va assotsiatsiyalardan tashkil topadi. Masalan, François ismi: semantikaning denotativ komponenti - sub'ekt, erkak; signifikativ komponenti– tirik mavjudot, odam; pragmatik komponent – François Mittérand yoki Mauriac, yoki faqat adresantga ma'lum bo'lgan har qanday shaxs va u haqida barcha bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar[8].

Antroponimni o'z referenti bilan bog'laganda fransuz tili sohiblari tomonidan tan olingan belgilarni aks ettiradigan semalar tilda farqlanadi. Masalan: "ushbu ism bilan nomlangan", "jonli" (qiyoslang: Jules va Paris), "odam" (qiyoslang: Jules va Loulou (otning laqabi), "erkak jinsi/ 'ayol jinsi' (qiyoslang: Jules va Julienne), 'millati' (qiyoslang: Jules va Ivan), 'mintaqaviy mansublik' (qiyoslang: Julien va Juluan (ismning breton varianti) va ma'lum bir tarixiy davrga mansubligi' (qiyoslang: Jean va Guy (eskirgan ismlar ro'yxatiga kiradi). Ko'rsatilgan belgilarni signifikat tarkibiga ingerent rod semalari sifatida ('ushbu ism bilan nomlangan', 'jonli' va 'odam') va tur semalari sifatida ('erkak jinsi/'ayol jinsi', 'millati', 'hududiy mansubligi', 'ma'lum bir tarixiy davrga mansubligi') kiritish mumkin. Bunday semalar ma'no farqlaydigan semalar bo'lmasdan, ismlarning ichki tasnifini amalga oshirish va kichik guruhlarga ajratish imkonini beradi. Fransuz tilida konnotatni barcha antroponimlarda ham bevosita ajratib bo'lmaydi, chunki konnotat ingerent semalar bilan (masalan, ayol ismlarida "zaiflik" semasi) va til sohiblari tomonidan tushuniladigan qo'shimcha assotsiatsiyalar bilan (masalan, Pierrot, Margo kichraytirish-erkalash ismlari holatida) bog'langan afferent konnotativ semalar bilan bog'liq holda shakllanadi[8].

Fransuz antroponimlarining muayyan konnotativ to'yinganligini adekvat idrok etish uchun ism referentining mantiqiy ma'nosini o'zlashtirishning o'zi etarli bo'lmaydi. Bu jarayonda, kamida, konnotatsiyaga xos bo'lgan ushbu tarkibiy qismlarning semantik mohiyatini bir-biridan farqlash talab etiladi. Ishda antroponimning hissiyotliligi so'zlovchining tinglovchiga nisbatan hissiy munosabatini ifoda etish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Baholash ism referentiga nisbatan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatni bildirish maqsadida antroponim shaklining ma'lum bir variantini tanlashni nazarda tutadi. Ekspressivlik ma'lum bir sifatning namoyon bo'lish me'yorini, darajasini ko'rsatadi. Stilistik qaydlov antroponim referentiga nisbatan so'zlovchining munosabati implitsit tarzda ifodalangan ushbu kommunikativ muhitda antroponimik birlikni qo'llash maqsadga muvofiq emasligidan dalolat beradi. Umuman, antroponimik birliklarning konnotatsiyasi, o'z tabiati bo'yicha, semantikaning o'ta murakkab makrokomponenti bo'lib, ekspressiv bo'yoqdorlik tabiati bilan ajralib turadi.

Lingvopragmatik nuqtai nazardan, diskurs o'z-o'zini rivojlantiradigan tizim bo'lib, uning muhim tarkibiy qismlaridan biri ijtimoiy yo'naltirilgan va kommunikativ faoliyat bilan shartlangan, ijtimoiy-vaziyatli va madaniy-tarixiy tavsiflarga ega matndir; tuzilishi nuqtai nazaridan, diskurs muayyan mavzu va umumiy muloqot matnlarining majmui orqali taqdim etilgan, bunda diskurs tizimiga kiradigan har bir aniq matnning ma'nosi uni tashkil qiladigan til birliklari ma'nolarining yig'indisi bo'lmasdan, har bir muallifning niyati va ekstralingvistik fon bilan murakkablashgan kengroq hosila sifatida namoyon bo'ladi.

Diskursga oid mohiyatan to'liq tushunchani G.Toirovaning "Pragmalingvistika" lug'atidan o'qiymiz: "Diskurs - (fikr almashtirish, nutqiy muloqot) so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro suhbat, savolga yarasha javob berish. Muloqot jarayonida so'zlovchi (diskurs nazariyasida bu kommunikator deb ataladi) tinglovchiga (adresatga) o'z nutqi yoki muloqot jarayoni orqali o'zini tanishtiradi. Diskurs fikrni bayon qilish jarayoni, lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og'zaki shakli moddiy voqelanishi, lisoniy va nolisoniy vositalarning birgalikda ishlatilishi, lingvo-etno-psixo-situatsion omillar majmui. Diskurs turli lisoniy va nolisoniy omillar butunligidan hosil bo'lgan o'ziga xos murakkab bir tizim, sistemadir. Diskurs lisonning yaratuvchanlik sohasi (namunasi), o'z navbatida, tug'ilgan g'oya, kommunikativ maqsad (intensiya) natijasidir. Diskurs matnga nisbatan nomoddiy ob'ekt sanaladi"[9.b-9].

Demak, diskurs tematik, semantik, xronologik, tipologik jihatdan bog'langan, muayyan muloqot sohasiga tegishli va tarixiy, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa kontekstlarga kiritilgan matnlar to'plami sifatida ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari antroponimika fani ismlarning inson yoshi, ijtimoiy yoki oilaviy holati o'zgarishi, boshqa millatga mansub kishilar bilan yashash jarayonida, mahfiy guruhlar a'zosiga aylanish oqibatida va boshqa holatlar bilan botliq holatda yuzaga keladigan o'zgarish xolatlarini tadqiq qiladi.

Nemis tilida onimlar sifatida shaxs imlari (ba'zan familiyalar ham) va joy nomlari keng ko'llaniladi. Asosan shaxs ismlari frazeologizmlarning tarkibiy qismi sifatida ishtirok etadi, familiyalar qatnashgan frazeologizmlarlar juda kam uchraydi *(rangehen wie Blucher, etwas aus Daffke tun, aussehen wie bei Hempels unterm Sofa [10].*

Frazeologizmlar tarkibidagi antroponimlarni mufassal tadqiq qilish davomida muhim tendensiyaga duch kelinadi: ularning tarkibida ko'llanilgan ismlar xalq orasida keng tarqalgan bo'lgan va ular ishtirok etgan turla - tuman semantik ma'noni ifodalaydigan bir qator frazeologik birliklar paydo bo'lgan. Masalan: ***Hans* ismi**: *Hans im Gluck, Hans Hasenfufi, dummer Hans, Hanzwurst, der blanke Hans, Hans Immerdurst* usw.

***Heinrich ism**i - der flotte Heinrich, sanfter Heinrich, blauer Heinrich, den muden Heinrich spielen;*

***Pete**r ismi - langsamer Peter, langweiliger Peter, jemandem den Schwarzen Peter zuschieben, den Schwarzen Peter auf den Tisch legen, jemandem den*

Schwarzen Peter in die Schuhe schieben, ein wichtiger Peter;

Maria *- Maria Empfdngnis, dicke Maria, linke Maria usw[10].*

Ma'lum xususiyat yoki fe'l-atvorga ega bulgan kishilarni obrazli tasvirlash maqsadida frazeologik birliklar tarkibida antroponimlardan foydalaniladi va ularning aksariyati tarixda yashab o'tgan taniqli shaxslar yoki mifologik ismlar yoki nemis millatiga xos bo'lgan ismlarini aks ettiradi. Frazeologizmlarning tarkibiy qismi bo'lib kelgan ismlar atoqlilik xususiyatini saqlab qolishi yoki yo'qotishi mumkin. Atoqlilik xususiyatini yo'qotmagan frazeologizmlar o'xshatish vazifasinin bajaradi. Aks jarayonda antroponimlar shaxsiy xususiyatlarni ifodalamay turdosh otga ishora qiladi va bu jarayon deonimizatsiya hodisasi deb ataladi. Deonimizatsiya bo'lgan frazalogik birliklar strukturasi sifatli aniklovchili so'z birikma shakliga ega bo'lib, semantik jixatdan shaxsni emas balki predmetni ifodalab keladi:

Sifat+ism: falscher Wilhelm *(=falscher Zopf),* grune Minna *(=Transportwagen der Polizei),* der flotte Heinrich *(=Durchfall),* der alte Gottfried (=der Schlafrock, der Morgenrock) *[8, 5-b].*

Keltirilgan so'z birikmalarning ko'chma ma'nolari boshqa dennotatlarni ifodalamokda. Masalan Wilhelm ismi falscher Wilhelm iborasida aniq bir shaxsga emas, balki bir predmet - ulama sochga, grune Minna iborasidagi Minna ismi esa ayol kishiga emas, balki politsiya xodimlarining transport vositasiga ishora kilishini kuzatish mumkin.

Antroponimlar ishtirok etgan ba'zi frazeologik birliklarning semantikasini talqin qilishda ular bilan birga qo'llanilgan sifatlar tayanch vazifani bajaradi va ular yordamida frazeologizm anglatgan ma'noni tushunish mumkin (langsamer Peter, dummer Hans). Biroq aksariyat antroponimik komponentli frazeologizmlarning ma'nosini tushunish uchun lug'atlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda deyarli har qanday so'z bola uchun ism sifatida tanlanishi mumkin. Va ba'zan ota-onalar be'manilik borasida haddidan oshirib yuboradilar: masalan, Maykrosoft (Microsoft) vitse - prezidentlaridan biri Bill Simser Windows Vista va kod nomi Windows Presentation Foundationning kod nomi – Avalon sharafiga o'z qizini Vista Avalon, deb nomladi. Fotomodel Spontanies Gtantning ismi —spontaneous delivery (erkin turlar)‖ tibbièt atamasidan kelib chiqqan: o'z vaqtida qizning onasini tug'ruqxonaga olib borishga ulgurmaydilar va tug'ruq to'gridan-to'g'ri mashinada boshlanadi. Rejissèr Kevin Smit esa yangi tug'ilgan qizchasiga Betmen haqidagi komiks qahramonlaridan biri sharafiga - Xarli Kvinn ismini berdi*[11, 116-b].*.

Ism variantlari nutqiy muloqotda masofani o'zgartirishning eng muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi, ya'ni ular rasmiy muloqatdan neytral muloqotga, keyin do'stona, samimiy va hokazo muloqotga o'tishga yordam beradi. Aynan antroponimlar kamsituvchi, tahqirlovchi (suhbatdoshni pastga uradigan), ko'klarga ko'taradigan, meliorativ (suhbatdoshni ulug'laydigan), betakalluf (suhbatdoshni "o'ziniki" qiladigan), begonalashtiradigan (suhbatdoshni begona qiladigan va hokazo) kabi turli xil lisoniy strategiyalarni ta'minlaydigan lisoniy birliklar vazifasini bajaradi.

Diskurs vaziyati antroponimik birliklarda maxsus ma'nolar, assotsiatsiyalar, tushunchalar tizimi bilan bog'langan o'ziga xos aloqalarni hosil qiladi. Bunday aloqalar natijasida antroponim referenti, birlamchi semiozisda shakllangan signifikativ ma'noga qo'shimcha ravishda, ushbu muloqot aktining o'ziga xosligini aks ettiradigan qo'shimcha ma'nolar bilan boyitiladi. Muayyan diskursda qo'llangan ismning semantikasi alohida olingan ismning ma'nosidan tubdan farq qiladi. Antroponimning diskurs vaziyatlarida voqelangan referentlarini aniqlashtirish ushbu tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Diskurs vaziyatlari va turlari ism referentlarini oydinlashtirish va ular haqida yangi ma'lumotlar olish manbasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gardiner, A. The Theory of Proper Names. Oxford U.P., 1954. – 76 p.; Гарагуля С. И. Антропонимическая прагматика и идентичность индивида (опыт системного описания личных имен в США): Автореф. ... дис. дра филол. наук. М., 2009. - 42 с.

2. Шокина И. М. Словообразовательная номинация на базе антропонимов в современном английском языке: Дис. ... канд. филол. наук. М., 2006. - 261 с.; Цепкова А.В. Национально-культурная специфика прозвищ (на материале англоязычного интернет-дискурса): Автореф. ... дис. канд. филол. наук. Иркутск, 2011. - 24 с.

3. Наумова Т. М. Аллюзивные и прецедентные антропонимы в составе британского лингвокультурного концепта beauty // Филологические науки. Вопросы теории и практики (входит в перечень ВАК) 2017. № 10. Ч. 1.С. -151-154; Псеунова Б.Х. Антропонимы в современном американском молодёжном сленге (психолингвистический анализ): Автореф. ... дис. канд. филол. наук. М., 2011. - 24 с

4. Чикаткова Ю. А. Развитие когнитивного значения имен собственных, восходящих к немецкому фольклору, в немецкоязычном художественном дискурсе : автореф.... дис. канд. филол. наук. Самара, 2010. - 23 с.

5. Begmatov E. Ism chiroyi. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1994.; Begmatov E. O'ebek ismlari ma'nosi.Toshkent: O'zME nashriyoti, 1998. - 608; Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2013. – 264 b.

6. Nosirov O'. O'zbek tilidagi kishi nomlari haqida ba'zi mulohazalar // Ilmiy asarlar. Qarshi-Toshkent, 1965. – 194-197 betlar.

7. Sattorov G. H. O'zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fan. nomz.... dis. avtoreferati. Toshkent, 1990. – 19 b.; Rahimov S. Xorazm mintaqavpy antroponimnyasi: Filol. fan. nom. ... dis. Toshkent, 1998.

8. Kamolova S.J. Fransuz antroponimlarining diskursivpragmatik tavsifi 10.00.04 – Evropa, amerika va avstraliya xalqlari tili va adabiyoti. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand – 2020.

9. Toirova G. "Pragmalingvistika" lug'ati. – Toshkent: «Akademnashr» 2016 y. 9 b.

10. Hartman A. Arthur, Robert C. Nicolay and Jesse Hurley. "Unique Personal Names as a Social Adjustment Factor." Journal of Social Psychology 75 (1968): 107-110

11. Ibrohimova D.T. Ingliz tilida shaxs nomlari motivatsiyasi. Xorijiy filologiya №3, 2019 yil,

Nilufar TOSHPO'LATOVA,
'MU Jurnalistika fakulteti Lingvistika (o'zbek tili)yo'nalishi 2-bosqich magistranti

BADIIY MATNNING PSIXOLINGVISTI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. O'quvchining badiiy asarga o'z munosabatini bildirishi bevosita badiiy asarni o'qish orqali hosil bo'lgan hissiyotlariga tayanadi. Ushbu maqolada esa badiiy matnning psixolingvistik xususiyatlari tahlili qisqacha berilgan. Maqolada til va tafakkurning o'zaro munosabati, bu aloqadorlikning badiiy asar nutqida ifoda etilishi, til birliklarining aktuallashuviga sabab tug'diruvchi omillar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, matn, hissiy ifoda, assotsiativ so'zlar, perifraza

The student's response to a work of art is based directly on the feelings he or she receives from reading the work of art. This article provides a brief analysis of the psycholinguistic features of a literary text. The article discusses the relationship between language and thought, the expression of this connection in the speech of a work of art, the factors that lead to the actualization of language units.

Keywords: psycholinguistics, text, emotional expression, associative words, periphrasis

Аннотация. Реакция ученика на произведение искусства основана непосредственно на чувствах, которые он или она испытывает при чтении произведения искусства. В данной статье проводится краткий анализ психолингвистических особенностей художественного текста. В статье рассматриваются отношения между языком и мыслью, выражение этой связи в речи художественного произведения, факторы, приводящие к актуализации языковых единиц.

Ключевые слова: психолингвистика, текст, эмоциональное выражение, ассоциативные слова, перифразы

Badiiy matnni lingvopoetik tomondan tahlil etgan professor. N. Mahmudov quyidagicha fikr bildiradi: *"Tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, Esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli "tilga" baravarlashtirishdan boshqa narsa emas. Xolbuki, odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi".*

Zamonaviy o'zbek tili eksprissiv bo'yoqdor so'zlarga boy bo'lib, fikrni berishda jimjimadorlikka erishish mumkin. Eksprissiv va jimjimador so'zlarning borligi esa uni ifodalovchi shaxs ruhiyatining o'z-o'zidan ochilishiga yordam beradi. O'z asarlarida shaxs ruhiy holatini juda katta mahorat bilan tasvirlagan ijodkorlardan biri Ulug'bek Hamdamdir. Ulug'bek Hamdam asarlarida zamonamiz kishilarining ma'naviy-axloqiy qarashlari, inson va uning taqdiriga bo'lgan munosabatlar, shaxsning ichki ruhiyatining tasvirlanishi psixolingvistik nuqtai nazardan ham ahamiyatlidir.

D.Xudoyberganovaning "Matnning antroposentrik tadqiqi" nomli monografiyasinining 3-bobi "O'zbek tilidagi matnlarining psixolingvistik xususiyatlari"ga bag'ishlangan bo'lib, matnning psixolingvistik tahlili ma'lum bir me'yorda ifodalangan. Monografiyada matnda hissiy ifodalarning ifodalanishi, perifrastik birliklarning qo'llanishi va assotsiativ so'zlar haqidagi fikrlar diqqatga sazovar. Monografiyada hissiy ifodaning ikki usul vositasida yuzaga keltirilishi haqida ma'lumot beriladi (D.Xudoyberganovaning "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiya. V.P.Belyanin fikrlari asosida.)

Bular:

a) asar personajlarining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi;

b) personaj kechinmalari asar muallifining nutqi vositasida anglashiladi (Misollar Ulug'bek Hamdam asarlaridan).

1) asar personajlarining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi: — *Siz mendan o'ch oldingiz, Manzura,… — axir, siz qilgan ish hazil emas, men bilan maslahatlashsangiz bo'lardi. Meni odam o'rnida ko'rmay… Bilmadim, qay tarzda qo'l qo'ydirgansizlar. Nahotki shunga botindingiz? Nahotki, shundan keyin ham mening qarshimda o'tirishga, ko'zimga tik qarashga jur'at qilyapsiz?*

2) personaj kechinmalari asar muallifining nutqi vositasida anglashiladi.

a) personajning ruhiy holati muallif tomonida bevosita bayon qilinadi: *Yusuf qiynalib bo'lsa ham birinchi qadamni qo'ygandi va ko'nglida o'zidan mamnunlik, qoniqish hislarini sezardi. Albatta, bu unga Mirazim oldida o'zini gunohkor deb his etmasligi uchun yetarli emasdi, lekin Yusuf o'z aybini yuvish yo'lida nimadir qila oldiku. Yuva olmagan taqdirda ham chek qo'ya bildiku!.. Demak, u atrofdagi talato'plar bois boy bergan o'z muvozanatini qaytadan qo'lga kiritishga umid bog'lashi mumkin. Yusuf negadir o'zini katta bir kuchga qo'shilayotgandek, o'zini ko'pchilik bilan birga his qildi. Holbuki, so'qqabosh edi, yolg'iz yashardi…*

b) personajning jismoniy hatti-harakatini ifodalash orqali ruhiy holatni bayon qilish: *Qor yoqqandan*

— yog'ar, deraza oldida turgan bola — Yusufning quvonchi ichiga sig'may ***tipirchilar****, onasidan qachon tong otishini tinimsiz so'rar va Halima ayaning javobidan qanoatlanmay, taburetka ustiga chiqib olib, quyosh chiqadigan – Ulug'tog' tomonga javdiragani-javdiragan edi.* Bu matndagi ***tipirchilar****,* ***javdiragani-javdiragan*** fe'llari emotsiyalarning tovushdagi ifodalanish asosida muallif personaj ruhiy holatini bermoqda.

c) tabiat tasvirini berish orqali personaj ruhiy holati bayonini berish: *Bahor. Kunlar iliq, esayotgan shabadalar iliq. Shunday bir illiqlikki, o'sib-unmoqqa, Kulib-yayramoqqa undaydi. Ayniqsa, aprelda, daraxtalar rango-rang: yashil, oq pushti, binafshatus …libos kiyganda. U guldan-bu gulga asalarilar g'ong'illashib uchib yurganda, atrofni muattar bo'y, xushmanzara bosib ketganda. Butun olamda ulug'vor ko'tarilish, hayot deb atalmish ma'noni o'zida jamlab, yangi kuch, yangi g'ayrat, yangi umid va yangi hayajonlar bilan oldinga talpinish yuz berganda… Zahroning qalbida ham ana shunday ko'tarinki tuyg'ular junbishi tinmaydi…*

Inson ichki ruhiyatini aks ettirishda ruhiy holat ifodalovchi fe'llar o'ziga xos o'rin tutadi. Ruhiy holatni aks ettiruvchi fe'llarning quyidagi turlarini farqlaydi:

1) nutqiy muloqot jarayonida so'zlovchining ruhiy holatini beruvchi fe'llar;

2) emotsiyalarning tovushdagi ifodalanishi asosidagi fe'llar.

Bu kabi fe'llarni badiiy asarlarda , jumladan Ulug'bek Hamdam asarlarida ham uchratish mumkin. Masalan, *Yusufning hafsalasi pir bo'lganidek bir zum* ***kalovlanib*** *turdi-da, so'ng yana qor kechishda davom etdi. A'zam aka bilinar-bilinar* ***qizarib****,o'tirgan o'rnidan bir qimirlabolgancha yana nimadir demoqchi bo'luvdi, Muhammadjon aka "Keyin" degandek qo'l ishorasi qildi.* Bu matnlardagi ***kalovlanib, qizarib*** fe'llari so'zlovchi emotsiyasining tovushdagi ifodalanishi. Bu fe'llar vositasida personaj ruhiy holati haqida ma'lumot berilyapti.

O'zbek tilidagi tovushga hamda holatga taqlid so'zlar asosida yuzaga kelgan ayrim fe'llar ham inson ruhiy holatini ifoda etish uchun xizmat qiladi. *Muhammadjon aka uyda doimo bo'yniga dumaloqlab tashlab yuradigan durrasi uchi bilan ko'zlarini tezgina artib olib, yana maromdagi ohangga ko'chdi, — men o'lgandan keyin … — endi davradagilarning yuragi* ***shuvillab*** *ketdi, chog'i, hamma sarosima ichida bir-birlariga qarab chiqdi, -- men o'lgandan keyin mana shu hovli-joyim farzandlarimga qoladi!..* Bunda ***shuv-shuv*** tovushga taqlid so'zdan ***shuvillamoq*** fe'li hosil bo'lib, matnda insonda kutilmagan kayfiyatnig paydo bo'lishi, vasvasaga tushib qolishi holati aks etmoqda. Yoki :

O'chir! — u qo'lini musht qilib shunday ***dag'daga*** *qildiki, o'rnidan turib, og'zidan ko'pigi sachrab akillay boshlagan A'zam akaning tizzasiga* ***qaltiroq*** *kirib, qanday bukilganini va joyiga chirib tushgan olmadek* ***"po'killab"*** *tushganini bilmay ham qoldi. — Muhammadjon aka vajohatli nigohiniyana bir muddat uni o'chib* ***shalvirab*** *qolgan qaynog'asi A'zam akaga tikib turdi-da , so'ng hovuri birpas chiqqach o'g'liga qarab, — davom et, bolam, — deya o'rniga cho'karkan, chap ko'ksini ushlab qo'ydi…*

Ushbu berilgan parchalarda ham holatga taqlid so'zdan yasalgan fe'l orqali hissiy ifodalar ochib berilgan. Shbu matnlardagi fe'llarda aks etgan harakatning tovushlar va holat bilan bog'langan holda yuz berishi va taqlid so'zlarning ishtiroki inson ichki olamini yorqinroq yuzaga chiqarishga yordam bergan.

Badiiy matnni o'qish jarayonida o'quvchichining ruhiyatida muayyan psixologik holatni yuzaga keltirishda assotsiativ so'zlarning ham o'ziga xos o'rni bor. Psixologik jihatdan o'zaro aloqador bo'lgan so'zlar assotsiativ so'zlar deyiladi. Assotsiativ so'zlarning matnda mahorat bilan qo'llanilishi o'quvchining ushbu asar ruhiyatini to'la anglab olishini ta'minlaydi.

Ulug'bek Hamdam asarlarida ham personajlar ruhiy holatini ochib berishda assotsiativ so'zlardan unumli foydalanilgan:

A.ning ***o'pkasi to'ldi****, ich-ichidan alamli* ***xo'rsiniq*** *otilib chiqdiyu zum o'tmay unsiz* ***yig'iga****, yig'i esa zo'r* ***ichikishga*** *aylandi... («Unutilgan nay navosi»* tush*hikoyasi.)* ***o'pkasi to'ldi, xo'rsiniq, yig'iga, ichikishga*** assotsiativ so'zlari personaj ruhiy holatini ochib berilgan. O'quvchi asarni o'qish jaroyonida ushbu assotsiativ so'zlar ta'sirida personaj ruhiy holati bilan bir xil kayfiyatni his qiladi. ***Ummon*** *vazmin chayqaladi. Cheksiz masofalar o'z qa'riga sir yashirgan yanglig' uzangan: ular bir vaqtning o'zida ham o'z bag'riga chorlaydi, ham o'zidan itaradi. Hozir esa* ***suv*** *yuzasini qalin* ***oqish tuman*** *qoplagani bois* ***qayiqdan*** *turib qaralganda burun ostinigina ko'z ilg'aydi: ikki quloch narida nima bor, koshki bilib bo'lsa...*

Yuqoridagi matndan ko'rinadinadiki, uning tarkibida qo'llangan *ummon, suv, oqish tuman, qayiq, baliq,* so'zlari dengiz tasvirini ifodalash bilan birgalikda o'quvchining hayolida ham go'zal tabiat tasvirini paydo qiladi. O'quvchi hikoyani o'qish barobarida o'zinini ummon bag'rida ham tasavvur qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ulug'bek Hamdam asarlarida inson ruhiy holatini chizishda hissiy ifodalarning ifodalanishi ko'pgina holatlarda muallif nutqi vositasida berilgan. Ruhiy holat fe'llari, perifrastik va assotsiativ so'zlarning qo'llanishi kammmunikativ aktning to'la yuzaga chiqishiga yordam bergan. Ulug'bek Hamdamning xoh kichik hikoyasini, xoh yirik romanlarini olmaylik ularda personajlarning ruhiy holati lingvistik vositalar yordamida mahorat bilan ochib berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. d-ri…dis…-Toshklent: O'zR FA TAI, 2009. 104b.
2. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, 2013, 63b
3. Azimova.I.A. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. –T.:O'zMU, 2008
4. U.Hamdam. Muvozanat. "Sharq", T.:2007
5. WWW.Ziyo.uz materiallari

Munisa KURBANOVA,
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, a teacher at the Department of Learning Languages

INTERACTIVE METHODS AND THEIR USAGE

Annotatsiya. Tadqiqotning maqsadi darsni samarali tashkil etish va o'quvchilarni o'quv jarayoniga teng ravishda jalb etishda qo'llaniladigan interfaol usullarning ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, eng ko'p qo'llaniladigan o'qitish va muammoli masalalarni yechish usullari va ularning qo'llanilishini yoritishdan iborat.

Kalit so'zlar: o'qitishning interfaol usullari, davra suhbati, ishbilarmonlik o'yinlari, tanlangan muhokama (trening), muammoli yechimlar, vazifalar.

Annotation. The aim of the research is to explain the importance of interactive methods used to effectively organize lessons and equally involve students in the learning process, as well as to cover the most commonly used training and problem-solving methods and their applications.

Keywords: interactive teaching methods, round table, business games, selective discussion (training), problem-solving solutions, tasks.

Аннотация. Цель исследования – объяснить важность интерактивных методов, используемых для эффективной организации урока и равноправного вовлечения учащихся в учебный процесс, а также охватить наиболее часто используемые методы обучения и решения задач и их приложения.

Ключевые слова: интерактивные методы обучения, круглый стол, деловые игры, Выборочная дискуссия (тренинг), решения проблем, задачи.

The pedagogical and philological cycle of sciences currently being developed in Uzbekistan is faced with the tasks of intensifying the search for the foundations of new didactics, vocabulary, text theory, translation studies, etc. [1] In this regard, the President of the Republic of Uzbekistan I.A.Karimov posed such an extremely important problem at the ninth session of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan (on 29 August 1997): "We need to quickly prepare a methodology for accelerating the study of foreign languages based on national features". [2: 312]

In order to comprehensively resolve such a major problem, it is necessary to intensify research in priority areas of philology and pedagogy. In linguistics, the issue of occasional words as a special topic began to be paid attention relatively recently, obviously due to the anomalous nature of this phenomenon, although various authors' word usage has always attracted the attention of researchers. Teaching based on attitudes and movements of learning activities is called interactive teaching method. An important role is played by the student and the teacher, who do not read as a separate subject, but work together with the group, and discuss issues with each other.

In the research process, we used analysis, synthesis methods (in order to highlight the importance of using interactive methods in the organization of lessons and to identify the most effective, and therefore widely used types of newly introduced interactive methods). We also use the classification method (to explain the importance and types of interactive methods introduced and recommended by scientists in the examples and the lessons and tasks that need to be considered in the lesson). Induction and deduction methods have also been used partly.

Known as interactive methods, they are teaching methods by encouraging students [3] and participants in the learning process to be active.

Another method of interactive teaching students is training. We did not know about this new method of teaching for a long time, yet in the West it was organized in small groups in order to directly carry out methodological work and spread as a method of organizing special attitudes. [4] It is not a new way of teaching many sciences, and it is not even now. Indeed, in some higher education institutions, training in the teaching of social sciences has begun to be used to shape the processes of collaborative activity in practical training. It is instructive in various situations that arise in training groups and, in this sense, is seen as a completely real situation for students and they must act responsibly on the outcome of their activities. A sense of responsibility is especially important when starting an activity. Not only should students be able to move forward on their own, which is helpful in individual teaching, even in the free discussion of group teaching, but moving forward with group partners is the key to the success of every action – the success of the whole group activity.

This aspect of training is similar to business games which requires participants a strong sense of responsibility from each other, but the difference between the teaching methods is obvious. It serves to teach practical application, as well as to study theory in practice.

The use of group training in the teaching of social sciences is not in vain, because the whole structure of theoretical laws is devoted to intergroup and intra-group relations, it is difficult to better understand and master them in the group form of practical training, because the theoretical state of science is studied. In other methods, especially in higher education institutions, which are formed in the form of lectures, the teaching of sciences in the traditional academic way and the practical application of methodological technologies in students in the same academic knowledge does not fully meet modern requirements. Owners of a number of professions should pay special attention to the organizational components when working with the method of training, especially in military academies. Regular use of the training method does not always fit into the plan. And this can be explained by the following situations:

- training on this method is a difficult process and time consuming;
- it is always a difficult process for a teacher to understand which problems of social science should be brought to group training. [5: 180]

The following preparation process is available for the training method:

- working on the training plan;
- working with students to ensure their active participation in the search for a solution to the problem (usually related to asking questions in advance on the topic);
- teachers work on themselves, how to behave, ask questions and respond to discussions;
- dramatizing the disputed situation or arranging an agreement between the parties;
- anticipating situations in which group members may or may not be able to answer questions;
- understanding when and how the group will react to a wrong decision and what general conclusions should be drawn;
- how student activity will be assessed during the training;
- proper distribution of roles, and awarding the most active participant in the training with a prize (evaluation with good grades). [5]

The training method, in simple terms, is not to acquire any skills, but to improve students' skills through the establishment of active and goal-oriented social relations, as well as formation of groups as an object of social science. The importance of group training as a teaching method is a factor that transforms students into such a collaborative activity model in which a group of ordinary students has the appearance of a social process. [6: 5–6] Therefore, social training can be considered as an aid in socially practical teaching formed in theory. If the business method is to teach practical activities arising from theory, the training is explained by the fact that it focuses on teaching theory based on practical situations.

The most common and one of the most widely used interactive methods in the modern educational process, is the "problem-solving game method". [7] There are similarities between this method and the business game method, in which students are given critical images of professionals in a specific subject, and students need to solve problems with critical analysis by accessing these images. The "problem situation game" is selected based on the lesson plan topic, where the participants are divided into groups, and given specific problem situations in the form of questions in order to reinforce the topic-based terminology and develop their knowledge in terms of thinking. The group participants analyse the question together and distribute the images independently, emphasizing the speech activity and responding by showing the solution of the situation. For example, in the process of learning foreign languages, one of the social sciences, military students learn military terms in English, the terms are structured on the same topic, and the analysis is explained on the basis of real events. Through this game, students will be able to understand these terms in their minds and solve problems that may occur in social life, as well as problems related to the military and their behaviour. Using it in speech activities through live performances and role-playing helps students to form in their minds the knowledge they have learned about the subject. And because it is an interactive method, it encourages them to be highly active, and even a passive student in the class will make a purposeful effort to voluntarily lead the group. Such activity is based not only on physical and verbal movements, but also has a positive effect on the speed of mental movement in the process of analysing problems quickly.

All the time, any psychological and pedagogical factors [7] influenced by such essential factors encourage one to express an opinion that is similar, close, or, conversely, completely opposite to that expressed by others. Such lessons require a lot of creativity and activity from the teacher. A lesson in the form of telling what they have read from a book that is known in advance or that requires a lot of creativity and activity is passive. These are described as the traditional method. However, the interactive method, which is an unusual method, has a particularly good effect not only in education but also in upbringing. The participation of teachers in student competition may vary. But in any case, they should not let themselves down. It is best to manage a well-thought-out debate in a way that requires productive thinking and a creative quest to find a solution by asking problematic questions. Teachers express an opinion from their point of view only by proving and drawing conclusions from students' opinion and refuting erroneous ideas. In this way, in the debate not only intellectual content – knowledge, but also theoretical questions can be asked. In addition, the teacher can create productive activities in collaboration with students, transforming learning activities into an educational process with their impact on the individuality of students.

When thinking about interactive teaching methods in the modern and effective organization of the lesson, teachers should always keep in mind that the teaching methods discussed above are expressed with specific examples and evidence. In addition, the use of these methods in the classroom allows students to consciously and effectively acquire knowledge, skills and abilities, as well as to have factors that increase team activity.

References

1. National Program for Personnel Training. – Tashkent, 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent, 1998.
3. Akbarova Sh.A. Interactive methods of teaching // http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar/
4. Badmayev M. Methods of teaching psychology. – Moscow: Vlados, 2001.
5. Abdukodirov A.A., Ishmukhamedov R., Pardaev A. Innovative technologies in education (practical recommendations for teachers of educational institutions). – Tashkent: Iste'dod, 2008.
6. Turdiev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Educational technologies aimed at developing students' competencies in the general secondary education system. Textbook. (Part I). – Tashkent, 2015.
7. Khaydarov F., Khalilova N. Methods of teaching psychology. – Aloqachi, 2007.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Nilufar Tashmatova,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchi

HAYDAR XORAZMIYNING "GULSHAN UL-ASROR" MASNAVIYSIDA O'ZLASHMA QATLAMGA OID LEKSEMALAR IFODASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan mumtoz adabiyotimiz yetuk namoyondalaridan Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" masnaviysida ifodalangan o'zlashma so'zlar tasnif va tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *turkiy til, o'zbek tili, sug'dcha, o'zlashma, sanskritcha masnaviy, xitoycha , yunoncha.*

Annotation: *This article classifies and analyzes the taken from another language words of Haydar Khorezmi's "Gulshan ul-asror" masnavi, one of the mature representatives of our classical literature, who lived and worked in Khorezm in the late XIV and early XV centuries.*

Keywords: *Turkish, Uzbek, Sogdian, Sanskrit, Masnavi, Chinese, Greek, lexeme,word,language.*

Аннотация: *В данной статье классифицируются и анализируются слова маснави «Гульшанул-асрор» Хайдара Хорезми, одного из самых зрелых представителей нашей классической литературы, жившего и творившего в Хорезме в конце XIV начале XV вв. развитие языков, в первую очередь, лексики.В результате имеются случаи обмена и заимствования.*

Ключевые слова: *тюркский, узбекский, согдийский, узбекский, санскрит, маснави, китайский, греческий.*

Tarixiy taraqqiyot jarayonida dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro iqtisodiy,siyosiy,ilmiy,madaniy aloqalar sodir bo'ladi.Buning natijasida tillarning lug'at tarkibi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi so'zlar bilan boyib boradi.Darhaqiqat, o'zbek xalqi bilan hamohang tarzda o'zbek tili ham o'zining tarixiy rivojlanishida ko'plab boshqa xalqlar tillari bilan aloqada bo'ldi.Shu bois,o'zbek tili lug'at tarkibining ma'lum qismini o'zlashgan so'zlar tashkil etadi.[1]

O'zbek tili lug'at tarkibining boyishida ichki imkoniyatlar muhim manba hisoblanadi.Shunga qaramasdan,-dunyodagi hech bir til o'z ichki imkoniyatlariga tayanib ish ko'rmaganidek,o'zbek tili uchun ham faqat o'z so'zlari va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi.O'zbek tili so'z boyligining takomillashuvida tashqi manba katta rol o'ynaydi.Umuman,har qanday til sof holda yashay olmaydi[2].Binobarin,turli tillarga mansub xalqlarning o'zaro hamkorligi, qo'shnichilik va savdo-sotiq aloqalari ular tillarining taraqqiyotiga, birinchi navbatda,leksikasiga o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy.Natijada so'z almashish va o'zlashtirish holatlari yuz beradi.Albatta, ushbu jarayon tarixiy sharoitlarga bog'liq tarzda turlicha kechadi.

Boshqa qardosh turkiy tillar singari o'zbek adabiy tili uchun ham so'z o'zlashtirish xarakterli hisoblanadi. XI asrga oid o'zlashmalarning o'zbek adabiy tiliga kirib kelishida fors-tojik va arab tilidan o'zbekchaga o'girilgan badiiy tarjimalarning roli sezilarli edi. Fors-tojik tili: bu davrda ma'muriy, huquqiy, tijoriy, ilmiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi sharq tillari so'zlarining o'zbek adabiy tiliga o'zlashishida vositachi vazifasini bajaradi. Tabiiyki,chet so'zlarning turli soha leksikasiga o'zlashishi farqlanadi.Jumladan,harbiy terminologiya mo'g'ulcha so'zlar hisobiga kengaygan bo'lsa,ma'muriy, siyosiy, tijoriy-moliyaviy, ilmiy, diniy leksika esa asosan arabcha, forscha-tojikcha o'zlashmalar orqali boyigan. Umuman,turkiy tillar leksikasidagi chet so'zlarni ikki guruhga taqsimlab tahlil etish maqsadga muvofiq:

1)qadimiy (islomgacha bo'lgan) davr.Bunga sanskritcha, sug'dcha va xitoycha unsurlar xos;

2)nisbatan yangi (islom hamda mo'g'ullar istilosidan keyingi) davr. Mazkur guruhdan arabcha, fors-tojikcha va mo'g'ulcha o'zlashmalar o'rin egallaydi.

Turkiy tillar so'z boyligida sug'dcha, sanskritcha, xitoycha o'zlashmalarning paydo bo'lishiga turkiy xalqlarning qadimdan sug'd, hind, xitoy, xorazm xalqlari bilan yaqin aloqalari mahsuli sifatida baho beriladi[3]. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida yashab ijod etgan Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror" masnaviysida ham o'zlashma qatlamga doir leksemalar o'z ifodasini topgan.Bu esa o'sha davr leksikasi haqida oz bo'lsada ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.Biz ushbu tadqiqotimizda masnaviyda keltirilgan o'zlashma qatlamga oid leksemalarning qadimgi davr,islomgacha bo'lgan holatini o'rganamiz.

Sug'dcha o'zlashmalar. Moddiy madaniy va yozma manbalarga ko'ra, Dash-tiqipchoq ko'chmanchilarining azaliy vatani bo'lsa-da, u yerlarda yashagan xunn,usun, qarluq, chigil, argun, tuxsi, kaltatoy, qangli, qirg'iz, uyg'ur, Oltoy turklari va ularning ajdodlari xu, di, rung hamda sakskif qabilalari hech qachon bir joyda muqim yashamagan.Ular nafaqat bepoyon turk dashtida, balki O'rta Osiyoning qadimgi dehqon jamoalari tomonidan o'zlashtirilmagan daryo havzalari va cho'llarida ham chorva mollarini boqib ko'chib yurgan. Ko'chmanchilarning avom kambag'al qismini bir bo'lagi

har safar bu zaminda qolib ketgan va asta-sekin o'troqlasha boshlagan.Bu jarayonning uzluksiz davom etishi natijasida O'rta Osiyoning Amudaryogacha bo'lgan hududlarida bronza davridan boshlab turkiygo'y qabilalar Turonzaminning tub joy aholisiga aylangan.

O'rta Osiyo saklari, o'z navbatida, buyuk turk cho'lining Markaziy va Sharqiy Qozog'iston, Tog'li Oltoy, O'rol, Yenisey va O'rxun daryolari havzalarigacha kirib borganlar va u joylarning hukmron turkiy til muhiti ta'sirida turkiylashganlar.Demak, sak-skif qabilalariga xos ikki tillilik juda keng turk-sug'diy etnomaydonda yuz bergan iqtisodiy, siyosiy hamda etnomadaniy jarayonlar mahsuli ekanligi haqiqatga yaqindir[4]. Anglashiladiki, ikki xalqning aralash istiqomat qilishi, o'zaro hamkorligi oqibatida so'z almashish jarayoni yuz bergan.Ya'ni turkiylar tilida sug'dcha, sug'diylar lug'at tarkibida turkiycha leksemalar qo'llanilgan[5].

Bog'bon o'zlashmasi masnaviyda **Bog'** sug'dcha o'zlashmaga **bon** affiks qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashma leksema hisoblanadi. *Tarbiyatu sa'y qilur bog'bon, Toza bo'lur, meva berur bo'ston!* 6A-7 **Bag'** so'zi dastlab Turfon matnlarida "mevazor, chamanzor" ma'nosini anglatgan:*Azu bag' borluq*ы *tar*ы*g'*-yoki bog', uzumzor, ekinzorda (DTS, 77). Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni"da (DTS,I,77) ushbu so'z "uzumzor" ma'nosini ifodalagan.

Rang atamasi "tus,bo'yoq" , "ahvol,holat" ma'nolarini bildirgan. *Ulki berur mevag'a bu ta'mu rang, Ko'rmasu bilmasmu tarozuyu sang?!* 12A-11

Masnaviyda sug'dcha **ajun** leksemasining fonetik o'zgarishga uchragan **ochun** "dunyo,borliq" fonetik varianti keltirilgan. *Bo'lsun ochun ichra arig' ko'ngli shod, Barcha ulus ustina sursun murod. 8b-3; Qudratu quvvat alida olti kun,Kavnu makon bo'ldi, bu ikki ochun! 23A-3.* Bu leksema ilk bor Turfon matnlarida"mavjudlik,borliq"ma'nosida ifodalangan.Öңрä ajundaqы qыlынch-mavjudlikdan oldingi faoliyat(DTS, 74). Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqqoyiq" asarida "hayot, yerdagi hayot" ma'nosida ham qo'llangan:*Baqas*ыz *erÿr bu ajun lazzati-bu hayot lazzati o'tkinchidir*(Yug, 193)."Tafsir"da so'zning **ajun**(40b7), **achun** fonetik variantlari ko'zga tashlanadi:*Tilärsizlär dunyänың bezäkini ya'ni achunni*(3.2)."Muhabbatnoma"da **achun** (292a6), "Qisasi Rabg'uziy"(5v6) va "Xisrav va Shirin"(33b10)da **ajun** shakli kuzatiladi.Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" masnaviysida arabcha **olam, dunyä**, fors-tojikcha **jahän** leksemalari ham "borliq,dunyo" semasini anglatadi. *Ey sharaf ichra iki olamg'a toj, Yetti falak masnadungg'a bir duvoj. 22B-5, Ko'zima keng dunyo bo'lib tangu tor, Ro'zi qiyomatni ko'rib oshkor. 3B-8, Tutti jahon zamzamai Haydariy,To'ldi sado gunbazi nilufariy. 6B-9.*

Sanskritcha o'zlashmalar. Qadimgi turkiy til bitiklarida sanskrit tilidan kirib kelgan so'zlarning rang-barang bo'lganligi "Qadimgi turkiy lug'at"ni varaqlaganimizda yaqqol ko'zga tashlanadi.Tabiyki, bunda sanskrit tilidan turkiy tilga qilingan tarjimalar muhim rol o'ynaydi. Eski turkiy tilda sanskritcha o'zlashmalar son jihatdan kamaygan.Keyingi davrlarga kelib,ularning aksariyati iste'moldan chiqib ketgan.Turkiy tilda saqlanib qolganlari esa deyarli o'z so'zga aylanish darajasiga yaqinlashgan[6]. Kuzatishlarimiz "Gulshan ul-asror" asarida sanskrit tilidan kirib kelgan quyidagi leksemalar qo'llanishda bo'lganligini ko'rsatadi.

Tarixdan ma'lumki, Osiyodagi yirik davlatlardan biri hisoblangan Xitoy mamlakatining yuqori qismi **Chin** deb yuritilgan.Bu toponim "Gulshan ul-asror" masnaviysida ham zikr qilingan: Tindi aning davrida ro'yi zamin, Bo'ldi bir elu bir ulus Rumu Chin. 24B-7

Xitoycha o'zlashmalar. Miloddan avvalgi II asrda Hun davlati kuchayib, imperiyaga,ya'ni xoqonlikka aylandi.Shunda uning ta'sir doirasi Sharqda Koreya yarim oroligacha, g'arbda Kasbiy dengizigacha, janubda Himolay tog'lari, Amudaryoning shimoliy hududlarigacha yetib bordi.Xitoy bilan xunlar chegarasi Buyuk Xitoy devoridan o'tgan.Bu davrda G'arb bilan Xitoyni bog'lab turgan savdo yo'llari xunlar nazoratida edi. Shundan keyin Xun hoqonligi G'arbiy Xan imperiyasining shimol va g'arbga qarab kengayishi yo'lini to'sib qo'ydi.Xitoy hoqonlari xunlar bilan ular hududidan o'tadigan savdo yo'llarini nazorat qilish imkoniga ega bo'lishgan.Markaziy Osiyo xalqlari Buyuk ipak yo'li orqali Xitoyga borib savdo-sotiq qilganlar[7].Ayon bo'ladiki, turkiylar bilan xitoyliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari qadim tarixga borib taqaladi. Bu hamkorliklar natijasi o'laroq, turkiy tillar so'z boyligiga xitoycha o'zlashmalar kirib kelgan. Professor H.Dadaboevning ta'kidlashicha, "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati"da 240 ga yaqin xitoycha leksemalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati asosan madaniy sohaga taalluqlidir[8].Izlanishlarimiz tekshirilayotgan manba tilida quyidagi xitoycha so'zlar iste'molda bo'lganligini ko'rsatdi.

"Gulshan ul-asror" asarida **tangri** termini "butun borliq, barcha jonli-jonsiz mavjudotlar yaratuvchisi" ma'nosida qo'llanilgan: ***Boshlasa har ishni muni yaxshi bil, Tangri oti birla oni xatm qil.***(1A-3) Qadimgi turkiy tilda **tangri** so'zi ikki ma'noda ishlatilgan: "ulug' tangri,xudo" *Täŋritäg täŋridä bolmïš türk bilgä qağan bu ödkä olurtum,- Tangriday, tangridan bo'lmish turk bilga xoqon bu dunyoga keldim.*(Kul tegin bitigtoshi,1-satr); "ko'k osmon" *Üzä kök täŋri asra yağïz yir qïlïntuqda ekin ara kisi oğlï qïlïnmïs,- Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda ikkisining o'rtasida inson bolasi yarsatilgan.(*Bilga xoqon bitigtoshi, *1*-satr*).* Bu so'zning "xudo,iloh" ma'nosi ham turli dinlarda turlicha tushunilgan. Ko'k tangri diniy tushunchasidagi **ko'k tangri** "ko'kdagi tangri"ni bildirgan. Moniylik dinida esa quyidagi tasavvurlar amal qilgan.Kun Tangri-Quyosh tangri, Ay Tangri-Oy tangri, Yashыn Tangri-Yashin tangri, Yel Tangri-Yel tangrisi.Turk buddistlar tushunchasida Tangri tangrisi-Oliy tangri Buddadir.Musulmon turklarda **Tangri-**Haq taolo (Alloh)dir[9]. "Oltun (tusli) yorug'" yodgorligida leksemaning "hukmdor,janob" semasi kuzatiladi: ***bu sav*ы*g' eshitip, men otru olarqa incha tep tedim aya edgularim tangrilarim!-****bu so'zni eshitib, ularga shunday dedim: ey mening yaxshilarim,hukmdorlarim*!(DTS,544).Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida **T**ÄÐ**RI**tangri(xudo,iloh)ma'nolarini ifodalagan. Täŋ*ri 'azz*ä *v*ä *ǯäll*ä *ögdisin ajur*-Tangri azza va

jallaga hamd aytadi[10]. Masnaviyda tadqiq etilayotgan so'zning arabcha Iloh1B-3 *Qurb maqominda habibi Iloh. Olamu odamg'a ani qildi shoh. 1B-3.* , Haq 7A-4 *-Mulk iyosi, Barlos o'moqliq qiyot, Soyai Haq, mazhari zotu sifot.* , fors-tojikcha Xudo15A-9- *Bir kun ango Osafi bin Barxiyo ,Dedikim: "Ey pok rasuli Xudo,*, Parvardigor 1B-3 *-Dedi kim: " Ey Qodiri Parvardigor, Borchaning asrori Senga oshkor.* Biru Bor 1A-9 "xudo,olloh"- *Qudrat iyosidurur u Biru Bor, Banda sirini bilur ul oshkor.* , Bilguvchi 2A-4 "xudo,olloh"- *So'z guhari bilguvchi sarrofroz, Bo'ldi bilig nutqida mansuba boz.* , Qudrat iyosi(egasi) 1A-13- *Barcha ulusning yarog'ini bilur, Qudrat iyosi, ne tilasa qilur,* kabi ma'nodoshlari ham keltirilgan.

Masnaviyda "yozmoq" ma'nosi **biti=** fe'li orqali ifodalangan. Men bitigan xat bila yo'ng'il qalam, Men yurugan yo'l bila urg'il qadam! 9A-6. Mazkur so'z birinchi marta Kultegin yodgorligida qo'llangan:Beңgÿ tash toqыtdыm bitidim-toshdan yodgorlik yasatdim va unga o'yib yozdim(DTS, 103).

Yunoncha o'zlashmalar. Hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib qolgan, o'z holicha yashagan emas, aks holda, hech qanday taraqqiyot bo'lmagan bo'lur edi.Eng qadimiy va antik davrlarda uzoq masofalarni ot-ulovlarda bosib o'tish ancha mushkul bo'lgan vaqtlarda ajdodlarimiz Misr, Bobil, Markaziy Gresiya, Yunonston kabi mamlakatlar bilan aloqa qilganlar[11].Darhaqiqat, eramizdan avvalgi VI-V asrlar, ya'ni ahamoniylar davrida grek karvonlari Buyuk ipak yo'li, Eron va Markaziy Osiyo orqali Hindiston, Xitoy, Oltoy, Janubiy Sibirgacha borib savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanganligi tarixiy manbalarda aks etgan.Shu o'rinda yana ta'kidlash lozimki, turli sohaga oid qadimgi yunon manbalarining arab tiliga tarjima qilinganligi ilm ahliga yaxshi ayon.Demak, turkiy tillar so'z boyligidagi yunoncha o'zlashmalar asrlar mobaynida olib borilgan madaniy munosabatlar va arab tili ta'sirida kirib kelgan.

Diram "kumush pul" ma'nosini bildirgan. *Gaz bila ham keltirub ul bo'zni kam, Berdi anga xoja bir-ikki diram. Hoshiya12A-10,11.* Mazkur so'z dastlab "Tafsir"da **dirham**(116b1) shaklida uchraydi."Guliston bit-turkiy"da **diram, dirham(**83a8) fonetik variantlari ishlatilgan:*Ikki diram ÿchÿn qolun kesgäylär* (95b13).

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida "mintaqa,hudud,o'lka" ma'nosini anglatgan **iqlim**(DTS,211) istilohi Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" masnaviysida o'z semasini davom yettirgan: *Jubsali bo'lsa sochayin oncha dur, Uylaki bo'lsun yeti iqlim pur.* 9B-6. Xorazm manbalarida "mintaqa", "mamlakat" ma'nolarida qayd qilingan:*Yeti iqlim taxt*ы *xăl*ы *bold*ы(XIII,31b8);*Özgä iqlimg'a bar*ыb *ne hăl bilän bolsa tirilay*ыn*(G, 24a10)*. Professor Sh.Rahmatullaev ushbu leksema etimologiyasini quyidagicha izohlaydi:iqlim > iqlim; asli "kesdi" ma'nosini anglatuvchi qalama fe'lining(ARS, 657) IV bob shaklidan hosil qilingan masdar bo'lib, arab tilida "mintaqa", "klimat" ma'nosini, o'zbek tilida esa asosan, "ob-havo, yer-suv sharoiti" ma'nosini anglatadi; yetti iqlimda birikmasi tarkibida "mintaqa" ma'nosi bilan qatnashadi (O'TEL,II, 188).

Ilk bor eski turkiy adabiy tilning dastlabki yodgorliklarida istifoda etilgan Rum "Rim,Vizantiya" (DTS, 479) toponimini "Gulshan ul-asror" lug'at tarkibida ham uchratish mumkin: *Tindi aning davrida ro'yi zamin, Bo'ldi bir elu bir ulus Rumu Chin.* 24B-7. Mazkur leksema "Tafsir"da ham kuzatiladi: *Rum tarsă*lar*ынd*ыn *bir tars*ă *kälib anda mälik malikätk*ä *olurd*ы(9b2*).* Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida toponimni izofali birikma tarkibida uchratish mumkin:Yarlыg' keldi: ey Musă Rum deңizi taqы Fărs deңizi qavushg'an yergä barg'ыl(129r17).

Masnaviy leksikasida **Iskandar** antroponimi ikki o'rinda; sarlavhada- *Iskandar Mirzoning madhi* **va** 7A-3 sahifada keltirib o'tilgan Podshahi Iskandari Doro hasham, Dovari davron, shahi sohib karam.

Masnaviyda keltirilgan o'zlashma leksemalar o'sha davr ma'naviy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy hayotini o'zida aks ettirish bilan birga tildagi o'zgarishlarni ham ifodalab berishga xizmat qiladi.Har qanday tilning so'z boyligida o'zlashmalarning paydo bo'lishi xalqlarning yaqin aloqalari mahsuli hisoblanadi.

---

1. Yo'ldoshev I. O'zbek kitobatchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004. B.209.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – T.:Fan, 1985. B.103.
3. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.-Т.: Ёзувчи, 1991.-с.133-134.
4. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va ztnik tarixi. – T.: Universitet, 2007. B.62-63
5. Исхаков М.Элементы согдийского языка в современном узбекском языке//Историко-культурные контакты народов алтайской общности: XXIX сесия PIAC.-Т.:1986.II.Лингвистика.-М.: Наука, 1986.-с.1986-С.61-62.
6. Dadaboyev H. O'zbek adabiy tili leksik tarkibining o'zlashmalar hisobiga boyishi//Toshkent viloyati davlat pedagogika instituti pedagog-xodimlarining an'anaviy ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy anjumani ma'ruzalari. – Angren, 2007. B.337-342
7. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. B.91-92
8. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.-Т.: Ёзувчи, 1991.-с.133-134.
9. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006. – B.181
10. Dadaboyev H, Xolmurodova M. "Qutadg'u bilig"dagi so'zlarning o'zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug'ati. – T., 2018. – B.293
11. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –T.: O'zbekiston, 1997. B.3

Marvarid NURBAEVA,
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti
Tillar fakulьteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

TARBIYANING ASOSIY KATEGORIYALARI

(Alisher Navoiy ijodi misolida)

Аннотация. *Zamonaviy texnologiyalar asri bo'lgan bugungi kunda ta'lim-tarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Lekin tarbiya masalasi sharq xalqlarida doimo yetakchilik qilgan va o'z qiymatini hech yo'qotmagan. Sharqona ta'lim va tarbiya dunyo miqyosida ham alohida o'ringa ega. Sharq madaniyatida ta'lim-tarbiya masalalari yoritilgan didaktik ruhdagi asarlar Mir Alisher Navoiy nomi bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada Hazrat Navoiy ijodida mahorat bilan ifoda etilgan insoniylik g'oyalari, ta'lim-tarbiyaning nechog'lik dolzarbligi, yoshlarni tarbiyalashdagi asosiy masalalar, kishi bilimga ega bo'lishi uchun oz-ozdan o'rganib borishi lozimligi, insonni komillikka erishish yo'llari, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalar o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *Sharqona ta'lim, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, tafakkur sohibi, chuqur falsafiy mushohada, millatlararo hamjihatlik, asar, ilmiy izlanish, yutuq, samara.*

Annotation. *In today's age of modern technology, the issue of education is becoming increasingly important. But the question of upbringing has always been a leader among the peoples of the East, and has never lost its value. Oriental education has a special place in the world. Didactic works on educational issues in Eastern culture are associated with the name of Mir Alisher Navoi. In this article, the ideas of humanity, skillfully expressed in the works of Hazrat Navoi, the relevance of education, the main issues of educating young people, the need to learn a little bit to gain knowledge, ways to achieve perfection, valuable ideas on education are expressed. found*

Keywords: *Eastern education, enlightenment, education, thinking, deep philosophical observation, interethnic harmony, work, scientific research, achievement, fruitfulness.*

Annotation. *In today's age of modern technology, the issue of education is becoming increasingly important. But the question of upbringing has always been a leader among the peoples of the East, and has never lost its value. Oriental education has a special place in the world. Didactic works on educational issues in Eastern culture are associated with the name of Mir Alisher Navoi. In this article, the ideas of humanity, skillfully expressed in the works of Hazrat Navoi, the relevance of education, the main issues of educating young people, the need to learn a little bit to gain knowledge, ways to achieve perfection, valuable ideas on education are expressed. found*

Keywords: *Eastern education, enlightenment, education, thinking, deep philosophical observation, interethnic harmony, work, scientific research, achievement, fruitfulness.*

Zamonaviy texnologiyalar asri bo'lgan bugungi kunda ta'lim-tarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Lekin tarbiya masalasi sharq xalqlarida doimo yetakchilik qilgan va o'z qiymatini hech yo'qotmagan. Sharqona ta'lim va tarbiya dunyo miqyosida ham alohida o'ringa ega. Sharq madaniyatida ta'lim-tarbiya masalalari yoritilgan didaktik ruhdagi asarlar Mir Alisher Navoiy nomi bilan bog'liqdir.

Navoiy o'z asarlarida axloqiy qarashlarini yaxshi fazilatlar bilan birga yomon illatlarni ham ko'rsatish orqali ifoda etadi. Uning nazdida insoniylik yaxshi g'oyalarga amal qilish va uni targ'ib etish bilan bog'liqdir, turli illatlar esa odamni insoniylikdan uzoqlashtiradi. [1]

Ma'lumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so'zining ma'nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lgan kishi, demakdir. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar, ezgulik va yovuzlik, do'st va dushmanlik, diyonat va xiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahorat bilan aks ettirilgani e'tiborga molikdir.

Nafsing esa shuxlug', charx emgagidin qil adab,
Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib [2].

Navoiy asarlari orqali hayotda uchrashi mumkin bo'lgan ijtimoiy masalalarga mohirona yondashgan tarbiya, ta'lim masalasidagi yetakchi muammolardan biri bu millatlararo hamjihatlik masalasi ekanligini yaxshi bilgan. O'rta asrlarda mahorat va odillik bilan qayd etib o'tilgan mazkur muammo, bugungi kunda yetakchilik qilmoqda. [3]

Buyuk alloma umri davomida ilm-ma'rifatni yuksak qadrlagan va homiylik qilgan. Shoir insonning ma'naviy kamolotini, eng avvalo, uning ilm va hunar sohibi bo'la olganligida, deb biladi. U ilmga o'zidan o'zi erishib bo'lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga erisha oladi, deb ta'kidlaydi. [4]

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ko'proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma'rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi. [5]

"Hayrat ul-abror" asarining bir necha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi.

Navoiy ilmdan amalda foydalanish zarurligini ta'kidlaydi:

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Endiki ilm o'ldi amal aylagil. [6]

"Farhod va Shirin" dostonida shoir chin sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g'oyalarini tarannum etadi. Doston yoshlar va bolalarga atab yozilmagan, lekin asarning ko'pgina boblari bolalar va yoshlar hayotiga, ularning tarbiyasiga bag'ishlangandir. Shoir dostonda Farhodning bolalik chog'laridanoq ilm-hunarga, mehnatga bo'lgan muhabbatini zo'r mahorat va chuqur samimiyat bilan tasvirlagan. Bu Navoiyning bola tarbiyasiga va uning bilim olishiga katta e'tibor bilan qaraganligini ko'rsatadi. Navoiyning nafaqat boy ijodi, balki sermazmun hayoti ham barcha uchun birdek namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqsevarligi hammaga barobar o'rnak bo'lishi lozim.

Uning so'nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnoma yo'nalishida yozilgan "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") dir. Bu asar 1500 yilda yozilgan. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa'diyning "Guliston", Kaykovusning "Qobusnoma", Nizomiy Aruzi Samarqandiyning "Chor maqola" kabi asarlari qatorida turadi. "Mahbub ul-qulub" asari oltmish yillik umri davomida hayotda ko'rgan-kechirganlarini teran tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merosidir. Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo'lgan hayotiy muammolarga eng to'g'ri yechimlarni ta'sirli usulda berishi bilan yuksak daraja kasb etadi.

Navoiy murabbiylarning haqqoniy xizmatlarini alohida ta'kidlaydi:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak *bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila* [7].

Kitobning ikkinchi qismi, asosan, axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Bu bobda yaxshi fazilat va yomon xislatlar tahlil qilinadi. To'g'rirog'i, insonda bo'lishi kerak bo'lgan odob-axloq haqida gap boradi.

Mutafakkir qanoatni bir buloqqa – chashmaga o'xshatadi. Negaki, buloq suvini qancha olgan bilan qurimaydi, u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shavkat hosilini beradi. U bir daraxtki, unda qaram bo'lmaslik va hurmat mevasi bordir. Bu bobda sabr, tavoze haqida ham ko'p ibratli gaplar aytiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-Abror, MAT,7-jild, Toshkent 1991.
2. Alisher Navoiy "Hikmatlar". O'zbekiston. – T. 2011.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20-jildlik, 7-jild. Xamsa: Hayrat ul-abror. T: «Fan», 1991.
4. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Fan. – T. 2007.
5. Inoyatov S. Do'stlik va adolat kuychisi // Adolat gazetasi // 2020 yil, 18-son.
6. Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. O'qituvchi. – T. 1995.
7. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. Toshkent, —Akademik nashr 2011.

X.B.Muxamedova,
Nizomiy nomidagi TDPU *Professional ta'lim fakulteti*
Texnologik ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
N.A.Nurullayeva,
Texnologik ta'lim metodikasi kafedrasi 3-kurs talabasi

TIKUVCHILIK FAOLIYATINI TAVSIFLOVCHI KASBIY ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR

Annotasiya. *Inson faoliyatining boshqa sohalarida bo'lgani kabi tikuvchilikda ham faoliyat jarayonlari va natijalarini aniq tavsiflovchi va chegaralovchi kasbiy atamalar va tushunchalar mavjud.*

Kalit so'zlar: *asos chizma, konstruksiyalash, modellashtirish, andaza, gazlama, bichish-tikish, kiydirib ko'rish, dazmollash.*

Annotation. *In tailoring, as in any other branch of human activity, there are professional terms and concepts that clearly characterize and delimit the processes and results of activity.*

Key words: *basic drawing, construction, modeling, pattern, fabric, cutting and sewing, fitting, ironing.*

Аннотация. В пошиве одежды, как и в любой другой отрасли деятельности человека существуют профессиональные термины и понятия, которые четко характеризуют и разграничивают процессы и результаты деятельности.

Ключевые слова: *базовый чертёж, конструирование, моделирование, выкройка, ткань, крой и шитьё, примерка, гладить.*

Inson faoliyatining boshqa sohalari singari tikuvchilikda ham faoliyat jarayonlari va natijalarini aniq tavsiflovchi kasbiy atamalar va tushunchalar mavjud. Umuman olganda, terminologiya nazariyani tavsiflashda qulaylik uchun zarur bo'lib, kasbiy atamalarning ma'nosini bilmagan odam uchun aynan shu nazariyani tushunish juda qiyin, buning natijasida ushbu nazariyani amaliyotda qo'llashda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida texnologiya fani servis xizmati yo'nalishida tikuvchilik bo'limi mavjud. Ushbu bo'limda o'quvchilar kiyimlar turlari haqida, bolalar, ayollar, erkaklar kiyimlari haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlaydilar. Kundalik, bayramona, sport, oshxona, ish kiyimlari, o'zbek milliy kiyimlari haqida yangi bilimlarga ega bo'ladilar. Dasturdagi mavzular asosida o'zlari ham kiyimlar tikadilar. O'quvchilar tikuvchilikda uchraydigan atamalar haqida bilimlarga ega bo'lishlari ham maqsadga muvofiq.

Kiyim tikish uchun, avvalo, kiyim asos chizmasining konstruksiyasi tanlanadi. Bunda kishining yoshi va tana tuzilishi hisobga olinadi. Kishi gavdasidan o'lchov olinadi. Konstruksiyaga asosan andaza tayyorlanadi. Kiyimga fason va gazlama tanlanadi. Andazaga fason chiziqlari kiritiladi va kesiladi. Gazlama bichishga tayyorlanadi. Andaza gazlamaga joylashtiriladi va bichiladi. Kiyim ikki marta kiydirib ko'riladi va tikib bitkaziladi, bezaklari bo'lsa, bajariladi.

"Modellashtirsh" atamasi "modelirovka" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, qoliplash - materialda shakllantirish yoki materialdagi shaklni o'rganish degan ma'noni anglatadi. Kiyimlarni modellashtirish - bu ikki ketma-ket bosqichdan iborat turli xil kiyim modellarini yaratishning ijodiy jarayoni: loyihani ishlab chiqish - kiyim modelining badiiy dizayni - va loyihani materialda amalga oshirish.

Tikuv terminologiyasini shartli ravishda besh guruhga bo'lish mumkin:

1. Tikuvchilik uchun asbob-uskunalar va aksessuarlar.
2. Tikish uchun materiallar (matoning turlari va uning turli navlari, tikish uchun iplar va turli xil materiallar).
3. Bichish-tikish texnologiyasi (qo'l va mashina operatsiyalari terminologiyasi, qo'lda va mashina tikishning turlari).
4. Kiyim asos chizmalarini loyihalash (konstruksiyalash va modellashtirish terminologiyasi).
5. Tikuvchilik mahsulotlari.

Tikuvchilikda eng ko'p ishlatiladigan terminlar:

kertma – 0,2-1 sm gacha qirqimlarni kertish

yo'rmash – kiyim qirqimlarini titilishdan saqlash uchun qo'l choklari bilan mahkamlash

chatish – kiyimga alohida tayyorlangan qismlarni doimiy qaviq bilan mahkamlash (cho'ntaklar, tugmalar, temir ilgak va kiyim bezaklari)

vitachka – kiyimni odam gavdasiga moslash va kerakli shakl berish uchun tikiladi

qopqoq – cho'ntak qismini berkituvchi qism bo'lib, uni cho'ntakning yuqori qismiga tikiladi

ye**ng boshi – ye**ngning yuqori qismi

ye**ng o'mizi –** kiyimda old va orqa bo'lak yelka qirqimidan yon qirqimgacha bo'lgan qism

mag'iz – qiya adip bichib, o'ngidan tikib teskariiga o'girilgan gazlama parchasi

shlitsa – qiyiq, palto, pidjak, yubkalarda ishlov berilgan yopiq qirqim

dazmollash – tayyor kiyimni dazmollash

bir tomonga yotqazib dazmollash - kiyim choklarini yoki taxlamalarni bir tomonga yotqazib dazmollash

bug'lash – kiyimda dazmollashda hosil bo'lgan yaltiroqlikni bug'lab yo'qotish

cho'zib dazmollash – baska, oborka, valanlarni chetlarini cho'zib dazmollash

dazmollab yupqalashtirish – choklar, taxlamalar va vitochkalarda gazlama qalinligini kamaytirish

dekatirovka - tayyor kiyimning kirishishini oldini olish uchun gazlamaga namlab isitib ishlov berish (NIIB)

tekislab dazmollash – gazlama g'ijimini dazmollab yoyish

yorib dazmollash - kiyim choklarini ikki tomonga yorib dazmollash

biriktirma chok - qismlarni mashina chokida doimiy biriktirib ulash

o'tkazib tikish – yeng o'miziga yengni, yoqa o'yindisiga yoqani ulab tikish

bostirib tikish – bir bo'lakni ustiga, ikkinchisini qo'yib ustidan-o'ngidan bostirib tikish

buklab tikish – buklangan qirqim chetini mashinada tikish

ulab tikish – kiyimga mayda bo'laklarni ulab tikish (klinlar)

bezak choki – kiyim chetidan istalgan kenglikda chok tikish

Ehtimol, avvaliga yuqoridagi atamalar o'quvchilarga biroz murakkab tuyulishi mumkin. Lekin o'qish, tinimsiz izlanish, atamalarni yozib borish, tikuvchilik bilan muntazam ravishda amaliy shug'ullanish, ushbu sohadagi murakkabliklarni o'z-o'zidan bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva Q.M. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. T., 2012..
2. Gaipova N.S. va boshqalar. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma.– T.: "Adabiyot" 2006.
3. Технология швейных изделий: учебник / Н.Н.Бодяло [и др.]. – Витебск: УО «ВГТУ», 201 2. – 307 с.
4. Х.Б.Мухамедова «Формирование навыков по конструированию чертежей швейных изделий у учеников на уроках технологии». Проблемы современной науки и образования. Российский импакт-фактор. Научно-методический журнал. 2021 №3 (160).

Tarjimasunoslik

Mariya SARSENBAEVA,
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature,
Faculty of Simultaneous Interpretation, a 1st year master's student;
Ravshan NIYAZOV,
"TIIAME" NRU, Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences

THE IMPORTANCE OF CONFERENCE INTERPRETING TYPES

Interpreters today are key participants in the worldwide globalization process, which is bringing people and cultures closer together. Undoubtedly, at present, translation performs important functions in the process of intercultural communication, allowing humanity to overcome difficulties in accumulating useful and necessary information, the volume and diversity of which is growing rapidly.

Language interpretation involves the oral translation of the spoken speech. The interpreter transforms the speech in the source language into the required target language just like a written translation. Before jumping to the main topic of this post quickly, recap what interpreters actually do. Interpretation is not translation but it is often confused with it. The difference between them is being orally and written: Interpreters deal with spoken word while translators work with written text.

Conference interpreting is different from other types of translation. Interpretation is a difficult job and at the same time captivating process. In this article we will explain the types of conference interpreting and what makes them so different. Over times, the translation studies have also been divided into some types. For instance, court interpreting, community interpreting, medical interpreting, conference interpreting and other types, and each type can be studied individually. Among them the conference interpreting is at the top of the tree. Because, court interpreting, community interpreting, medical interpreting can be in the conference. Obviously, conference interpreting, first of all, is based on quality then on the mode of interpreting and then on the setting itself. That is why conference interpreting is just the best sort of interpreting with the highest quality. Conference interpreting differs in some features of itself from other types of interpreting: its procedure and structure, specific words that are not used in the other spheres, meetings with authorities, and well paid job. Probably, distinguishing features can make conference interpreting exclusive and exciting activity.

The Oxford English dictionary says that an interpreter is "A person who interprets, especially one who translates speech orally or into sign language." An interpreter has to translate the spoken words on the basis of whatever grammatical knowledge he has of the language from which he interprets and his interpretation is based on the expertise of the subject. This makes the job of an interpreter more challenging. On the contrary to the job of a translator, the job of an interpreter requires special skill in the sense that he has to do the interpretation orally and on the spot most of the time.

Most people have heard about two types of conference interpreting. They are **simultaneous interpretation** or **consecutive interpretation**. These are the most widely-known modes. However, there are also several other types and sub-types. For instance, *whispering* or *liaison interpreting*.

When an interpreter is in the conference, the procedure of translation can be consecutive or simultaneous. Consecutive interpreting is a mode of interpreting in which the speaker makes a speech whilst the interpreter takes notes. The interpreter then reproduces what the speaker has said for the audience. He normally stands or sits close to the speaker, uses a pad and pen to take notes and uses the microphone only once the speaker has finished and it is his turn to speak. However, consecutive interpreting is substantially cheaper than the other popular method, simultaneous interpreting, but it is not considered as real-time delivery because of the pauses the speaker has to make to allow the interpreter to translate.

As we mentioned before, there are two broadly speaking major types of interpreting: *simultaneous* and *consecutive interpreting*. They are widely used in the conferences in order to every member of the conference from foreign countries can understand the speeches.

Simultaneous interpreting takes place in real-time and it is classified as most demanding process by its significantly high level of urgency. When the speaker presents the original text, the interpreter must deliver the speech to the target language. The speaker continues to speak and the interpretation continues at the same time.

Nowadays in several multinational conferences simultaneous interpreters are translating and interpreting the speakers' speech. As we know it is a quite difficult job to interpret someone's speech simultaneously. Even though it has its struggling. Interpretation is becoming more common in the international meeting, conferences, forums and other spheres where interpreters are needed.

Consecutive interpreting **is interpreting the speaker's speech after finishing it, especially,** with the

help of notes. The interpreter then transforms what the speaker said to the audience. To be a good consecutive interpreter is a complicated process, Interpreters need to be very active in listening, and analyzing what the speaker is saying, creating useful notes that speed up their memory as repeating the speech, and then making the speech that way from the source language.

Consecutive interpreting is a popular method much cheaper than simultaneous interpreting, but it is not considered real-time delivery because it requires the speaker to pause to translate. The interpreter waits for the speaker to finish saying the sentence or short paragraph before translating what he or she is saying. Because it is a speech and pause method, translation takes more time than simultaneous translation. In consecutive interpreting, speeches are divided into several parts. The interpreter usually stands or sits next to the speaker, listens to what is being said, and takes notes as the speaker concludes. This is also one part of the consecutive interpreting.

Whispered interpreting is a form of interpretation in which a linguist conveys a message from one language to another by whispering to a client. It is also called Chuchotage. It is also the most convenient type because no special equipment is required. Chuchotage can be useful for meetings, conferences and other formal events, where only a small proportion of participants need the services of an interpreter in a particular language pair.

Liaison interpreting is a form of sequential inter consecutive interpreting, which is, in a sense, the most personal and informal type of translation. It is mainly used for small groups or meetings (e.g. a business meeting between two leaders).

Conference interpreting is multilingual communication in formal settings. It is a bridge between cultures and people to realize each other's formal condition. The segments which are used in this sphere aid to thrive the connection between languages. Interpreters have the task of settling the condition and maintaining balance in the process.

References

1. Б.П.Погодин. Конференц-перевод в международных организациях. – Москва: Р.Валент, 2015.
2. Robin S., Andrew D. Conference interpreting. A trainer's guide. – John Benjamins B.V. 2016.

Husniddin BERDIYEV,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

AXBOROT ASRIDA INFORMATSION XURUJLAR

Axborot asri deya ta’rif berilgan bugungi global sharoitda aksariyat zamonaviy davlatlar ochiq harbiy to‘qnashuvlarda qatnashmaydi, biroq axborot urushlarida faol ishtirok etishadi, buni tashqi siyosatni amalga oshirishning samarali vositasi deb bilishadi.

Axborot urushlarining oqibatlari haqiqiy urushlar natijalari kabi global va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Psixologik qurolga aylangan axborot har qanday mamlakat yoki mintaqadagi davlat va ijtimoiy tuzilmaning deyarli barcha darajalarida turli jarayonlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Fuqarolarning ongida zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari o‘zining yashirin axboroti va psixologik ta’siri bilan olib kelishi mumkin bo‘lgan xavf haqida tushuncha shakllanmagan. Mazkur masalaning dolzarbligi bugungi axborot asridagi bir qator holatlar bilan bog‘liqdir.

Birinchidan, hozirgi vaqtda ko‘pgina davlatlar axborot urushini tashqi va ichki siyosatni amalga oshirishning samarali vositasi deb bilishadi. Bugun dunyoning hech bir davlati yo‘qki, u axborot urushlaridan xoli, axborot xurujlaridan chetda bo‘lsa. Jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridan tortib, uchinchi dunyo mamlakatlarigacha u yoki bu darajada axborot urushlari yetarlicha xavf sola oladi.

Mamlakatimizda “to‘rtinchi hokimiyat” deb ta’rif berilgan ommaviy axborot vositalari sohasini rivojlantirish jarayonida boshlangan ulkan islohotlar, avvalo, bugungi jamiyat hayotini to‘la aks ettirishga xizmat qiladi.

“Axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi – Yangi O‘zbekistonning sifat ko‘rsatkichlaridan biriga aylandi. Bu yo‘lni davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri deb bilamiz va qat’iy davom ettiramiz”[1].

Bugun dunyoga ochilgan va ochiqlik siyosatini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirgan O‘zbekiston ham global axborot urushlari ta’siridan chetda emas. Ochiqlik va oshkoralik, demokratik tamoyillar qanchalik qaror topgani sari informatsion xurujlarning ham potensial xavfi oshib boraveradi. “Albatta, so‘z erkinligi bilan bir qatorda, mamlakatga turli axborot oqimi kirib keldi va biz barcha demokratik davlatlar boshidan kechirayotgan muammolarga duch keldik – dezinformatsiya, feyk, anonimlar, yolg‘on va manipulatsiya.

Biz butun dunyo bilan birgalikda axborot urushlari davriga kirdik va manipulatsiya qurboni bo‘lmaslik uchun haqiqatni yolg‘ondan ajratishga harakat qilyapmiz. Bu borada hali tajribamiz kam. Ammo shunga qaramay, bu yo‘nalishdagi ishlar davom etmoqda”[2].

Ommaviy axborot vositalari erkinligini ta’minlash milliy matbuotimizda ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlashga keng yo‘l ochadi. Zero, jahon miqyosida globallashuv jarayonlari davlatlar va xalqlar o‘rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalarini kuchaytirish bilan birga, mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning o‘tkir quroliga aylanib borayotgan bir paytda matbuot milliy o‘zligimizni saqlashda, fuqarolarni to‘g‘ri yo‘ldan og‘ishmay hayot kechirishga yo‘naltirishda alohida o‘rin tutadi.

Ikkinchidan, zamonaviy dunyoda axborot oqimi shunchalik xilma-xil va qarama-qarshiki, eng muhim ma’lumotlarni tanlash va uni taqdim etish butun media tizimi uchun muhim vazifa bo‘lib, bu tabiiy ravishda ommaviy ongni manipulatsiya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Ommaviy axborot vositalari muayyan hodisa to‘g‘risida aholi o‘rtasida ma’lum bir jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali siyosiy ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatadi. Bu aholining axborot savodxonligi past bo‘lgan va axborot hamda siyosiy texnologiyalarning rivojlanish sur’atlari qonunchilik bazasini rivojlantirishdan sezilarli darajada oldinda bo‘lgan O‘zbekiston uchun dolzarb bo‘lib turibdi.

Ommaviy axborot vositalari bilim va boshqa siyosiy ahamiyatga ega axborotning bevosita tashuvchisi va, ayniqsa, tarqatuvchisi hisoblanadi. Ularning vazifasi siyosiy tizim va jamiyatdagi muayyan muammolarni hal qilish bo‘lsa-da, real hayotda ular ancha mustaqil, o‘z faoliyat maqsadlariga ega bo‘lib, ko‘pincha jamiyat ehtiyojlaridan uzoqlashadi va ularga erishish uchun turli usullardan foydalanadi. Ommaviy axborot vositalari siyosatga, birinchi navbatda, axborot jarayoniga ta’sir qilish orqali amalga oshiriladi, bu esa o‘z navbatida m’lum bir shaklda jamoatchilik fikrini shakllantirish imkonini beradi.

Siyosiy manipulatsiyaning asosi dunyoning haqiqiy modeli nisbatlarini tubdan o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan ommaviy axborot vositalari tomonidan yaratilgan virtual harakatdir. Manipulatsiyaning muhim sharti, shuningdek, axborot monopoliyasiga ega bo‘lgan ommaviy axborot vositalari voqealarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishidir. Dunyoda millionlab voqealar mavjud, ammo ularning faqat ommaviy axborot vositalari jamoatchilik e’tiboriga havola etayotgan qismigina muhokama qilinadi.

Axborot tanlash omili bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalarining manipulatsiya kuchining bir xil

darajada muhim vositasi – so'z mavjud. Turli iboralar yordamida fikrni ifodalash qobiliyati bir kishiga boshqa odam tomonidan atrofdagi haqiqatni idrok etishiga ta'sir qilish imkonini beradi.

Axborotga ega bo'lish va informatsion bosim o'tkazish tendensiyasi oshib borgani sari, bunga faol qarshilik ko'rsatishning zamonaviy va yangi usullari ishlab chiqilmoqda. Axborot urushida mudofaa usullari ishlab chiqilmoqda, xalqaro miqyosda axborot qurollari tarqalishini cheklash g'oyasi tarafdorlari paydo bo'lmoqda.

Axborot urushlari bizni jurnalist kasbiga, jamiyatdagi ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga yangicha qarashga undaydi.

"Bugungi kunda barcha darajadagi boshqaruv idoralari rahbarlarining ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar bilan muntazam uchrashib, jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalarni erkin muloqot asosida keng muhokama etishi yaxshi an'anaga aylanib bormoqda. Biz bunday yondashuvni O'zbekistonda olib borilayotgan ochiqlik, oshkoralik va demokratik siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz hamda milliy manfaatlarimizga javob beradigan bu yo'lni qat'iy davom ettiramiz"[3].

Uchinchidan, hozirgi bosqichda axborot sohasidagi qarama-qarshiliklarni an'anaviy harbiy urushlarni tasvirlaganidek yaxlit va mantiqiy tavsiflashga imkon beradigan metodologiya mavjud emas. Zamonaviy tadqiqotchilar o'z tahlillarida to'xtalib o'tgan mavzuga oid bir qator aniq muammolar qo'shimcha mulohaza yuritishga loyiqdir.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr boshidagi tarixiy davrda jamiyat hayotining bir qator muhim sohalari: siyosat, iqtisodiyot, shuningdek, axborot xavfsizligi usullarida axborot urushi hodisasini teran ilmiy tahlil qilish bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yuqorida bildirilgan fikrlar va tahlillarning barchasi ushbu mavzuning dolzarb va zamonaviy dunyoda doimiy yangi-yangi mezonlarda o'rganish ehtiyoji yuqori ekanidan dalolat beradi.

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 118–121-betlar.
2. https://kun.uz/news/2021/09/10/siyosiy-jarayonlarning-sukunatidan-qutuldik-komil-allamjonov-soz-erkinligi-va-axborot-urushlari-haqida.
3. Mirziyoyev Sh. https://president.uz/uz/lists/view/4454

Nilufar NAMOZOVA,
Filologiya fanlari nomzodi

HOJI MUIN BIOGRAF, MATBUOT TARIXNAVISI

Hoji Muinning 20-yillar publitsistikasida biografik xarakterdagi hamda matbuot borasidagi maqolalar salmoqli o'rinni egallaydi. Uning "Mahmudxo'ja Behbudiy", "Sayidahmad Vasliy", "Qozi Kaloni shal", "Birinchi geografiya muallimi", "Marhum Shokir Muxtoriy", "25 yilliq xidmat" kabi biografik xarakterdagi maqola va ocherklari; milliy matbuot haqidagi "Samarqand matbuoti tarixi", "Samarqandda bosmaxona va yerli matbuot ishlari", "Samarqandda matbuot ahvoli", "Hajviy jurnal", "Samarqand qizil o'zbek matbuoti", "Tugallanish yo'lida" kabi bir qancha maqolalari mavjud.

Behbudiyning tarjimai holini yozib chop ettirishi Hoji Muinni zamondoshlari orasida yana bir bor tanitdi. Hatto u haqda hajv orqali bo'lsa-da, qayd qilib o'tuvchilar ham topildi. Jumladan, 1924-yilda o'zbek qizil matbuotining 6 yilligini nishonlash munosabati bilan "Mashrab" jurnalida chop etilgan hajviy maqolada "shoir va muharrirlar"ning fikrlari keltirilgan bo'lib, unda Hoji Muin nomidan shunday so'zlar yozilgan: "Matbuotimizni ishchi-dehqon ommasiga yaqinlashdirmoq uchun mola, omoch va traktorlarning mufassal tarjimai hollarini yozib qoldirish kerak" [1]. Albatta, bu hazil edi.

20-yillar matbuotida Hoji Muindan boshqa jurnalistlar qalamiga mansub tarjimai hollar ham ko'plab uchraydi. Jumladan, Abdumo'min Sattoriy tomonidan o'nga yaqin buyuk shaxslar haqidagi adabiy-biografik ocherklar, tarjimai hollar chop etilgan. Shunday bo'lsa-da, Abdulla Qodiriy ham "Mushtum" jurnalida Hoji Muinning bu boradagi faoliyatiga yanada keskinroq baho beradi: "Hoji Muin Shukrillaning 6 yillik umri tarjimai hol yozish bilan o'tdi. Ishsiz qolg'onida sog' kishilarning tarjimai holini so'rab yuraklarini orziqtirdi. Bir vaqtlar "Mutavakillon 'ala-llahi" bittasini o'ldiga chiqarib "Zarafshon"da marhumning tarjimai holini yozib boshlag'on edi, biroq taassufka qarshi "rahmatlik" o'lmagan ekan, ya'ni marhumning o'zi bilfe'l gazetada uzr yozib, Hoji Muinnig yuziga bir shapaloq qo'yib, arang tarjimai holchining changalidan qutulib oldi. Har nuchukda Hoji Muin ko'z ostig'a olg'on ulug' kishilar (mavzu'lari) ko'p bo'lsa ham, baxtga qarshi hamon marhum bo'lmay, bechoraga tuzukrak ishlashga imkon bermay keladilar" [2].

Ko'rinadiki, zamondoshlarining bunday hajv qilishlariga Hoji Muin tomonidan yozilgan nekrologlar ham sabab bo'lgan. Ma'lumki, nekrologda vafot etgan

kishining tarjimai holi qisqacha bayon qilinadi. O‘sha davrda nekrolog gazeta xodimlari – jurnalistlar tomonidan yozilgan. Hoji Muin ham o‘zi faoliyat yuritgan gazetalarda vafoti munosabati bilan ayrim kishilarning tarjimai hollarini chop ettirgan. Jumladan, “Qayg‘uli fojia”, “O‘ktabr inqilobining birinchi qurboni”, “Marhum Shokir Muxtoriy”, “Tengsiz bir ishchidan ayrildik” kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Hoji Muin yozgan tarjimai hollardan yana biri samarqandlik Sayidahmad Vasliyning vafoti munosabati bilan matbuotda chop etildi. Vasliyning ilmdagi xizmatlari bilan birga, maorif va matbuotdagi faoliyati zamondoshlari tomonidan o‘z vaqtida e’tirof etilgan edi. Jumladan, Hamza unga she’r bag‘ishlab, “Taraqqiyot gulshanida millat andalibi” deb atagan edi.

Hoji Muin Vasliyni yaqindan bilgan, ko‘p sohalarda u bilan birga faoliyat yuritgan, uning shogirdlaridan biri edi. Shu sababli ham ushbu tarjimai holni Vasliyning hayoti va ijodini ko‘rsatib bergan ishonchli manbalardan biri bo‘la oladi deyish mumkin. Unda Vasliyning tug‘ilgan yilidan to madrasa ta’limini olgan paytlarigacha batafsil, faktlar asosida bayon etiladi. Maqola muallifi Vasliyning usuli jadid maktablari ochishdagi ko‘magini, madrasalar ta’limini isloh qilishdagi jonbozligini shunday e’tirof etadi: “Vasliy afandi eski madrasalardagi tahsil va tadris usulining kamchiliklarini boshlab anglag‘onlardan, ham buning islohiga doir o‘zbek matbuotida eng avval o‘z fikrini yozg‘on kishilardandir”.

Vasliy merosini o‘rganishda Hoji Muin yozgan tarjimai holning ham ahamiyati kattadir.

Hoji Muin yozgan adabiy-biografik ocherklardan biri “Qozi kaloni shal va uning bolalari“ deb atalib, u Samarqandda “Qozi kaloni shal” nomi bilan shuhrat topgan Mir Abdulhay va uning avlodlari haqidadir.

Samarqandda qirq yil qozi kalon bo‘lgan Mir Abdulhay ma’rifatli inson bo‘lgani uchun ilm-fanning rivojida katta hissa qo‘shgan. Qozi etib tayinlangach, “Sherdor“ madrasasini ta’mirlab, talabalarga dars beradi. Atrofiga salohiyatli kishilarni to‘playdi. Kambag‘al talabalarga moddiy yordam beradi. Umrining so‘nggi o‘n uch yilini shol holida o‘tkazgan Mir Abdulhay qozilik qilish bilan birga, talaygina asarlar ham yozgan, tarjimalar qilgan. Hoji Muin: “Men o‘zim Zaburning forsiycha tarjimasini mulla Faxriddin Rojiyning qo‘lida ko‘rib, kitobning muqaddimasini yozib oldim. Qozi shal bu kitobning muqaddimasida samoviy kitoblardan bo‘lg‘on Tavrot, Injil va Zaburni tekshirib, bulardan faqat Zaburning o‘zgarganligini, boshqalari butunlay taxrif topg‘onlig‘ini yozadir”, [3] deydi. Mir Abdulhayning o‘g‘li Abusaid ham o‘z zamonasining ko‘zga ko‘ringan ziyolisi bo‘lgan. U ham otasi kabi qozilik bilan birga, madrasada dars bergan. Zamonasining ziyoli kishilari bilan yaqin muloqotda bo‘lishga intilgan. Hoji Muin uning Marjoniy bilan munosabatini misol qilib ko‘rsatadi: “Tatarlarning mashhur mujaddid olimi bo‘lg‘on Shahobiddin Marjoniy 1259 nchi yilda Buxorodan Samarqandg‘a kelib qozi Abusaidning halqai tadrisida ikki yil chamasi mulozamat qilg‘on. Qozining ilmidan va boy kutubxonasidan cheksiz foydalang‘on.

Ma’lumki, Shahobiddin Marjoniy tatar madaniyati va ma’rifatchilik harakati tarixida chuqur iz qoldirgan atoqli shaxslardan biridir. Yuqoridagi iqtibosdan ko‘rinadiki, uning shu darajaga yetishida qozi Abusaidning roli katta bo‘lgan. Marjoniyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari Ismoil Gasprinskiyning amaliy faoliyatida yuz ko‘rsatdi. Gasprinskiyning Turkiston jadidlariga ko‘rsatgan ta’siri to‘g‘risida so‘z yuritganda, samarqandlik ma’rifatparvar qozi Abusaidning Marjoniyga ko‘rsatgan ta’sirini ham ta’kidlasak, turkistonlik ziyolilarning madaniy rivojlanish jarayonidagi xizmatlariga xolis baho berish lozimligini his etamiz. Hoji Muinning ushbu kichik tadqiqoti mana shu haqiqatni ochib berganligi bilan qimmatlidir. Afsuski, u tugallanmay qolgan. Mir Abdulhayning nabirasi, Abusaidning o‘g‘li Abu Tohirxoja haqida yozilishi lozim bo‘lgan keyingi maqola yozilmadi. Abu Tohirxoja Samarqand tarixi yoritilgan qimmatli “Samariya“ asarining muallifidir. Bu asarni Hoji Muinning zamondoshi Abdulmo‘min Sattoriy forsiydan turkiyga tarjima qilgan. Sattoriyning vafotidan so‘ng Sadriddin Ayniy, keyin Bo‘riboy Ahmedov bu asarni nashrga tayyorlaydi. Tarjimonlar asarga izoh yozishda Hoji Muinning ushbu ocherkidan ham foydalanishgan.

Hoji Muin publitsistikasida “Hajviy jurnal“ , “Samarqandda matbuot ahvoli”, “Samarqandda bosmaxona va yerli matbuot ishlari“, “Bir yashar “Zarafshon“, “Samarqand matbuotining tarixi“, “Samarqand qizil o‘zbek matbuoti“, “Tugallanish yo‘lida“, “Samarqandda matbuot ishlari“, “Xidmatga tuhmat” singari matbuot haqidagi maqolalarning salmog‘i anchaginadir. Bu maqolalarning aksariyatida o‘sha davr matbuotida mavjud muammolar dadillik bilan ko‘tarib chiqilgan bo‘lsa, ayrimlarida milliy matbuotimiz tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Umuman, 20-yillarda matbuotda bu sohadagi kamchiliklar yoki yutuqlar, “qizil matbuot“ni rivojlantirish masalalari tez-tez yoritilgan. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga doir maqolalar sanoqlidir.

Cho‘lponning “Turkistonda matbuot”, A. Avloniyning ”Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi”, Ziyo Saidning “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar“ shular jumlasidandir. Ular qatoriga Hoji Muinning “Samarqand matbuotining tarixi“ maqolasini ham kiritish joiz.

Yuqorida tilga olingan maqolalarda Turkiston matbuoti tarixi yoritilgan bo‘lsa, Hoji Muin ushbu maqolasida faqat Samarqand matbuoti to‘g‘risida so‘z yuritgan. “Matbuot bir millatni uyg‘otish uchun birinchi omil bo‘lg‘onidek, uning tarixi ham uyg‘onish davri tarixining muhim bir bo‘lagi sanaladi” [4], deb bilgan publitsist Samarqand doirasida bo‘lsa-da, uni yozishga kirishadi. Publitsist dastlab “Samarqandg‘a qay vaqtda matbuot kira boshlag‘oni” borasida to‘xtalib, Ostroumovning “Turkiston viloyatining gazeti” majburiy tarzda tarqatilgani, 1889-yildan ”Tarjumon“ gazetasining kirib kelgani va uning birinchi mushtariysi Hoji Abduqodir (me’mor) ekanligi, undan so‘ng “Kalkutta“, “Hablul matin“ kabi forscha gazetalar eron savdogarlari orqali tarqalganligini yozadi. Muallif Samarqandda chop etilgan dastlabki gazeta va jurnal sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand“ gazetasi va “Oyina“ jurnalini tilga olib, ular haqida Cho‘lpon va Avloniy yozgan maqolalarga nisbatan kengroq ma’lumot bergan. Shuningdek,

1915–1917-yillarda Samarqandda Husayn Ibrohimov, Saidrizo Alizoda, Akobir Shomansurovlar tomonidan yozilib, chop etilgan "Telegrof xabarlari", "Aginta xabarlari" nomli maxsus kundalik varaqalar; "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi", "Tayoq", "Bolalar yo'ldoshi", "Shu'lai inqilob", "Yosh kuch", "Zarafshon" kabi gazeta va jurnallar, ularning qachon va kim tomonidan chiqarilganligi, noshiri va muharriri, qachongacha chop etilganligi haqida yetarlicha ma'lumotlar keltirilgan. Turkistondagi vaqtli matbuot haqida so'z yuritgan jurnalistlar Hoji Muinning ushbu maqolasidan unumli foydalanishgan. Masalan, Ziyo Said "Oyina" jurnali, "Samarqand", "Mehnatkashlar tovushi" gazetalari haqida so'z yuritganda uning ko'pgina gap va jumlalarini aynan keltirgan.

Hoji Muin "Samarqand qizil o'zbek matbuoti" sarlavhali maqolasida esa bolsheviklar tomonidan chop etilgan matbuot nashrlari haqida so'z yuritadi. "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi Samarqandda bolsheviklar tomonidan chiqarilgan birinchi gazeta edi. Hoji Muin mazkur gazetaning kim tomonidan, qanday tashkil etilganligi haqida yozar ekan, "Gazetaning mundarijasi", "Gazetaning xalq va hukumat bilan munosabati", "Taraqqiy va tanazzul davri", "Gazetaning haqiqiy xodimlari", "Gazetaning tili va uslubi" kabi sarlavhalar ostida u haqda to'liq ma'lumot beradi. Bu maqolaning yana bir qimmatli tomoni borki, Hoji Muin gazetada ishlagan xodimlarning har biriga alohida izoh bergan. Masalan, Sadriddin Ayniy haqida shunday yozadi: "Ayniy afandi gazetada eng ko'p ishlaganlarning birinchisidir. Bu zot 1919-nchi yilning o'ktabridan e'tiboran gazetaga kirib, jiddiy suratda xizmat qildi. Bu kishining ishga kirishi bilan barobar gazeta ma'naviy jihatdan yuksala boshladi. Gazetada ko'brak siyosiy va ijtimoiy maqolalar yozg'uvchi kishi shu Ayniy afandi edi. Ayniy o'zining haqiqiy imzosidan boshqa "M", "Q" va ba'zan "Maorif muhibi", "Bir kishi", "Tamoshachi", "Muxbir" va "Tunqator" yashirin imzolari bilan ko'p muhim maqola va xabarlar yozg'on edi". Yoki bo'lmasa, Saidrizo Alizoda haqida shunday yozadi: "Bu o'rtoq boshda gazeta idorasida tarjumonlik vazifasini o'tadi. O'zi ham ba'zan jiddiy va hajviy maqolalar yozishib turdi ("Shapaloq" shu kishinikidir). Saidrizo afandi 1919 yil boshlarida Samarqandda chiqqan forscha «Shu'lai inqilob» majmuasiga muharrir tayin etilgandan keyin gazeta idorasidan chiqdi. 21 yilda mazkur majmua to'qtalg'ondan so'ng yana gazetaga kirib ishladi" [5]. Mana shu tarzda muallif gazeta xodimlarining taxalluslari, ularning gazetadagi faoliyati qancha davom etganligi haqida qiziqarli va qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Bunday ma'lumotlar esa 20-yillar matbuotida yashirin imzolar bilan berilgan bir qancha maqolalarning mualliflarini aniqlashda qo'l keladi.

Hoji Muinning "Bir yashar "Zarafshon" sarlavhali maqolasi "Zarafshon" gazetasining chiqa boshlaganiga bir yil to'lishi munosabati bilan, "Tugallanish yo'lida" sarlavhali maqolasi esa ikki yilligi arafasida yozilgan. Ularda gazetaning yutuqlari bilan birga, kamchiliklari ham ko'rsatib o'tilgan. Publitsistni gazetaning saviyasi qoniqtirmaydi. Negaki, "so'z va qaror" davri o'tib, amaliy ishlar davri keldi. Shuning uchun ham "...havoyi so'zlar va aslsiz, juz'iy xabarlar bilan o'zbek matbuotini to'ldirish yaramaydi. Xalqimizning hozirgi cheksiz ehtiyoji bizdan qat'iy so'z va faoliyat so'raydi", deydi. Matbuotning balandparvoz so'zlar minbari emas, balki, «elning tili, xalqning yo'lboshchisi» ekanligini yozadi. Shu bilan birga, u hukumatni tanqid qilishdan ham qo'rqmaydi. Chunki "Zarafshon" hukumat gazetasi bo'lgani uchun "uni yoz, buni yozma" deb buyruq va ko'rsatmalar berishadi. Lekin gazetaning moddiy ta'minoti, gazeta xodimlarining moddiy ahvoli bilan qiziqishmaydi ham. Publitsist, ayniqsa, hukumatning gazetada chop etilgan materiallarga e'tiborsizligidan afsus qiladi: "Matbuot bir yoqdan xalqning yo'lboshchisi bo'lsa, ikkinchi yoqdan hukumatning fikr tarqatuvchisidir. Shunday ekan, hukumatning so'zlariga bizning ahamiyat berishimizdek, bizning dod-faryodlarimizg'a hukumat idoralarining ham quloq solishi kerakdir. Holbuki, bu maqsadning ko'pincha amalga chiqmay qolishini ko'ramiz. Chunonchi, hukumatning maqsadiga muvofiq gazetalarimiz bir masala xususida tashviq yo'li bilan xabar va maqolalar yozadir. Va uni ishga oshirish uchun tirishadir. Lekin oxirida bu ishni vujudga chiqarish yo'lida ba'zi rasmiy idoralar yoki ma'murlar tomonidan parvosizlik voqe' bo'ladir. Yoki ba'zi vaqt gazeta bir ishga ahamiyat berib yozgan narsasini hukumat ta'qib etmay turadir" [6].

Ko'rinadiki, Hoji Muin gazetaning vazifasi jamiyatdagi muammolarni ko'rsatishgina emas, balki ularning hal qilinishini kuzatish, lozim bo'lganda yordam berish ekanligini nazarda tutgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Hoji Muin biografik xarakterdagi maqolalari keng qamrovliligi, faktlarga boyligi va ularga tayanilganligi, manbalarni qayta-qayta tekshirib yozilganligi uchun o'z davrida ham, bugun ham katta ahamiyatga ega.

Matbuotga oid maqolalarida esa sohadagi muammolarni xolis va haqqoniy yoritib berdi, uni rivojlantirishga, kamchiliklarini bartaraf qilishga undadi. Shu bilan birga, u milliy matbuotimiz tarixiga oid maqolalar ham yozib qoldirdiki, bular milliy jurnalistikamiz sarchashmalari bo'lgan jadid matbuotini o'rganishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Xullas, Hoji Muin publitsistikasidagi bu ikki mavzu publitsistning 20-yillardagi samarali faoliyatidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'qmoq. Shoir va muharrirlarimizning fikri // Mashrab. 1924. 2-son.
2. Mushtum, 1993. 7-son.
3. Hoji Muin. Qozi kaloni shal va uning bolalari // Maorif va o'qituvchi. 1925. 11-son. B. 64.
4. Hoji Muin. Samariand matbuotining tarixi // Zarafshon. 1923. 5-may.
5. Hoji Muin. Qizil o'zbek matbuoti // Zarafshon. 1924. 21 iyun.
6. Hoji Muin. Tugallanish yo'lida // "Zarafshon", 1924-yil 27-iyun.

Anapashsha QURBONOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
2-bosqich magistratura talabasi

DOSTON NAVOLARIGA BAXSHIDA UMR

Dostonlar Sharq xalqlarining og‘zaki ijodiyotida alohida ahamiyatga ega. Chunki dostonlar avloddan avlodga o‘tib kelgan so‘z, she’r, ovoz, soz va tomosha san’atini o‘zida jamlagan beqiyos badiiy namunalardir. Ajdodlarimiz ularni yaratish, so‘zlash, kuylash va tinglash orqali bir necha asrlar davomida ma’naviy ehtiyojlarini qondirib, kelajakka ishonch ruhi bilan yashab, mehnat qilib kelganlar. Shuningdek, zamonlar silsilasini saqlab, dostonchilik an’analarini davom ettirgan holda bugungi kunning ma’naviy va ma’rifiy omili bo‘lib maydonga chiqishini ta’minlaganlar. Mana shularning barini teran anglagan professor Botir Matyoqubov ijodiy hayotini aynan dostonlarni o‘rganishga bag‘ishladi.

B.Matyoqubov 1953-yil 12-yanvar kuni Xiva shahrida xizmatchilar oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabning sakkizinchi sinfini tamomlagach, Urganch musiqa bilim yurtiga klarnet sinfiga o‘qishga kiradi va bilim yurtini 1972-yilda bitirib, Toshkent davlat konservatoriyasida tahsil ola boshlagan. 1978-yilda Konservatoriyani tamomlagach, Urganch musiqa bilim yurtiga yuboriladi. U yerda 12 yil davomida faoliyat yuritadi, so‘ng Toshkentga ko‘chib o‘tadi va Respublika metodika markazida faoliyat yuritadi. Markazda bolalar musiqa va san’at maktablari, kollej, litsey va oliy ta’lim muassasalari uchun yangi nizom, davlat ta’lim standartlari o‘quv rejalari va dasturlar ishlab chiqqan komissiyaga rahbarlik qiladi. O‘nan ortiq o‘quv qo‘llanma va darsliklar B.Matyoqubovning muallifligida nashrdan chiqqan. Yrtmishdan ortiq ilmiy-ommabop va tarixiy mavzudagi maqolalari e’lon qilingan.

Professor B.Matyoqubov – Xorazm dostonlarini ilmiy jihatdan tadqiq etgan olim. Ana shu tadqiqotlari natijasida bir qancha o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratgan. Shunday asarlaridan biri “Doston navolari” kitobidir.

“Doston navolari” dostonchilikni professional yo‘nalishda o‘rganishni istagan har qanday o‘quvchi uchun asosiy dastak bo‘la oladi, deyish mumkin. Uning birinchi bo‘limi ikki bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobda dostonlarning musiqiy an’analari o‘rganilgan. Ushbu bo‘limda muallif: “Elat va qavmlarning yashash tarzi, tafakkur va e’tiqodlarini tadqiq etishda milliy doston, rivoyat va afsonalar tarixiy vositalar sifatida qimmatli manbaga aylanadi. Ular nafaqat tarixning bo‘sh yerlarini to‘ldiradi, balki ijtimoiy ruh in’ikoslari, tushuncha va ishonchlarini o‘rganish nuqtayi nazaridan g‘oyat muhim va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q”,[1] deya alohida ta’kidlaydi. Bu yerda fikrlar dostonlarning tub ildizlari va musiqiy ibtidosi nimalarga borib taqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Bundan tashqari baxshichilikning tub ildizi ruhiyat tabiblari bilan bog‘liq jihatlari haqidagi ma’lumotlar ham juda qiziq. Ayniqsa, Bola baxshi bilan bog‘liq voqealarning keltirilishi hech bir o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Bu bo‘limda muallif Juzjoniy, Herodot, Homidiy, Jirmunskiy, Fitrat, Taxmasib kabi turli millatlarga mansub olimlarning fikrlaridan unumli foydalangan. Kitobda shunday satrlar bor: “Herodotning «Tarix» kitobida «Araks (Amu) bo‘yida yashovchi xalqlar daraxtning quruq meva va shoxlarini tutatib, bu tutundan mast bo‘lib o‘yinga tushadilar va sho‘x qo‘shiq aytadilar», deb yozilgan. Bundan tashqari ko‘hna doston namunalari bo‘lmish Siyovush haqidagi afsonaning Xorazm bilan bog‘liqligi mashhur «Shohnoma»da ham o‘z aksini topgan. Keyinchalik Iskandar Zulqarnayn yurishlaridan Yunon madaniyatining ta’siri ostida ham «Iskandarnoma»ga o‘xshagan doston va tarixiy qo‘shiqlar yuzaga kelgan”[2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, professor B.Matyoqubov bir fikrni tasdiqlovchi bir nechta manbalardan dalillar keltirmoqda.

Dostonlar, ijrochilar, doston ijrochiligi uslubining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra mavjud bo‘lgan tasniflari, ayniqsa, o‘quvchining e’tiborini tortadi. Tasniflar bo‘yicha keltirilgan har bir turlar tarixiy va ilmiy jihatdan tahlil etilib, barcha uchun tushunarli tilda yozilgan. Shimoliy O‘zbekiston hududida aytilgan dostonlarning mavzusi va qaysi turkumga mansubligini osongina tushuntiruvchi jadval, baxshilarning shajarasi, nota yozuvlari va mavzularni ko‘z oldimizda jonlantiruvchi fototasvirlar «Doston navolari» kitobining mazmunini boyitibgina qolmasdan, o‘quvchiga juda katta qulaylik yaratgan.

Kitobining ikkinchi bobi yanada qiziqarli bo‘lib, doston nomalarining ifoda vositalariga bag‘ishlangan. Unda qo‘biz, do‘mbira, dutor, bulamon, g‘ijjak, doira kabi cholg‘ularining baxshilar ijrochilik amaliyotida tutgan o‘rni haqida batafsil ma’lumotlar berilib, ayrim kamchiliklarning sabablari ham keltirilgan. Jumladan, bulamon haqida muallif quyidagilarni yozadi: «Bulamon cholg‘usi baxshilar ovoziga taqlid qiluvchi birdan bir jo‘rnavoz sozdir. U yakka ijroda kamdan kam qo‘llanil-

gan. Bu cholg'uda tiniq tovush hosil qilish ancha murakkab bo'lib, ijro davomida aniq pardalardan chetlashish hollari ro'y beradi. Chunki bulamonda tovush yo'nalishi, asosan, nafas kuchi bilan boshqariladi. Yuqori registrlarda esa ijrochi labi va chakka mushaklari ham ishtirok etadi. Bu murakkab jarayon ijrochidan ohang rivojini juda ehtiyotkorlik bilan eshitish orqali nazorat qilish va nafas tayanchi bo'lgan qorin mushaklari (diafragma)ni mohirona boshqarishni talab etadi. Buning sabablari mazkur cholg'uning o'ziga xos tuzilishi bilan ham bog'liq. Shuning uchun ham yaxshi bulamonchilar nisbatan kam uchraydi"[3].

Bundan tashqari ushbu bobda har qanday o'quvchining e'tiborini tortadigan bir masala ko'tarilgan va ilmiy faktlar bilan tahlil qilingan. Bu «noma» va «nag'ma» tushunchalarining ham lug'aviy, ham istilohiy jihatdan o'rganilishidir. Shunday bo'lsa-da, chalkashliklardan xoli bo'lish uchun mazkur ibora baxshilar tilida qanday atalgan bo'lsa, muallif ham xuddi shunday, ya'ni «noma» tarzida ishlatishni ma'qul ko'rgan, so'ngra doston nomalarini har taraflama yoritgan. Ushbu bobda nomalar jadvali ham keltirilganki, uning yordamida eroniy va shirvoniy nomalarning nomlanishi, uslubi, doira usuli, toifasi, hijosi va kelib chiqishi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Bu jadval ijrochilar uchun ham, tadqiqotchilar uchun ham qulay shaklda berilgan bo'lib, nomalarni bir biri bilan taqqoslash imkonini beradi.

Professor B.Matyoqubov «Doston nomalari» kitobida doston nomalarini ba'zi jihatdan maqomlarga qiyoslab tahlil qilgan. Bungacha bo'lgan davrda hech bir musiqashunos olimlar tomonidan bu mavzu bu qadar o'rganilmagan edi: «... nomalardagi kuy va so'z bog'lanishi maqomlardan va yirik ashulalardan farqli o'laroq, har biri nisbatan erkinligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi"[4]. Bu kabi dalillar nota namunalari yordamida muallif tomonidan ko'plab keltirilgan. Nomalarning lad asoslarini o'rganishda ham turlicha yondoshish kuzatiladi: «Birinchisi, doston ijrochiligida yetakchi cholg'u bo'lgan dutor pardalariga qiyos qilingan holda dostonlarning kuy va parda tuzilishini aniqlash. Ikkinchisi, maqom yo'llariga nisbat bergan holda yuzaga kelgan parda tizimi va tovushqatorlariga oid «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» kabi atamalardan foydalanib lad xususiyatlarini ko'rib chiqishdan iborat»[5]. Qolaversa, nomalarning pardalari talaba va ijrochilar uchun yanada tushunarli bo'lishi uchun nota misolida aniq belgilar bilan tushuntirib o'tilgan. Doston nomalarning avjlarga ham alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, nota namunalari bilan boyitilgan. Shu tariqa muallif Xorazm maqom yo'llari va doston namunalarining o'zaro ta'siri natijasida ularning yanada boyiganligi, nomalar asosida yuzaga kelgan kuy, qo'shiq va ashulalarga juda ko'plab misollarni keltirgan. Bundan tashqari bu borada Xorazm xalfalarining nomalar asosida yaratgan qo'shiqlari va boshqa ijrochilar ijodi katta ko'lamdagi asarlarni tashkil qiladi.

Xullas, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor Botir Matyoqubovning «Doston navolari» nomli ilmiy nashri o'zbek dostonchiligini o'rganayotgan barcha yoshlar, talabalar, tadqiqotchilar uchun asosiy ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek san'atiga xorijlik musiqashunoslar va ijodkorlarining ham qiziqishini hamda o'zbek baxshichilik san'atining asl mohiyatini jahonga tanitish lozimligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, ushbu ilmiy nashrni, eng avvalo, o'zimiz chuqur o'rganishimiz va uni turli xorijiy tillarga tarjima qilishimiz, jahonga olib chiqishimiz zarur. Qolaversa, boy tarix, chuqur falsafiy mazmun, beqiyos ohanglarga ega bo'lgan dostonlarimiz va uning ijrochilarini dunyoga teran tanitish fursati keldi.

1. B.Matyoqubov. Doston navolari. – Toshkent: Building print, 2009. 6-bet.
2. O'sha manba. 10-bet.
3. O'sha manba. 38-bet.
4. O'sha manba. 62-bet.
5. O'sha manba. 65-bet.

Хонбиби ДУСМАТОВА,
учитель средней общеобразовательной школы № 7 города Ангрена

